# ADABIYOT 2019-YIL BAZA I-QISM JAVOBI BILAN

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

@Kimyouz7

1. “Abadiy baxtim, qayt! Qayt, mangu kulfatim! Qayt, baxt-u kulfatim, azob-u davlatim, qayt!..” Ushbu qo‘shiq matni qaysi manbasini aniqlang. A.“Nur va soyalar” B.“Devonu lug‘atit turk” C.“Naqorat” D.“Oltovlon va ettinchi”
2. “Abadiy baxtim, qayt! Qayt, mangu kulfatim! Qayt, baxt-u kulfatim, azob-u davlatim, qayt!” misralari qaysi qahramon tilidan aytilgan? A. Giribala B.Xorkumar C.Shoshibushon D.Sohib
3. “Abulfayzxon” fojiasida qaysi obraz mard, to‘g‘ri so‘z, e’tiqodidan qaytmaydigan kishi sifatida tasvirlangan? A.Nodirshoh B.Ibrohim otaliq C.Farhod otaliq D.Hakimbiy otaliq
4. “Abulfayzxon” fojiasidagi “Eng qop-qora saodat sensan” degan fikr kimga qarata aytilgan? A.Abulfayzxonga B.taxtga C.Hakimbiyga D.Ulfatga
5. “Abulfayzxon” fojiasidagi to‘qima obrazlarni sanang? 1.Nodirshoh; 2.Qozikalon Nizom; 3.Hakimbiy; 4.Ibrohimbiy; 5.Ulfat; 6.Mirvafo; 7.Davlat. A.2, 5, 7 B.1, 2, 5, 6 C.1, 3, 4, 6 D.3, 4, 5, 7
6. “Abulfayzxon” fojiasidagi xonni “bir ota kabi asragan zot” kim? A.Nodirshoh B.Ibrohim otaliq C.Farhod otaliq D.Hakimbiy otaliq
7. “Abulfayzxon”ning nechanchi pardasi Nizom, Ulfat va Mirvafolarning shohmot o‘ynayotgan holati bilan boshlanadi? A.1 B.2 C.3 D.4
8. “Abulfayzxon”ning nechanchi pardasida Xayol obrazi uchraydi? A.4 B.5 C.3 D.6
9. “Ahmad al Farg‘oniy” she’riy dramasi asosida kim “Ahmad al Farg‘oniy” operasini yaratgan? A.M.Bafoyev B.J.Jabborov S.S.Yudakov D.M.Jalil
10. “Ahmad al-Farg‘oniy” operasi kimning qalamiga mansub? A. J.Jabborov B. M.Bafoev S. I.Yusupov D. M.Boboev
11. “Ahmadjonning hikmatlari” dostoni muallifi kim? A.Shayxzoda B.Oybek C.Mirtemir D.Faxriyor
12. “Ajab zamonda qoldik, yoqalar bo‘ldi etak, bo‘z paytava bo‘ldi, boshga chiqdi patak” misralari qaysi asardan olingan? A.“Shum bola” B.“Hasan Kayfiy” C.“Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” D.“Yodgor”
13. “Alisher” she’rining yozilish sababi va vaqti? A.1941 yil, yubiley munosabati bilan B.1948 yil, yubiley munosabati bilan C.1949 yil, o‘z xalqini kamsitganlarga javob iarzida D.1941 yil, urush munosabati bilan
14. “Alpomish” dostonida Boysariboyga ergashgan o‘n ming uyli qo‘ng‘irot eli kimning gapi bilan ko‘chishga qaror qiladi? A.Shohimardon pirning B.Yortiboy oqsoqolning C.Boybo‘rining D.Barchinning
15. “Alpomish” dostonida Surxayil kampirning 7 o‘g‘li bor. Ularni katta-kichikligi jihatidan tartiblang. 1.Boyqashqa 2.Toyqashqa 3.Ko‘kaldosh 4.Ko‘kaman 5.Ko‘kqashqa 6.Qo‘shquloq 7.Qorajon A.1, 2, 3, 4, 5. 6, 7 B.3, 4, 5, 1, 2, 6, 7 C.7, 6, 5, 3, 4, 1, 2 D.3, 4, 5, 2, 1, 6, 7
16. “Andromaxa” asari muallifini toping. A.Kornel B.Molyer C.Rasin D.Sartr
17. “Arbain” qaysi janrdagi asarlarni o‘z ichiga oladi? A.40 ta tuyuq B.52 ta muammo C.40 ta ruboiy D.266 ta g‘azal
18. “Armon” she’rida takrorlanib keluvchi misrani toping? A.Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman B.Bahor, ketma mening bog‘imdan C.Ko‘nglimda armon yotar D.Ko‘nglimda armon yotar Buzilgan ro‘zg‘or misol
19. “Arslon” pyesasi qachon yaratilgan va necha pardadan iborat? A.1923 yil, 6 parda B.1924 yil, 6 parda C.1924 yil, 5 parda D.1925 yil, 5 parda
20. “Aruz haqida” kitobi qachon e’lon qilindi? A.1926 B.1937 C.1931 D.1936
21. “Asrga tatigulik kun” romanida asar pafosi qaysi timsol orqali namoyon bo‘ladi? A.Nayman ona B.Bo‘ronli Edigey C.Kazangap D.Sobitjon
22. “Avesto”da apoxtar so‘zi uchraydi. Bu so‘z quyidagi qaysi tushunchani ifodalaydi? A.do‘zax B.jannat C.moddiy hayot D.o‘tkinchi dunyo
23. “Avesto”da astumand so‘zi uchraydi. Bu so‘z quyidagi qaysi tushunchani ifodalaydi? A.moddiy dunyo. B.lazzatli, xushbo‘y. C.qo‘shiq D.og‘ir, mashaqqatli
24. “Avesto”da ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu o‘y sohibi qanday nom bilan atalgan? A.Ashavan B.Durvand C.Fargard D.Zarimaya

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

25. “Avesto”da ta’kidlanishicha, durvand vafot etganda uning jami yomon amallari (dini) kimning yoki nimaning qiyofasida o‘ziga namoyon bo‘ladi? A.tuban xotin B.ayiq C.loyqa suv D.dovul
26. “Avesto”da ta’kidlanishicha, ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu o‘y sohibi vafot etganda, uning jami ezgu amallari (dini) kimning yoki nimaning qiyofasida o‘ziga namoyon bo‘ladi? A.sohibjamol qiz B.o‘ynoqi ohu C.chashma suvi D.tong shamoli
27. “Avesto”da xabar berilishicha, podsho Jamshid Tangri buyrug‘i bilan ... A.qattiq sovuqlarda odamlarni asrash uchun yerostida shahar qurgan B.odamlarni vabodan saqlash uchun tibbiyotni o‘ylab topgan. C.ko‘prik va suv osti yo‘llari qurgan D.barcha javoblar to‘g‘ri.
28. “Avesto”da zarimaya moyi so‘zi uchraydi. Bu so‘z ifodalaydigan moy kimlarga tuhfa qilinadi? A.parhezkor va ashavanlarga B.durvandlarga C.do‘zaxiylarga D.podsholarga
29. “Avesto”dagi 2-fargardda Zardusht Ahura Mazdadan ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu o‘y sohibi vafot etganda, uning ruhi 1-, 2- va 3-kechada qayerda orom olishi haqida so‘raydi. Savolga Ahura Mazdaning javobini aniqlang. A.har uch kechada ham o‘z yostig‘i ustidan joy oladi. B.1-kechada o‘z yostig‘i ustidan, 2-kechada o‘z yostig‘i ostidan, 3-kechada o‘z yostig‘i yonidan joy oladi C.har uch kechada ham o‘z yostig‘i osidan joy oladi. D.har uch kechada ham o‘z yostig‘i yonidan joy oladi.
30. “Avesto”dagi 2-fargardda Zardusht Ahura Mazdadan ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu o‘y sohibi vafot etganda, uning ruhi 1-, 2- va 3-kechada qayerda orom olishi haqida so‘raydi. Savolga Ahura Mazda javob beradi. Qo‘shimchasiga vafot etgan kishining qanday goh (qo‘shiq) kuylab, istig‘for aytib tavba qilishini ham ma’lum qiladi. Bu qo‘shiq... A.Ushtavand goh B.Ashavan goh C.Fargard goh D.Choshtgoh goh.
31. “Avlodlar dovoni” romanidagi to‘qima obrazlarni belgilang. 1.Humoyun 2.Aqiqa begim 3. Beka begim 4. Chand bibi 5.Sherxon 6.Hamida 7.Nizom A. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 B. 2, 3, 4, 5, 6, 7 C. 5, 6, 7 D. 6, 7
32. “Avlodlar dovoni”da Humoyun qiyinchilik bilan qo‘lga kiritgan, sharqiy viloyatlarning qulfu kaliti bo‘lgan qal’a nomini aniqlang. A.Chunor B.Bixar S.Agra D.Gaur
33. “Avlodlar dovoni”da tasvirlangan Aqiqa begim, Beka begim, Chand bibilar Humoyun Mirzoning kimlari? A.Aqiqa begim – qizi, Beka begim – xotini, Chand bibi – onasi B.Aqiqa begim – qizi, Beka begim va Chand bibi – xotinlari C.Aqiqa begim – singlisi, Beka begim –xotini, Chand bibi – onasi D.Aqiqa begim va Beka begim – xotinlari, Chand bibi – onasi
34. “Ayol kulib turib o‘lishi mumkin, Dunyoni olishi mumkin jilmayib” satrlari muallifi kim? A.Z.Mo‘minova B.H.Xudoyberdieva. C.G.Nurullayeva D.Zulfiya.
35. “Ayriliq” she’ri kimga bag‘ishlangan? A.G‘.G‘ulomga B.A.Qahhorga C.U.Yusupovga D.SH.Rashidovga
36. “Aziz asrimizning aziz onlari Aziz, odamlardan so‘raydi qadrin” misralari qaysi she’rdan olingan? A.“Vaqt” B.“Kuzatish” C.“Alisher” D.“Sog‘inish”
37. “Badarg‘a” asarining muallifi kim; asar kimga bag‘ishlangan? A.M.Osim; Navoiyga B.Zavqiy; Muqimiyga C.M.Osim; Mashrabga D. Shuhrat; Mashrabga
38. “Badiiy ijod sohasida uning “Kanz ul haqoyiq” nomli masnaviysi haqida ma’lumot bor. Ruboiylari bilan mashhurdir”. Umar Hayyomdan keyin ijodini faqat ruboiy orqali boyitgan ijodkor …? A.Rudakiy B.P.Mahmud S.Xo’jandiy D.Gadoiy
39. “Bahodirning qilichi” (A.Suyun) she’ri yozilgan sanani toping A.1978 B.1988 C.2008 D.1980
40. “Bahor o‘tdi”, “Og‘ir tosh ko‘chsa”, “Ko‘k dengiz”, “Qush tili”, “Tog‘larga qor tushdi” hikoyalari muallifi kim? A.C.Zunnunova B.SH. Xolmirzayev C.A.Muxtor D.A.Qahhor
41. “Baxt qushining qo‘shig‘idan ko‘nglimning tub-tubigacha to‘lqinlanib ketdim. Shundan buyon men har yili bahor bilan moviy qushimni – baxt qushimni kutadigan bo‘ldim”. Ushbu parcha kimning tarjimai holidan keltirilgan? A.Mirtemir B. T.Murod C.Ernest-Seton Tompson D.Hans Kristian Anderson
42. “Ba’zida bir nafas olgulik muddat, Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik...” misralari muallifi kim? A.G‘.G‘ulom B.U.Nosir C.A.Muxtor D.A.Qahhor
43. “Bir toychoqning xuni”, “Galatepaga qaytish” asarlarining muallifini toping. A. E.A’zam B. X.Sulton S. T.Murod. D. M.M.Do‘st

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

44. "Birinchi muallim" kitobida keltirilgan "To'g'rilik" nomli hikoyatda gap nima haqida boradi? A.to'g'ri so'z bola haqida B.to'g'ri o'sgan tut haqida. C.to'g'ri va egri yo'l haqida D.barcha javob to'g'ri.
45. "Biz osiyoliklar, xususan turkistonliklar dumba sotib, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshiymiz.." Ushbu fikrlar muallifi? A.Cho'lpon B.Hamza C.Avloniy D.Qodiriy
46. "Biz o'z muhabbatimiz bilan narsalarga go'zallik bag'ishlaymiz" aforizmi muallifi kim? A.Frans B.Dobrolyubov C.Tolstoy D.Pushkin
47. "Biz polvonlik maktabida o'qimadik, polvonlik bizga ota meros, pushtdan pushtga, qondan qonga o'tib kelayapti". Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidan olingan mazkur parchadagi ushbu so'zlar qaysi qahramon tilidan aytiladi? A. Normurod polvon B. Amir polvon S. Bo'ri polvon D. Tilovberdi
48. "Bolalikda bir kun endi yotsam, Xayollarim kelib Somon yo'liga, Yulduz uchdi! Xuddi mushakday. Yonib yerga tushdi Jizzax yo'liga" Ushbu she'riy parcha kimning asaridan olingan? A.A Muxtor B.S.Zunnunova C.Mirtemir D.SH Rahmon
49. "Boshimni zo'r ishga berib qo'yibman" iborasining muallifini toping. A.Bobur B.Pirimqul Qodirov C.Gulbadanbegim D.Cho'lpon
50. "Bu daryoning suvi tekkan odam bir umr qilgan toat-ibodatidan ayrilib, kasofatning tagida qoladi". Hindlar uchun ajal ma'budiga aylangan bu daryoning nomini toping. .A.Ganga B..Kanjuhala C.Jamna D.Karamnasa
51. "Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi. muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost..." "Ufq" romani haqida bildirilgan ushbu fikrlar muallifi kim? A. E.Vohidov B.Oybek C.A.Qahhor D. G'.G'ulom
52. "Bu mashhur shoir, olim o'zini siyosatdan uzoq tutar, shahar tashqarisidagi Sa'diddin Koshg'ariy mozori yonidan joy olib, o'sha yerda yashar edi…" Gap kim haqida boryapti? A.Jomiy B.Navoiy C.Mashrab Д.Xoja
53. "Bugungi turk eli va uning yaqin tarixi" kitobi muallifi kim? A.B.Qosimov B.I.Gasprinskiy S.Z.Validiy D.A.Sog'uniy
54. "Dahshat" hikoyasida qanday fikr ilgari surilgan? A.Erning o'z xotiniga zulm qilishi dahshatli illat ekanligi B.Ayolning eriga isyon qilishi fojiaga olib kelishi C.Inson erki, shaxs hurligini ulug'lash D.Insonning o'zi qodir bo'lmagan ishga qo'l urmasligi
55. "Darvesh", "Sho'rodan qolgan odamlar" asarlari kimning qalamiga mansub? A.N.Eshonqul B.T.Murod C.N.Norqobilov D.SH.Bo'tayev
56. "Dengiz suvi toshib yotgani ayon bo'lib tursa ham, it undan tili bilan ichadi", "O'z davringda baxtingni taqdir qo'lidan xalos et", "Odam uchun eng yaxshi xursandchilik - o'z qo'li bilan ekkan daraxt mevalarini yeyish". Ushbu hikmatlar qaysi asardan olingan? A."Yatimat ad-dahr" B."Gulistoni bit-turkiy" C."Qisasi Rabg'uziy" D."Hayratul-abror"
57. "Devoni Nihoniy" qachon tuzildi? A.1919 B.1915 C.1914 D.1913
58. "Devonu lug'atit turk" asari qayerda yozilgan. A.Balosog'unda B.Bag'dodda C.Damashqda D.Oltin O'rdada
59. "Dunyo kattakon ko'l. Zamon esa …" "Nasihatlar"dan olingan ushbu parchani to'ldiring. A.Esib turgan yel B.Oqib turgan suv C.Undagi to'lqin D.Bir ko'lankadir
60. "Devoni lug'atit turk"da qo'llangan "savlashmoq" so'zi qanday ma'no anglatadi? A.savalashmoq B.otalar so'zini eslamoq S.sa'vaga o'xshab kuylamoq D.nag'ma qilmoq
61. "Devoni lug'atit turk"da qancha maqol keltirilgan? A.260 dan ortiq B.400 dan ortiq S.400 ga yaqin D.100 dan ortiq
62. "E, bo'tam, pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q". Ushbu nutq qaysi asardan olingan? A."Urushning so'nggi qurboni" B."Vatan" C."O'zbek xarakteri" D."Oq kema"
63. "Egasi bor yurtning ertasi bordir" misrasi bilan tugaydigan she'r muallifi kim? A.E.Vohidov B.A.Oripov. C.S.Sayyid D.Z.Mirzo.
64. "Elektra", "Medeya", "Gerakl" kabi tragediyalar muallifini ko'rsating. A.Sofokl B.Esxil S.Evripid D.Vergiliy

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

65. "Er yurak", "Farg'ona hikoyalari", "Muhabbat" singari to'plamlar muallifi kim? A.O'.Hoshimov B.A.Qahhor C.S.Ahmad D.E.Vohidov
66. "Erta ona tilim yo'qolsa agar, Men bugun o'lishga bo'lurman rizo" satrlari muallifi kim? A.R.Hamzatov B.C.Zunnunova C.A.Avloniy D.Shuhrat
67. "Ey yor, ostonang oldida yotgan toshni nima qilarding nariga surib qo'yib, axir u mening peshonamga urilaverib, o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketardiku!" deb juda kuchli obrazli tasvir yaratgan shoir nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan? A.Dehlaviy B.Navoiy C.Mirzo G'olib D.Husayniy
68. "Faqrnoma"da faqirlikning nechta asosi sanalgan? A.40 B.12 S.24 D.10
69. "Garchi undan ham ayrim esda qolarli voqea-hodisalar, yangi xarakterlar o'rin olgan bo'lsa-da, avvalgi qissalaridek muvaffaqiyatli chiqmadi". Gap kimning qaysi asari haqida bormoqda. A.P.Qodir "Meros" B.T.Murod "Qo'shiq" S.P.Qodir "Qadrim" D.T.Murod "Ot kishnagan oqshom"
70. "Gohi-gohida kiyiklar qonini ichgisi, chayonni chaynagisi keladigan" shoir nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan? A.M.Yusuf B.Faxriyor C.R.Parfi D.B.Ro'zimuhammad
71. "Gulzor"dagi hikoyatda Sulaymon payg'ambarga qaysi qush obi hayot suvini ichmaslikni maslahat beradi? A.Humo B.Haqqush C.Butimor D.Hudhud
72. "Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatadirgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir.." Ushbu fikr muallifi kim? A.R.Hamzatov B.Avloniy C.A.Muxtor D.Cho'lpon
73. "Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprog'iday qaltirab turibdi". Ushbu o'xshatishga asoslangan fikrda "har ikkovimiz" deyilganda kimlar nazarda tutilgan? A.Otabek va Kumush B.Anvar va Ra'no C.Navoiy va Guli D.Omon va Shum bola
74. "Hayotga muhabbat" (J.London) hikoyasida holdan toygan qahramon Titchi-nichili ko'liga etib borishini bilardi. "Titchi-nichili" so'zi mahalliy tilda qanday ma'no beradi? A."Kichik og'ochlar o'lkasi" B."Kichik orollar o'lkasi" C."Kichik ko'llar o'lkasi" D."Kichik daryolar o'lkasi"
75. "Hayotga muhabbat" (J.London) hikoyasida kit ovlovchilarning kemasi qanday nomlangan? A."Bedford" B."Blufinks" C."Poseydon" D."Zimanus"
76. "Hayotga muhabbat" (J.London) hikoyasida kit ovlovchilarning kemasida kimlar bor edi? A.ilmiy ekspeditsiya a'zolari B. qaroqchilar C. kit ovlovchilar D. qochoq qullar
77. "Hazilnamo" deb izoh berilgan "Biz ovqatlanamiz" nomli she'r muallifi kim? A.E.Vohidov B.A.Oripov. C.S.Sayyid D.Z.Mirzo.
78. "Holo, bu to'rg'onlarning navola do'stlar, pivola hariflari, taom yemakga hozir, maslahatga aqli qosir. "Zarbulmasal"dan olingan parchada navola, pivola hariflari, qosir so'zlarining ma'nosini aniqlang. A.In'om, luqma; ulfatchilik do'stlari, qadah; qisqa; ojiz B.Ilm; ma'rifat; shoh qabulxonasi; qisqa C.Es hushli; ulfatchilik do'stlar; ojiz D.Oqil, dono; ulfatchilik do'stlar; donishmand
79. "Ikkinchi muallim" kitobida keltirilgan "Yalg'on do'st" nomli hikoyatda safarga chiqqan ikki do'stga qaysi hayvon duch keladi? A.ayiq B.yo'lbars C.tulki D.bo'ri
80. "Insonga qulluq qiladirman" to'plami muallifi kim? A.A.Muxtor B.CH.Aytmatov C.Mirtemir D.SH.Rahmon
81. "Insonni tug'ish va o'stirish qanchalar qiyin, o'ldirish esa oson" Ushbu jumla qaysi asardan olingan? A."Mehrobdan chayon" B."Dahshat" C."Oq kema" D."Yovvoyi yo'rg'a"
82. "Jahon mening bag'rimdami yo men jahon bag'rida, Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!" Ushbu misralar muallifi nomi qaysi javobda ko'rsatilgan? A.A.Muxtor B.C.Zunnunova C.R.Parfi D.Faxriyor
83. "Jaloliddin Manguberdi" dramasining muvaffaqiyatini ta'minlagan omil nima? A.Asarning nazmda yozilgani B.Shonli o'tmish sahifalarining badiiy haqqoniylik bilan tasvirlanishi C.Asar voqealarining o'ta ziddiyatli bo'lishi D.Asarning tarixiy faktlarga asoslanganligi
84. "Jayronlar juftiga boqar jilmayib, Oqqush qanot qoqar oqqushni so'rab" misralarida qanday san'at qo'llangan? A.alliteratsiya B.jonlantirish. C.metafora D.antiteza
85. "Jaziramadagi odamlar" romani muallifini aniqlang. A.O.Muxtor B.L.Bo'rixon C.X.Do'stmuhammad D.N.Eshonqul

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

86. "Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi, - deb o'yladi ... ijirg'anib. – Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi". Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying. A.Tursunboy B.Shoikrom C.Bektemir D.Kimsan
87. "Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi, - deb o'yladi ... ijirg'anib. – Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi". Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying. A.Tursunboy B.Shoikrom C.Bektemir D.Kimsan
88. "Kamdan kam uchraydigan baxtli odam" obrazi qaysi asarda uchraydi? A."O'zbeklar" B."Zulmat ichra nur" C."Mardlik afsonasi" D."Oq kema"
89. "Karam va saxovat bobida" qismi "Hayrat ul-abror" dostonining nechanchi bobi? A.1 B.5. C.3 D.10
90. "Kichkina shahzoda" qissasi qahramonining sevgan guli … A.nargisgul B.nilufar guli C.feruza guli D.yashil atirgul
91. "Kichkina shahzoda" qissasi qahramonining sevgan guliga xos salbiy xususiyat qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan? A.yolg'onchilik B.arazgo'ylik C.mag'rurlik D.barchasi
92. "Kichkina shahzoda" qissasi qahramonining o'z sayyorasidagi eng xavfli dushmani nima? A.ilon B.baobab daraxti C.eman daraxti D.qo'zichoq
93. "kuy qo'shiqqa, san'atga muhabbat musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan musiqaning hayotbag'sh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak mubolag'a bo'lmaydi" ushbu parcha qaysi asardan olingan? A."Yuksak ma'naviat – yengilmas kuch" B."Moabit daftari" C."Adabiyot nadur?" D."O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan!"
94. "Ko'zgu oldidagi odam" romani muallifini aniqlang. A.C.Vafo B.O.Muxtor C.SH.Xolmirzayev D.X.Do'stmuhammad
95. "Latofatnoma" qaysi jihati bilan "Muhabbatnoma"dan farq qiladi? A.Boshdan-oyoq masnaviy shaklida yozilganligi bilan B.g'azal, fard, qit'a va boshqa janrdagi asarlar qo'llangani bilan S.so'z o'yinlari, ayniqsa, tajnisning ko'p qo'llangani bilan D.arabcha va forscha so'zlarning kam, ko'proq o'zbekcha imkoniyatlar izlangani bilan.
96. "Mardlik afsonasi" balladasida "Suv-suv" deb kimlar yoki nimalar qon yiglagan? A.dehqonlar B.qo'y-qo'zilar C.gul va chechaklar D.qirg'oq va bog'
97. "Martin Iden" romani muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
98. "Maydon" romani muallifini aniqlang. A.N.Eshonqul B.O.Muxtor C.A.Muxtor D.L.Bo'rixon
99. "Mehrobdan chayon" romanidagi "Ikki xil sadoqat" hikoyasida bir keksa ko'r kishi tilga olinadi. U kim edi? A.Safar bo'zchining pochchasi B.Anvarning otasi S.Anvarning qo'shnisi D.Maxdumning ustozi
100. "Men bir qora kunda tug'ildim, Tug'ildim-u, shu on bo'g'ildim"-deya bolalik yillarini eslagan shoir kim? A.Abdulla Qahhor B.Hamid Olimjon C.G'afur G'ulom D.Abdulla Qodiriy
101. "Men va boshqalar" (Cho'lpon) she'ri qaysi janrda yozilgan? A.g'azal B.sonet C.to'rtlik D.oq she'r
102. "Mendan ham sodiqroq do'st topolmaysan, Sensiz men ham yo'qman derkan o'rikka" Ushbu A,Muxtorning she'rida "sodiq dust" nima edi? A. O'rik gullari B. O'rik barglari C.O'rik soyasi D. O'rik kurtaklari
103. "Millatchi" degan tamg'a bilan qamalib, qamoq muddatini Shimoliy Qozog'istonda o'tagan ijodkor kim? A.C.Ahmad B.Shayxzoda C.Shukrullo D.Shuhrat
104. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Piri Zindoniy Ulug'bek bilan bahslashib, qaysi sharq allomasining kitobida mamlakatni donishmandlar kengashib boshqarsalar el obod bo'lishi to'g'risida yozilganini ta'kidlaydi? A.Forobiy B.Yusuf Xos Hojib C.Abu Ali ibn Sino D.Kaykovus
105. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Piri Zindoniy zindonda necha yil yotgani aytilgan? A.50 B.35 C.25 D.45
106. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida qaysi davlat elchilari ishtirok etadi? 1.Chin 2.Farang 3.Hind 4.Misr 5.Rus A.1, 3, 4 B.3, 4, 5 C.2, 4 D.1, 2, 3, 4, 5
107. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida qaysi davlat elchisi "Sharq vahshati"ning bo'hton ekani to'g'risida so'zlaydi? A.Hind B.Misr C.Rus D.Farang

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

108. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida qaysi davlat elchisi Samarqand, Buxoro olimlarining kitoblaridan nusxa olib ketmoqchiligini so‘zlaydi? A.Hind B.Misr C.Rus D.Farang
109. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida qaysi davlat elchisi o‘z mamlakatida Ulug‘bek madrasasining shuhrati baland ekanini so‘zlaydi? A.Hind B.Misr C.Rus D.Farang
110. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida qaysi davlat elchisi o‘z yurtida Turkistonning matolari yo‘qligi, ikki davlat o‘rtasida karvon aloqalari yo‘lga qo‘yilishi, do‘stlik shohi kabi muloyim, paxtaday muloyim bo‘lishini istashini so‘zlaydi? A.Hind B.Misr C.Rus D.Farang
111. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida qaysi davlat elchisi Shohrux vafotiga kelgani, keyin bir yil davomida Xuroson-u Turkistonni sayr qilganini so‘zlaydi? A.Rus B.Chin C.Farang D.Ingliz
112. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Ulug‘bek elchilarga nima sovg‘a qiladi? A.elchilarning har biriga o‘zi so‘ragan narsasini B.O‘zining “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” kitobini C. Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kitobini D. Firdavsiyning “Shohnoma” kitobini
113. “Munojotni tinglab” she’ri muallifi kim? A.E.Vohidov B.A.Oripov S.I.Mirzo D.U.Azim
114. “Mehr yasht”da bandlar, asosan, qaysi qatordagi gap bilan yakunlangan? A.Meni ham e’zozlashsa, Yod etib namozlarda B.Ehsonlardan bo‘l mamnun, Xayr-u qurbon mo‘l-u ko‘l S.Baxt uchundir namozim, Baxt uchun ibodatim D.Mitraga topinurmiz
115. “Men vatanni sizlardan kam sevmayman. Shu sevgim tufayli men o‘n uch yil quvg‘inda bo‘ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-voh qilmasdan, iztirobdan yuzimni bujmaytirmasdan, yana, ehtimol, butun umrga quvg‘in joyimga qaytmoqdaman”. Haynening ushbu izhori manbasini aniqlang. A.SHoir tarjimai holi B.“Germaniya. Qish ertagi” kitobi so‘zboshisi C.“Atta Tirol” majoziy dostoni so‘zboshisi D.“Fransuz ishlari” asari so‘zboshisi
116. “Modomiki, ularga o‘lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo‘lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?” Ushbu iztirobli fikrlar qaysi qahramonga tegishli? A.Mo‘min chol B.Bo‘ronli Edigey C.Ikromjon D.Fanorchi ota
117. “Nasihatlar” kitobida keltirilgan “Yettinchi so‘z”da aytilishicha bola onadan tug‘ulganda ikki odat bilan tug‘uladi. Ular qaysilar? A.Birinchisi: yesam, ichsam, uxlasam demoqlikdir, ikkinchisi: ko‘rsam, bilsam demoqlikdir B.Biri: gapirsam, yursam demoqlikdir, ikkinchisi: tanisam, yesam demolkikdir C.Biri uxlasam, yesam demoqlikdir, ikkinchisi: gapirsam, yursam demoqlikdir D.Birinchisi: yesam, ichsam demoqlikdir, ikkinchisi: yursam, voyaga yetsam demoqlikdir
118. “Nasim polvon to‘g‘risiga oyoq ildi”. Ajratib ko‘rsatilgan birikmaning ma’nosi A.qoqilmoq B.yiqilmoq S.o‘tirmoq D.to‘xtamoq
119. “Nido” dostonida pochtachining ismi? A.Rustam B.Juman C.Xol aka D.Tal’at
120. “Nurmat otaning tushi” dostoni muallifi kim? A.Shayxzoda B.Oybek C.Mirtemir D.Faxriyor
121. “Odam bo’lish qiyin” romani muallifi qaysi javobda berilgan? A.Shukrullo B.N.Norqobilov C.O’.Umarbekov D.X.Do’stmuhammad
122. “Odatda, suvi uncha ko‘p bo‘lmaydigan bu daryo yomg‘ir fasli boshlangandan beri vahimali tusga kirgan”. Gap qaysi daryo haqida borayapti? A.Ganga B.Jayhun C.Jamna D.Karamnasa
123. “Olma gullaganda” peyesasi muallifi kim? A.A.Qahhor B.O‘.Hoshimov C.O.Yoqubov D.O‘.Umarbekov
124. “Oltin kosa, gulgun sharob ichildi maydon ichinda”. Parcha qaysi asarda keltirilgan? A.“Oq kema” B.“Yazd cho‘li” C.“Mardlik afsonasi” D.“Ravshan”
125. “Oq kema” asarida nima erk va qudrat ramzi hisoblanadi? A.durbin B.baliq C.bug‘u D.oq kema
126. “Oq kema” asarida qirg‘iz qabilasining oqsoqoli kim edi? A.Botir qushchi B.Botir qulchi C.Botir qobil D.Botir qosim
127. “Oq kema” qissasi qahramoni Mo‘min cholning laqabi nima? A.indamas B.chaqqon C.ertakchi D.qirg‘iz
128. “Oq kema” qissasidagi rivoyatda dushman qabiladan qolgan qizcha va bolani o‘ldirib, qirg‘iz zotini yo‘q qilish kimga topshirilgan? A.Surxayil mastonga B.Jodugarga C.Oqsol kalga D.Cho‘tir Baymoq kampirga
129. “Oq sukunat” hikoyasi muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

130. “Oqshom cho‘kib qoldi bu oqshom” satri bilan boshlanadigan she’rdan olingan quyidagi parchada qanday ma’no ko‘chishi bor? Bir mahalla nigohni ko‘rdim: Yashash kerak, sevish shart emaC. A.metafora B.kinoya C.metonimiya D.vazifadoshlik
131. “Ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg‘in bo‘lib, olamdan o‘tadi”gan Tursunboy “Ufq” romanining qaysi qismida uchraydi? A.“Hijron kunlarida” B.“Ufq bo‘sag‘asida” C.“Qirq besh kun” D.bunday obraz bu romanda uchramaydi
132. “Otalar xudosi” hikoyasi muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
133. “Otoyining tug‘ilgan yili” asarining muallifi A.E.A’zam B.X.Sulton S.T.Murod D.M.M.Do‘st
134. “Ovuldan xat” nomli she’riy to‘plam muallifini aniqlang. A.Shayxzoda B.Mirtemir C.Dante D.R.Hamzatov
135. “O’choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o’ralab, tevarak atrofga ko’rpadek yoyilar edi”. Ushbu o’xshatish qaysi asardan olingan? A.S.Ahmad “Ufq” B.A.Qodiriy “O’tgan kunlar” S.A.Muxtor “Chinor” D.G’.G’ulom “Shum bola”
136. “Poraga sotilmaydigan, podshohga sadoqat bilan xizmat qiladigan vijdonli”, deya tariflangan Humoyun saltanatining vakili kim? A.Amir Bahlul B.Bayramxon C.Zohidbek D.Mirzo Hindol
137. “Pushkinga”, “Gurjiston shoirlariga” singari bag‘ishlov she’rlar muallifi kim? A.Shayxzoda B.Oybek C.S.Yesinen D.U.Nosir
138. “Qaldirg‘ochlar bahorda keladi” hikoyasidan kelib chiqadigan asosiy xulosa qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? A.insonda mehr, oqibat, do‘stlik, sadoqat degan tuyg‘ularni tarbiyalash, ularni asrab-avaylash B.insonlar boshiga tushayotgan mudhish balo-yu qazolar ulardagi jirkanch hislar, nobop amallar oqibati C.qaldirg‘ochlarning ahilligi va uy qurish mahorati, bahor faslining nechog‘lik go‘zal fasl ekanligini D.odamlar orasida asta kuchsizlanib borayotgan rishtalar, qadriyatlarni qayta tiklashda til va ongdan mahrum jonzotlarning bosh omil ekanligi
139. “Qirq mil narida” hikoyasi muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
140. “Qissasi Rabg‘uziy”da ta’kidlanishicha, Nuh payg‘ambar kemasining ... ming temir halqasi bor bo‘lib, har bir halqasida bir payg‘ambarning ismi yozilgan edi. Halqalar miqdorini aniqlang. A.24 B.4 S.124 D.42
141. “Qissai Mashrab”da aytilishicha, Mashrab Ofoq Xo‘ja huzuriga borganda, undan kimning g‘azalini o‘qish so‘ralgan? A.Hofiz B.Navoiy S.Lutfiy D.Sa’diy
142. “Qiyomat” romani tarjimoni qaysi qatorda keltirilgan? A.A.Rashidov B.I.G‘afurov C.T.Murod D.O.Sharafiddinov
143. “Qizimga maktublar” xotira-qissasida qaysi asar “ulug‘ kitob, faqat o‘zbek adabiyotining emas, butun musulmon xalqlari madaniyatining faxri” deya ta’riflanadi? A.“O‘tkan kunlar” B.“Xamsa” C.“Mehrobdan chayon” D.“Kecha va kunduz”
144. “Qora va oq aravacha haqida ertak” asari qaysi janrda yozilgan? A.adabiy ertak B.ballada C.she’riy ertak D.rivoyat
145. “Qorachug‘da porlagan o‘sha, Iqboliga chorlagan o‘sha” misralarida M.Yusuf “o‘sha” ishorasi bilan nimani nazarda tutgan? A.mehr va muhabbatni B.sadoqat va vafoni C.do‘stlik va vafodorlikni D.barcha javob to‘g‘ri
146. “Qutadg‘u bilig” to‘g‘risidagi noto‘g‘ri izohni aniqlang. 1.73 fasldan iborat 2.Muallifning o‘zi uni bir yarim yil (18 oy) mobaynida bitganini yozgan 3.Asarni “el-yurt madhiyasi” deb atash mumkin 4.Asar boshdan oxirigacha ikki bir-birini inkor etuvchi ohang (motiv) asosiga qurilgan. 5.Asarda to‘rtliklar, qasida, tuyuq, muammo janrlari uchraydi 6.Asarda o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, tazoddan keng foydalanilgan 7.Kirish qismida “Bahor madhi” berilgan. A.barcha izoh to‘g‘ri B.3, 4, 5 S.1, 2, 6, 7 D.faqat 3
147. “Qutadg‘u bilig”da lashkarboshining doimiy hushyorligi qaysi timsol orqali ifodalangan? A.bo‘ri B.arslon S.zag‘izg‘on D.ayiq
148. “Qutadg‘u bilik” asarida 2 narsa el uchun mahkam bog‘ichdir, deyilgan. Ular qaysilar? A.aql, ko‘ngil B.qaror, sabr S.hushyorlik, siyosat D.adolat, vafo

ADABIYOT BAZA 2019 1-QISM

149. “Qo‘li bog‘liq yashashdan o‘lim a’lodir” degan fikr qaysi asarda keltirilgan? A.”Oq kema” B.”O‘zbeklar” C.”Zulmat ichra nur” D.”Mardlik afsonasi”
150. “Qon hidi” romani muallifini kim? A.C.Vafo B.A.Nurmurodov C.SH.Xolmirzayev D.X.Do‘stmuhammad
151. “Radoyif ul-ash’or” nomli tazkirani kim yozgan. A.Gadoiy B.Sakkokiy C.Faxri Hirotiy D.Abu Mansur as-Saolabiy
152. “Ravshan” dostoni qahramoni Zulxumor bozorga chiqib, yigitlarga o‘zi tikkan nimani sotishni odat qilgan edi? A.qalpoq B.kashta C.chakmon D.belbog‘
153. “Ravshan” dostonida Hasanning qulon, bulon, qarsoq, bo‘ri, yo‘lbars yurmas yo‘llardan o‘tib borishi haqida she’riy parcha berilgan. Unga ko‘ra Hasanning ushbu yo‘llardan qanday holatda o‘tgani muvofiqligini aniqlang. A.qulon-quvib, bulon-burib, qarsoq-qalqib, bo‘ri-bo‘zlab, yo‘lbars-yo‘rtib B.qulon-burib, bulon-quvib, qarsoq-bo‘zlab, bo‘ri-yo‘rtib, yo‘lbars-qalqib C.qulon-qalqib, bulon-yo‘rtib, qarsoq-quvib, bo‘ri-burib, yo‘lbars-bo‘zlab D.qulon-bo‘zlab, bulon-burib, qarsoq-qalqib, bo‘ri-quvib, yo‘lbars-yo‘rtib
154. “Ravshan” dostonida nashavandning ko‘rsatishicha, bozorlar ketma-ketligi to‘g‘ri tartiblangan javobni aniqlang? 1.to‘n bozori 2.un bozori 3.jun bozori 4.qin bozori 5.pichoq bozori 6.qalpoq bozori A.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 B.2, 3, 1, 5, 6, 4 C.7, 5, 4, 1, 2, 6, 3 D.1, 3, 5, 2, 4, 7, 6
155. “Ravshan” dostonida nashavandning ko‘rsatishicha, qalpoq bozori qaysi bozordan keyin keladi? A.to‘n bozori B.qin bozori C.un bozori D.jun bozori
156. “Ravshan” dostonida ta’rifi keltirilgan obrazni aniqlang: Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda o‘zining jo‘ralari ham tanimas edi. A.Aynoq kal B.Jaynoq kal S.Tersak kal D.Xon Dalli
157. “Risolayi falsafayi siyohon” asarining 3-faslida nima haqida so‘z boradi? A.baxti qarolar haqida B.farqi qarolar haqida S.qaro zulflilar haqida D.yuzi qarolar haqida
158. “Riyozud davla” (“Saltanat bog‘lari”) qanday mavzudagi asar? A.falsafiy B.tarixiy S.ilmiy D.maishiy
159. “Rustamxon” dostonida 360 daftari mastonning boshlig‘i kim? A.Huroyim B.Momogul S.Ximcha D.Bujul
160. “Rustamxon” dostonidagi 360 daftari maston qaerda yashaydi? A.Hukumi tog‘ida B.Qurudim mamlakatida S.Oqtosh viloyatida D.CHarxinko‘lda
161. “Rustamxon” dostonidagi Oftoboyim kim? A.ajdarga asir bo‘lgan qiz B.Momogulning kanizi S.Sultonxoning xotini D.Rustamxonning onasi
162. “Sab’ayi sayyor” dostonidan olingan “Taxtani uyla kov-kov etti Ki, suv yo‘lini nechukki nov etti” satrlarida gap nima haqida? A.Suhaylning Jobir bilan urushi B.Mehrning iztiroblari S.Jobirning hiylasi D.Diydbonning hiylasi
163. “Saidaning birinchi kitobini o‘qib, “Qizingiz yozdi” deb nom quyib berganman”. Bu so‘zlar kimga tegishli? A.Oybek B.A.Qahhor C.H.Olimjon D.G‘.G‘ulom
164. “Salotin bobida” qismi “Hayrat ul-abror” dostonining nechanchi bobi? A.1 B.5. C.3 D.10
165. “Sarbadorlar” nomli dramatik asar muallifi kim? A.Muhammad Ali B.Azim Suyun C.A.Oripov D.Bo‘riboy Ahmedov
166. “Semurg‘” pyesasi hamda “Zaynab va Omon” opera librettosi muallifi kim? A.H.Olimjon B.Zulfiya S.Shayxzoda D.P.Qodirov
167. “Silsilat uz-zahob” kimning qalamiga mansub? A.Gulxaniy B.Jomiy C.Dehlaviy D.Sheroziy
168. “Siyovush qissasi”da Afrosiyob eron lashkaridan mag‘lub bo‘lishini qaysi vosita orqali sezadi? A.sovuq xabarchi qush orqali B.tush orqali C.ayg‘oqchi orqali D.to‘g‘ri javob berilmagan
169. “Siyovush qissasi”da Siyovush ota tomonidan kimning avlodi edi ma’lumot beriladi? A.Faridunning B.Jamshidning C.Iskandarning D.Doroning
170. “Sohibqiron” asarida tilga olingan “shabxun” so‘zi nimani anglatadi? A.tungi hujumlarni B.tungi elchilikni S.tungi mashvaratni D.tungi ziyofatni
171. “Sovuq bolalari” hikoyasi muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
172. “Surat” (M.Yusuf) she’rida yam-yashil bog‘ nimaning ramzi bo‘lib xizmat qilgan? A.Vatanning B.she’riyatning C.so‘zning D.pokiza ishq, sof insoniy hislarning

ADBIYOT BAZA 2019 1-QISM

173. “Sab’ayi sayyor”da Jobir Suhaylning qaysi fazilati uchun o‘ldirmay, zindonga tashlaydi? A.to‘g‘riso‘zligi B.jur’atliligi S.ko‘rkamligi D.topag‘onligi
174. “Samarqand afsonasi” baleti librettosining muallifini toping. A.T.To‘la B.G‘.G‘ulom S.M.Ali D.O.Matjon
175. “Tanobchilar” satirasidan olingan “Osh esalar, o‘rtada sarson ilik, Xo‘ja – chiroq yog‘i, Hakimjon – pilik” baytida qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.tashbeh B.tazod C.talmeh D.tanosib
176. “Tarixiy Rashidiy” asarining muallifi kim? A.Xalil sulton B.Mirzo Haydar C.Boysunq’ur Mirzo D.Sulton Iskandar
177. “Tatyana Dmitriyevna o‘z hamkasblari bilan menga shunday ishonch berishdi. Nurlanish, kimyoviy terapiya bundan bu yog‘iga mening oq qaldirg‘ochim. Men uni topaman, uni ko‘raman. Zora bu go‘zal, beozor qush menga ham Xudoning shifosini olib kelsa?!” Ushbu matn manbasini aniqlang. A. ”Qizimga maktublar” B.”O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” C.”Daftar hoshiyasidagi bitiklar” D.”Maobit daftari”
178. “Tavallo” (T.Sulaymon) she’ri naqoratida takrorlanuvchi misrani aniqlang. A.she’rda naqorat yo‘q B.Bir mushtipar onam yig‘laydir C.Ko‘zlarimga qalqib tursa yosh D.Qolganlari yolg‘on yig‘laydir
179. “Temir tovon” romani muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
180. “Tilsim saltanati” romani muallifi kim? A.L.Bo‘rixon B.C.Vafo C.A.Nurmurodov D.X.Do‘stmuhammad
181. “Toj boshdagi fikrga qafas” degan hikmat qaysi asardan olingan? A.“Gulzor” B.“Mirzo Ulug‘bek” C.“Farhod va Shirin” D.“Zarbulmasal”
182. “Tolning xipchini bilan savalash”, “tovuq so‘yib qonlash” marosimlari qaysi asarda bayon qilingan? A.“Shum bola” B.“Bemor” C.“Sariq devning o‘limi” D.“Naqarot”
183. “Tubanlik kishilari” nomli ocherklar to‘plami muallifi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
184. “Turib yeganga turumtog‘ chidamas” maqoli qaysi asarda berilgan? A.“Uloqda” B.“Fanorchi ota” S.“Kichkina shahzoda” D.“Mening o‘g‘rigina bolam”
185. “To‘maris” hikoyasi qaysi udum tasviri bilan boshlanadi? A.huqqabozlik musobaqasi tasviri bilan B.kurash musobaqasi tasviri bilan C.kamon tortish musobaqasi tasviri bilan D. kamonbozlik musobaqasi tasviri bilan.
186. “To‘maris” hikoyasida Massagetlar 2 saf bo‘lib turadilar. Ularning ... A.1-safida og‘ir qurolli askarlar, 2-safida engil qurolli askarlar B.1-safida yengil qurolli askarlar, 2-safida og‘ir qurolli askarlar. C.1-safida nayza bilan qurollangan askarlar, 2-safida otliq askarlar. D.1-safida otliq askarlar, 2-safida nayza bilan qurollangan askarlar.
187. “To‘maris” hikoyasida massagetlarning urush qurollari nimalardan iborat edi? 1.o‘q-yoy 2.uzun dastali mis bolta 3. kalta nayza. A.1 B.2. C.3. D.1, 2, 3.
188. “To‘maris” hikoyasida Mihra nimaning nomi sifatida qo‘llanilgan? A. bunday nom uchramaydi. B.urush xudosining C.g‘alaba xudosining D.Quyoshning
189. “To‘maris” hikoyasida quyidagi qaysi qushning osmonda parvozi yaxshilik alomati deb qaraladi? A.burgut B.kalxat C.lochin. D.quzg‘un
190. “To‘maris” hikoyasida To‘marisning qo‘lini so‘rab kelgan eron elchisining nomi nima? A. Darayavush B.nomi aytilmagan C.Ronasbat D.Rustak.
191. “To‘maris” hikoyasida To‘marisning o‘zi qaysi qo‘shinga boshchilik qiladi? A.otliq qo‘shinga B.piyoda qo‘shinga. C.kamonbozlarga. D.suvoriylar qo‘shiniga.
192. “To‘maris” hikoyasida Zarina qaysi qo‘shinga boshchilik qiladi? A.otliq qo‘shinga B.piyoda qo‘shinga. C.kamonbozlarga. D.suvoriylar qo‘shiniga.
193. “Terazamning oldida bir tup, O‘rik oppoq bo‘lib gulladi... Gulni ko‘rib ishqparast qalbim, Ming aytilgan darddan kuyladi. Zulfiya qalamiga mansub ushbu to‘rtlikning dastlabki baytida qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.tashbeh B.tazod C.tadrij D.tazmin
194. “Ufq” romanidagi Tog‘aning asl ismi nima? A.Rayim B.Aziz S.Ummatali D.To‘lanboy

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

195. “Ulug‘bek xazinasi” romanida bir paytlar uzoq YAssidan haqiqat izlab, Ulug‘bek taxtiga bosh urib kelgan va undan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgan iste’dodli shoir, arslonyurak jangchi kim? A.amir Sulton jondor B.turkmanbegi Ibrohim Po‘lat o‘g‘li S.Qalandar Qarnoqiy D.Ali Qushchi
196. “Usta ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘lar” degan hikmat “Zarbulmasal”dagi qaysi masal orqali ochib berilgan? A. “Toshbaqa bilan Chayon” B. “Tuya bilan Bo‘taloq” C. “Kabutar bilan Zog‘” D.“Maymun bilan Najjor”
197. “Uyqu qochganda” (“Tundaliklar”) kitobi muallifi? A.A.Muxtor B.Shuhrat C.C.Zunnunova D.SH.Rahmon
198. “Vatanga muhabbat Onaga muhabbat kabi muqaddas va yuksak tuyg‘u. Onaga muhabbatning shunday bir o‘ziga xosligi borki, odam bu tuyg‘u haqida olamga jar solib, hammani undan voqif qilavermaydi, hatto onasining o‘ziga ham har kuni “Onajon, men sizni jonimdan ortiq ko‘raman”, deyavermaydi”. Ushbu ibratli mulohazalar muallifini toping. A.O‘.Hoshimov B.O.Yoqubov S.O.Sharafiddinov D.I.Karimov
199. “Vatanni kelgindilardan ozod qilish, dunyodagi eng katta mardlikdir” fikr muallifini toping. A.Humoyun B.Sherxon C.Qutbxon D.Jalolxon
200. “Xasis” asari muallifini toping. A.Kornel B.Molyer C.Rasin D.Sartr
201. “Xazoyinul maoniy” kulliyotida jami nechta asar bor? A.2600 B.3244 C.16 D.1990
202. “Yaxshiliq qil, suvg‘a sol baliq bilur, baliq bilmasa, Xoliq bilur” hikmati “Zarbulmasal”dagi qaysi masaldan olingan? A. “Toshbaqa bilan Chayon” B. “Tuya bilan Bo‘taloq” C. “Kabutar bilan Zog‘” D. “Maymun bilan Najjor”
203. “Yelvizak” asarining muallifini toping. A.Gogol B.Chexov C.Ne’mat Aminov D.Abdulla Qahhor
204. “Yozning yolg‘iz yodgori”, “Ko‘ngil ozodadur” asarlarining janri va muallifini aniqlang A.X.Sulton, hikoya B.X.Sulton, qissa S.M.M.Do‘st, hikoya D.M.M.Do‘st, qissa
205. “Yoshlik ayyomining ilk bahori” parchasida nomi tilga olingan fors shoiri Qosim Anvorning asli qayerlik ekani aytilgan? A.ozarbayjonlik B.hirotlik C.samarqandlik D.shahrisabzlik
206. “Yoshlik ayyomining ilk bahori” parchasida yosh Alisher tog‘alari oldida qaysi shoirning baytini o‘qib, ularning olqishiga sazovor bo‘ladi? A.Qosim Anvor B.Lutfiy C.Jomiy D.Hofiz Sheroziy
207. “Yoshlik ayyomining ilk bahori” parchasida yosh Alisher tog‘alari oldida fors shoirlaridan birining baytini o‘qib, ularning olqishiga sazovor bo‘ladi? Tog‘asi Muhammmad Ali Alisherni kim deb erkalaydi? A.yosh darvesh B.malik ul-kalom C.malik ush-shuaro D.kichikna darvesh
208. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Bo‘ri polvon suygan, ammo yaqin do‘sti “ilib ketgan” “burni puchuq” qizning ismi nima? A.Suluv B.Oyqiz S.Momoqiz D.Barchin
209. “Yevgeniy Onegin” asari qahramoni Larin kim? A.Oneginning do‘sti B.Tatyananing otasi C.xatlarni bir-biriga etkazuvchi bola D.asarda bunday obraz yo‘q
210. “Yevgeniy Onegin” she’riy romani necha yil davomida yozilgan, deb qaraladi? A.5 B.7. C.3 D.10.
211. “Yovuz niyatli kishi”, “Qiyshiq oyna” asarlari muallifi kim? A.Gogol B.CHexov S.Pushkin D.Petrov
212. “Zarbulmasal” da “goho o‘zini so‘fiy ot qo‘yar, goho mirishkori hushyor va donishmadi ro‘zg‘or” qilib ko‘rsatadigan qahramon kim? A. Yodgor po‘stindo‘z B. Ibrohimbek C. Sangpusht D. Bozanda
213. “Zarbulmasal”da keltirilgan quydagi misraning qaysi birida arab yozuvi asosida so‘z o‘yini qo‘yilgan? A.Kissayi purzar emish elga hunar, Behuhar elni o‘xiyur (rishi) xar B.Aydi: “ulus ichra bu bir kasb erur, “kasb”ni kessang boshini “sab” erur C.Tushdi banogoh anga Maymun ko‘zi, Oqli-u dono sonub ul dam o‘zi(n) D.“Shahrini zindondin ozod bo‘lib, Tog‘ni Shiringa Farxod o‘lib”
214. “Zulmat ichra nur” qissasida keltirilgan Boyqarolarning Xiyobon mahallasida joylashgan ikki qavatli uyi hirotliklar tomonidan nima deb atalgan? A. Davlatxona B. Nizomxona C. Darveshxona D. Sultonxona
215. “Zulmat ichra nur” qissasida keltirilgan Husaynning bobosi Mirzo Boyqaro kimga qarshi isyon qilgani uchun qatl ettirilgan? A.Mironshohga B.Shoxruhga C.Abu Saidga D.Sulton Mahmudga
216. “Zanjirband Prometey”, “Orestreya” tragediyalari muallifi kim? A.Sofokl B.Esxil S.Evripid D.Vergiliy
217. “O‘n ikki stul”, “Oltin buzoqcha” asarlari muallifini toping. A.Ilya Petrov B.Chexov va Gogol C.Ne’mat Aminov D.Abdulla Qahhor

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

218. “O‘zbek otasi” tilidan yozilgan she’r muallifi kim? A.Oybek B.G‘afur G‘ulom C.Hamid Olimjon D.Shayxzoda
219. “O‘zbek qizi og‘zidan” deb izoh berilgan she’r muallifi kim? A.Mirtemir B.Cho‘lpon C.Fitrat D.So‘fizoda
220. “O‘zbekiston dashtlarining bir qushi bor, Ul qushining bir parvozi, uchishi bor”. Azim Suyun she’ridan olingan ushbu parchada “bir qushi” deganda qanday qush nazarda tutilgan? A.humo B.to‘rg‘ay C.simurg‘ D.bulbul
221. “O‘zbeklar” hikoyasida Abdulqodir degan bola qaysi mashhur kitobni o‘qiganini, bu kitobning yaxshi kitob ekanini so‘zlaydi? A.“O‘n besh yoshli kapitan” B.“Mantiq ut-tayr” C.“Shum bola” D.“Robinzon Kruzo”
222. “O‘zbeklar” hikoyasidagi Azimjon qaysi chet ijodkorlarining asarlarini o‘qib, “bizning yozuvchilarimiz yolg‘onchi” deb fikrlaydi? A.Pushkin va Dostoyevskiy B.Kafka va Kamyu C.Remark va Xemenguey D.Shekspir va Dante
223. “O‘zbeklar” hikoyasidagi kurskom kim? A.Azimjon B.Safarboy C.O‘rmonjon D.Ergash
224. “O‘zim har joydaman, ko‘nglim sendadur” misralari takrorlanib keladigan she’r janri va muallifi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping. A.muxammas, Muqimiy B.musaddas, Zavqiy C.murabba’, Muqimiy D.murabba’, Furqat
225. “O‘g‘limga darsliklar” turkumi muallifi kim? A.Zebo Mirzo B.H.Ahmedova. C.Zulfiya D.Zulfiya Mo‘minova
226. “G‘iybat, hajv, masxara, safsata, so‘kuv kabi odamlarning nafsiga tegadigan adabsiz so‘zlarni so‘zlamak zo‘r hayosizlikdur”. Jumla qaysi asardan olingan? A.“Mahbub ul-qulub” B.“Miftoh ul-adl” C.“Zarbulmasal” D.“Turkiy guliston yoxud axloq”
227. “Shayx Sa’diy usulida yozmoqni, garchi og‘ir bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko‘tarmakni munosib ko‘rdim” deb yozgan ijodkor kim? A.Xoja B.C.Saroyi C.Avloniy D.Ogahiy
228. “Shiroq” hikoyasida Darayavush shak qabilalariga yurish qilishdan avval qaysi davlatni bosib olgani ma’lum qilinadi? A.massagetlarni B.So‘g‘diyani C.Eronni. D.qaerni bosib olgani ma’lum qilinmagan.
229. “Shiroq” hikoyasida eron qo‘shiniga kim sarkardalik qiladi? A.Ronosbat B.Darayavush. C.Yaksart. D.Rustak.
230. “Shiroq” hikoyasida mardlik ko‘rsatib o‘lish to‘g‘risida emas, balki el-yurt erkini qanday saqlab qolish to‘g‘risida mulohaza yuritgan chol kim? A.Ronosbat. B.Rustak C.Shiroq. D.Saksfar.
231. “Shiroq” hikoyasida oqsoqollar qanday o‘tovda kengash o‘tkazadilar? A.oq. B.ko‘k. C.namat rang D.qizil.
232. “Shiroq” hikoyasida so‘g‘d xalqi nima bilan shug‘ullangan deyiladi? A. dehqonchilik bilan B. chorvachilik bilan. C.dehqonchilik va chorvachilik bilan. D.dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan.
233. “Shiroq” hikoyasida uchraydigan cho‘l nomi? A.Zarchaman B.cho‘l nomi uchramaydi D.Yaksart D.So‘g‘d.
234. “Shiroq” hikoyasida zolim Eron shohiga qul bo‘lgandan ko‘ra jang maydonida o‘lishni afzal bilgan chol kim? A.Ronosbat. B.Rustak C.Shiroq. D.Saksfar.
235. “Shiroq” hikoyasida Shiroq o‘z hiylasini oqsoqollar oldida emas, faqat Rustakning o‘ziga aytmoqchi bo‘ladi. Uning qanday andishasi bor edi? A.Shiroq urug‘ oqsoqollariga ishonmaydi. B.Urug‘ oqsoqollarining do‘stlari, inilari, o‘g‘illari, xotinlari borligi uchun. C.Majlis ahli orasida sotqin bo‘lishi mumkinligi uchun. D.barcha javoblar to‘g‘ri.
236. “Shiroq” hikoyasidagi quyidagi tasvir kimning yoki kimlarning portreti? ...egnilariga yarg‘oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan. A.Shiroqning B.oqsoqollarning C.qurolli soqchilarning D.Eron shohining
237. “Shiroq” hikoyasidagi voqealar qaysi faslda ro‘y beradi? A.qish B.kuz. C.bahor D.yoz
238. “SHarq shaxmati” asari muallifi kim? A.Fitrat B.O.SHarafiddinov S.Behbudiy D.Avloniy

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

239. "Chinakam inson bu dunyo g'am-alamlarsiz yashashi mumkin emasligini, aksincha, ko'ngilda g'am yo'qligi buyuk g'am, alam yo'q'ligi esa og'ir alam ekani"ni ta'kidlagan kishi kim. A.Oybek B.Navoiy C.Ogahiy D.Qodiriy
240. "Chingizxon", "Botu", "So'nggi dengizgacha" roman-trilogiyaning muallifi kim? A.Jon Golsuorsu B.V.Kataev S.V.Yan D.N.Mahfuz
241. "Chinor" romanida Akbarali bir necha bor xatoliklarga yo'l qo'yadi. Eng so'nggi xatosi nima edi? A. Xotini bilan ajrashish. B. o'zini o'ldirish. S. Ochil bo'vaning yarashish to'g'risidagi taklifini be'tibor qoldirish. D. Og'ir kasal holida ham o'zini ayamaganlik.
242. "Ot kuragidagi yag'ir ... meros bo'lib qoladi". "Devonu lug'atit turk"dan olingan ushbu maqolda nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying. A.toylarga B.qulunlarga S.bolalarga D.otalarga
243. "Gunjoyish" kemasi qaysi asarda mavjud? A."Tubanlik kishilari" B."Gulliverning sayohatlari" C."Avlodlar dovoni" D."Kichkina shahzoda"
244. "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida u: «Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi: bolshevik balosi!» – deb yozdi. Gap qaysi ma'rifatparvar faoliyati bilan bog'liq? A.Behbudiy B.So'fizoda C.Avloniy D.Fitrat
245. "Kayxisrav qilichidan kesikbosh bobom xoki, Kim noxos oyoq qo'ysa, haqoratga yo'yaman" misralari muallifi kim? A.Mirtemir B.SH.Rahmon C.S.Zunnunova D.A.Muxtor
246. "Sening safdoshlaring bir kun kelib yig'laydilar! O'sha o'ris yig'latadi... Bosqinchi hech qachon bosib olgan fuqarosi boshini silamaydi! Silasa, aldash uchun silaydi!.. Lekin yomon aldangansan, jigar…" Qaysi asardan olingan? A."Turkiy guliston yoxud axloq" B."Oq kema" C."Qora kamar" D."Oltin zanglamas"
247. "To'y", "Ikki vasiqa" balladalari muallifi kim? A.Azim Suyun B.Shayxzoda C.Shuhrat D.G'.G'ulom
248. "uning birinchi kitobi egamanlik yillarida qaytadan nashr etildi va ko'pchilik o'quvchilar tomonidan A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani darajasidagi asar sifatida baho oldi" Qaysi asar haqida so'z bormoqda? A."Mehrobdan chayon" B."Kecha va kunduz" S."Shinelli yillar' D."Sarob"
249. 1."Odamlar nima derkin"; 2."Shamollar esavermaydi"; 3."Ikki karra ikki besh"; 4."Bahor qaytmaydi"; 5."Dunyoning ishlari"; 6."Tushda kechgan umrlar". Yuqoridagilardan O'.Hoshimov qissalarini aniqlang. A.1, 3, 5, 6 B.1, 2, 3, 4 C.2, 3, 4, 5 D.1, 2, 3, 4, 5
250. 1."Qo'shchinor chiroqlari" 2."Shohi so'zana" 3."Sarob" 4."Og'riq tishlar" 5."Tobutdan tovush" 6. "Ayajonlarim" 7."Sinchalak" 8."Muhabbat" 9."O'tmishdan ertaklar". A.Qahhor dramalarini toping. A.2, 4, 5, 6 B.1, 3 C.7, 8, 9 D.1, 2, 5, 7, 8
251. 1."Qo'shchinor chiroqlari" 2."Shohi so'zana" 3."Sarob" 4."Og'riq tishlar" 5."Tobutdan tovush" 6."Ayajonlarim" 7."Sinchalak" 8."Muhabbat" 9."O'tmishdan ertaklar" 10."Boshsiz odam" 11."Anor" 12. "Dahshat" 13."Adabiyot muallimi" A.Qahhor hikoyalarini toping. A.2, 4, 5, 6 B.1, 3 C.7, 8, 9 D.10, 11, 12, 13
252. 1."Qo'shchinor chiroqlari" 2."Shohi so'zana" 3."Sarob" 4."Og'riq tishlar" 5."Tobutdan tovush" 6. "Ayajonlarim" 7."Sinchalak" 8."Muhabbat" 9."O'tmishdan ertaklar" A.Qahhor romanlarini toping. A.2, 4, 5, 6 B.1, 3 C.7, 8, 9 D.1, 2, 5, 7, 8
253. 1."Qo'shchinor chiroqlari" 2."Shohi so'zana" 3."Sarob" 4."Og'riq tishlar" 5."Tobutdan tovush" 6. "Ayajonlarim" 7."Sinchalak" 8."Muhabbat" 9."O'tmishdan ertaklar". A.Qahhor qissalarini toping. A.2, 4, 5, 6 B.1, 3 C.7, 8, 9 D.1, 2, 5, 7, 8
254. 1.Indamas 2.Sarimsoq 3.Surayyo 4.Shuhrat 5.Guluyor 6.Abo 7.Chegaboy 8.Hijron 9.Abdulhaq 10.Norin shilpiq 11.Ovsar 12.Mavlon kufur 13.Julqunboy. Berilgan taxalluslardan qaysi birlari Avloniyniki? A.1, 2, 3, 5, 6, 7, 8 B.1, 3, 4, 6, 7, 8, 9 C.2, 5, 10, 12 D.11, 13
255. 1.J.Sartr 2.J.Joys 3.A.Kamyu 4.F.Kafka Jahonga mashhur ushbu yozuvchilarni quyidagi qaysi tushuncha birlashtirib turibdi? A.modernizm B.syurrealizm C.romantizm D.realizm
256. 1.P.Verlen 2.P.Elyuar 3.E.Verxer 4.O.Uayld. 5.A.Axmatova 6.M.Svetayeva 7.A.Blok 8.G.Lorka 9.P.Neruda 10.N.Hikmat 11.R.Parfi Jahonga mashhur ushbu yozuvchilarni quyidagi qaysi tushuncha birlashtirib turibdi? A.modernizm B.syurrealizm C.ekzistensializm D.tanqidiy realizm

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

257. 1.O‘xshatish 2.Sifatlash 3.Mubolag‘a 4.Kichraytirish 5.Metafora 6.Jonlashtirish Topishmoqlarda qanday tasviriy vositalar va usullaridan keng foydalaniladi? A. 1,2,3,6 B. 1,2,5,6 C.1,3,6 D.1,2,3,4,5,6
258. 1.Cho‘lpon 2.H.Olimjon 3.G‘.G‘ulom 4.M.Shayxzoda 5.U.Nosir 6.Mirtemir. Erkin she’rning ajoyib namunalarini yaratgan shoirlar qaysi bandda to‘liqroq ko‘rsatilgan? A. 1.2.3.4.5.6 B. 1.4.5.6 C. 1.2.3.4.5 D. 1.5.6
259. 13 raqami kabi hech narsaga bo‘linmaydigan, parchalanmaydigan so‘z sifatida tilga olingan “kechinma” so‘zi kimning she’rida sarlavhaga aylangan? A.Faxriyor. B.B.Ro‘zimuhammad C.U.Hamdam. D.O.Matjon.
260. 14 yoshida qishloq kengashiga kotib etib tayinlangan ijodkor kim? A.CH.Aytmatov B.Shuhrat C.Abay D.T.Sulaymon
261. 16 yoshidan matbuotda ko‘rina boshlagan millatparvar kim? A.Botu B.A.Qahhor C.Avloniy D.U.Nosir
262. 18 yoshidan o‘qituvchi, artist, muxbir bo‘lib ishlagan ijodkor kim? A.Hamza B.So‘fizoda C.Avloniy D.R.Hamzatov
263. 1868 yilda Nurota tumaniga qarashli Qo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Undan H.Zarif, G‘.O.Yunusov, M.Ernazar o‘g‘li kabi olim va ziyolilar 33 nomdagi asarni yozib olgan. Uning 7 avlodi baxshi bo‘lgan. 1875-76 yillarda qishlog‘idagi maktabda o‘qigan. Keyin Buxoro madrasasida o‘qigan. Mirza (kotiB. bo‘lib ishlagan. 18 yoshida otasi vafot etgan. Ukalari Abduhalil, Abdujalil, singlisi Mahkamoy yosh paytlarida vafot etishgan. Kuylagan dostonlari: “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Alpomish”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Dalli”, “Xushkeldi”, “Avazxon”, “Hasanxon”. Ushbu ma’lumotlar qaysi xalq baxshisi to‘g‘risida? A.Po‘lkan shoir B.Islom shoir Nazar o‘g‘li S.Ergash Jumanbulbul D.Fozil Yo‘ldosh.
264. 1872 yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani (Oldingi Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani) Loyqa qishlog‘ida tug‘ilgan. Cho‘ponlik qilgan. Davrining taniqli baxshisi ….dan doston aytish sirlarini o‘rgangan. 40 dan ortiq dostonlarni yod bilgan. 5 yoshida otasidan etim qolgan. Qishlog‘ining eng epchil o‘roqchisi nomini olgan. 19 yoshida baxshi degan nom olgan. Kuylagan dostonlari: “ Alpomish”, “Yodgor”, “Shirin bilan SHakar”, “Murodxon”, “Rustamxon”, “Malikai ayyor”, “Mashriqo”, “Intizor”, “Balogardon”, “Nurali”, “Jahongir”, “Farhod va Shirin”. Ushbu ma’lumotlar qaysi xalq baxshisi to‘g‘risida? A.Po‘lkan shoir B.Islom shoir Nazar o‘g‘li S.Ergash Jumanbulbul D.Fozil Yo‘ldosh.
265. 1874 yilda Samarqand viloyati Narpay tumani Galaqassob qishlog‘ida tug‘ilgan. Bobosi Rajab shoirdan do‘mbira sirlarini o‘rgangan. 28 ta doston kuylagan. Kuylagan dostonlari: “Zulfizar bilan Avaz”, “Gulxiromon”, “Orzigul”, “Kuntug‘mish”, “Xirmondali”, “Sohibqiron”, “Erali va SHerali”, “Tohir va Zuhra”, “Nigor va Zamon”. Ushbu ma’lumotlar qaysi xalq baxshisi to‘g‘risida? A.Po‘lkan shoir B.Islom shoir Nazar o‘g‘li S.Ergash Jumanbulbul D.Fozil Yo‘ldosh
266. 1874 yilda Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi Qatag‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Jassoq baxshiga shogird tushgan. Uning qo‘lida 4 yil muttasil doston aytish sirlarini o‘rgangan. 25 yoshida baxshilik sinovidan o‘tgan. Qishloqdoshi Bo‘riboy o‘rniga mardikorchilikka olinadi. Uning taxallusi “polk” so‘zidan olingan. Kuylagan dostonlari: “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Yunus pari”, “Avazxon”, “Yodgor”, “SHayboniy”, “Qironxon”, “Kuntug‘mish”. Ushbu ma’lumotlar qaysi xalq baxshisi to‘g‘risida? A.Po‘lkan shoir B.Islom shoir Nazar o‘g‘li S.Ergash Jumanbulbul D.Fozil Yo‘ldosh
267. 1921 yida rus olimi Y.N.Tinyanov tomonidan adabiyotshunoslikka kiritilgan tushunchani aniqlang. A.roman B.dramatik doston S.lirik qahramon D.ruhiy tahlil
268. 1932 yilda topilgan sopolga ishlangan suratda gavdasining pastki qismi ho‘kiz, yuqori qismi odam bo‘lgan shakl tasvirlangan. Ushbu yodnoma qayerdan topilgan? A.Sopollitepadan B.Teshiktosh g‘oridan S.Tali Barzudan D.Tuproqqal’adan.
269. 1936 yilda yozilgan, o‘tgan asrning 60-yillarida hozirgi mukammal holiga keltirilgan asar qaysi javobda ko’rsatilgan? A.”Bolalik” B.”Shum bola” C.”Obid ketmon” D.”O’rik danagidan tasbeh”
270. 1943 yilda qaysi o‘zbek qalamkashlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi etib saylangan? A.G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor B.G‘.G‘ulom, Mirtemir, Oybek S.H.Olimjon, G‘.G‘ulom, Oybek D.Mirtemir, Shayxzoda, G‘.G‘ulom




ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

271. 1952 yilda xalqqa zarar keltiruvchi asar deb qoralangan xalq dostonini aniqlang. A.“Alpomish” B.“Ravshan” S.“Avazxon” D.“Kuntug‘mish”.
272. 1960-1965 yillar oralig‘ida respublikamizning eng yirik adabiy nashri nima edi? A.“SHarq yulduzi” B.“Mushtum” S.“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” D.“Yosh kuch”
273. 1987-1988 yillarda nashr etilgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobi necha jilddan iborat? A.3 B.4 S.6 D.2
274. 1987-1988 yillarda nashr etilgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobida nechta maqol kiritilgan? A.13 mingdan ortiq B.10 mingga yaqin S.6 mingdan ortiq D.2 mingga yaqin
275. 2 tadan so‘z misralarning turli o‘rinlarida kelsa va o‘zaro ohangdoshlikni hosil qilsa, bu nima deb ataladi? A.mutakarrin qofiya B.zebqofiya S.mahjub qofiya D.qofiyatayn
276. 70- yillarda kirib kelgan yangi avlod ijodkorlari o‘zlaridan avvalgi qalamkashlar boshlab bergan eng yaxshi an’analarni davom ettirgan holda, adabiyot sahnasiga olib kirgan yangilkigi nimadan iborat edi? A.mumtoz adabiyotimiz na’munalariga murojat qilish B.milliy an’ana va qadriyatlarimiz tasvirini birinchi planga chiqarish C. oddiy odamlar obrazini, ularning orzu-armonlari talqinini olib chiqish D.odomzodni ezgulikning timsoli sifatida, ijobiy qahramonlar obrazi tasvirini ko‘paytirish
277. A.Muxtor qalamiga mansub dramalarlarni belgilang. 1.“Daryolar tutashgan joyda” 2.“Opa-singillar” 3.“Qoraqalpoq qissasi” 4.“Tug‘ilish” 5.“Davr mening taqdirimda” 6.“Buxoroning jin ko‘chalari” 7.“Mardlik cho‘qqisi” 8.“Karvon qo‘ng‘irog‘i” 9.“Quyosh belanchagi” 10.“Chinor” 11.“Rahmat, mehribonlarim” 12.“Kumush tola” 13.“Jar yoqasidagi chaqmoq” 14.“Amu” 15.“Hamshaharlarim” 16.“Yaxshilikka yaxshilik” 17.“Chin yurakdan” 18.“Samandar” 19.“99 miniatyura” 20.“Sizga aytar so‘zim” A.1, 3, 6, 12, 13 B.2, 4, 5, 10, 14 C.7, 16, 18 D.8, 9, 11, 15, 17, 19, 20
278. A.Muxtor qalamiga mansub qissalarni belgilang. 1.“Daryolar tutashgan joyda” 2.“Opa-singillar” 3.“Qoraqalpoq qissasi” 4.“Tug‘ilish” 5.“Davr mening taqdirimda” 6.“Buxoroning jin ko‘chalari” 7.“Mardlik cho‘qqisi” 8.“Karvon qo‘ng‘irog‘i” 9.“Quyosh belanchagi” 10.“Chinor” 11.“Rahmat, mehribonlarim” 12.“Kumush tola” 13.“Jar yoqasidagi chaqmoq” 14.“Amu” 15.“Hamshaharlarim” 16.“Yaxshilikka yaxshilik” 17.“Chin yurakdan” 18.“Samandar” 19.“99 miniatyura” 20.“Sizga aytar so‘zim” A.1, 3, 6, 12, 13 B.2, 4, 5, 10, 14 C.7, 16, 18 D.8, 9, 11, 15, 17, 19, 20
279. A.Muxtor qalamiga mansub romanlarni belgilang. 1.“Daryolar tutashgan joyda” 2.“Opa-singillar” 3.“Qoraqalpoq qissasi” 4.“Tug‘ilish” 5.“Davr mening taqdirimda” 6.“Buxoroning jin ko‘chalari” 7.“Mardlik cho‘qqisi” 8.“Karvon qo‘ng‘irog‘i” 9.“Quyosh belanchagi” 10.“Chinor” 11.“Rahmat, mehribonlarim” 12.“Kumush tola” 13.“Jar yoqasidagi chaqmoq” 14.“Amu” 15.“Hamshaharlarim” 16.“Yaxshilikka yaxshilik” 17.“Chin yurakdan” 18.“Samandar” 19. “99 miniatyura” 20. “Sizga aytar so‘zim” A.1, 3, 6, 12, 13 B.2, 4, 5, 10, 14 C.7, 16, 18 D.8, 9, 11, 15, 17, 19, 20
280. A.Muxtor qalamiga mansub she’riy to‘plamlarlarni belgilang. 1.“Daryolar tutashgan joyda” 2.“Opa-singillar” 3.“Qoraqalpoq qissasi” 4.“Tug‘ilish” 5.“Davr mening taqdirimda” 6.“Buxoroning jin ko‘chalari” 7.“Mardlik cho‘qqisi” 8.“Karvon qo‘ng‘irog‘i” 9.“Quyosh belanchagi” 10.“Chinor” 11.“Rahmat, mehribonlarim” 12.“Kumush tola” 13.“Jar yoqasidagi chaqmoq” 14.“Amu” 15.“Hamshaharlarim” 16.“Yaxshilikka yaxshilik” 17.“Chin yurakdan” 18.“Samandar” 19. “99 miniatyura” 20. “Sizga aytar so‘zim” A.1, 3, 6, 12, 13 B.2, 4, 5, 10, 14 C.7, 16, 18 D.8, 9, 11, 15, 17, 19, 20
281. A.Navoiy sabzavorlik shoir va olim Darvesh Mansurdan qanday soha bo‘yicha ta’lim oladi? A. ilmi bade’ B. ilmi aruz C. ilmi qofiya D. arab tili
282. A.Oripov qaysi she’rlari bilan A.Qahhorning nazariga tushgan? A. “Munojotni tinglab”, “Burgut” B. “Yuzma-yuz”, “Sarob” C. “Birinchi muhabbat”, “O‘ylarim” D. “Yillar armoni”, “Ishonch ko‘priklari”
283. A.Oripov o‘z tarjimayi holida qaysi ulug‘ ijodkorning o‘ziga nisbatan “ehtiyot bo‘lgaysiz, ishqilib qarsaklardan taltayib ketmasangiz bo‘lgani” deganini yozadi? A.A.Qahhor B.Mirtemir C.Oybek D.Shayxzoda
284. A.Qahhor ijodining o‘ziga xos yakuni, so‘nggi cho‘qqisi bo‘lgan asar... A.“Muhabbat” B.“Sarob” S.“Sinchalak” D.“O‘tmishdan ertaklar”
285. A.Qahhorning qaysi asari noo‘rin tanqidga uchrab, qayta nashr qilingan? A.“Qo‘shchinor chiroqlari” B.“O‘tmishdan ertaklar” C.“Sarob” D.“Qishloq hukm ostida”

ADABIYOTBAZA 2019 I-QISM

286. A.Qodiriy she'rlari qaysi qaysi qatorda to'g'ri berilgan? A."Fikr aylagil", "Millatimga bir qaror" B."To'y", "Ahvol" C."Istiqlol", "Kelajakka maktub" D."Millatimga", "She'rim"
287. Abay sharq allomalaridan kimlar ijodidan bahramand bo'lgan? A. Firdavsiy, Fuzliy, Navoiy, Nizomiy B. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Dehlaviy C. Firdavsiy, Nizomiy, Lutfiy, Fuzuliy D. Dehlaviy, Navoiy, Lutfiy
288. Abayning "Naqliya so'zlar" majmuasi necha bo'limdan iborat? A.44 B.33 S.22 D.34
289. Abayning "Nasihatlar" kitobida keltirilgan "O'n yettinchi so'z" nima haqda? A. Kishi eshitgan narsasining to'rt sharti haqida B. Hunarning ado bo'lmas boylik ekanligi haqida C. G'ayrat, aql, yurak, ilmning suhbati haqida D. Adolat, insof, or-nomus haqida
290. Abdulla Avloniyning yangi (jadiD. maktablari uchun yaratgan darslik va qo'llanmalari to'g'ri qayd etilgan javobni toping A."Birinchi muallim", "Advokatlik osonmi?", "Qiroat kitobi", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" B."Turkiy guliston yoxud axloq", "Yengil adabiyot", "Padarkush", "O'qish kitobi" C."Birinchi muallim", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" D."Qiroat kitobi", "O'qish kitobi", "Yengil adabiyot", "Milliy she'rlar uchun milliy ashulalar"
291. Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasida murg'ak go'dakning tilagi ijobat bo'lishi haqida yozilgan. Xuddi shunday fikr yana quyidagi qaysi asarda mavjud? A."Qiyomat" B."Nido" C."Alvido, Gulsari" D."Ruhlar isyoni"
292. Abdulla Qahhorning tugallanmay qolgan asari qanday nomlanadi? A."Muhabbat" B."SInchalak" C."Zilzila" D."Ayajonlarim"
293. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'beklar to'g'risida roman yozgan ijodkor nomini aniqlang. A.Muhammad Ali B.Mirkarim Osim C.Odil Yoqubov D.Pirim Qodir
294. Adabiy atama sifatida asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo'nalishini belgilab beradigan jo'shqin tuyg'u va ko'tarinki ruhni anglatadigan atama qaysi javobda to'g'ri berilgan? A.lirika B.hissiyot C.R.meditativ D.pafos
295. Adabiyotshunoslik sohasida turkiy tilda asar yozgan olim kim? A.Rashididdin Vatvot B.Ahmad Taroziy C.Muhammad bin Qays Roziy D.Ahmad Mansur Samarqandiy
296. Agar bog'ingda gul bo'lmoq mening-chun noravo bo'lsa, Kiming bor, roziman qasringga hattokim duvol bo'lsam. H.Olimjon qalamiga mansub ushbu baytda tadrij bilan birga yana qanday she'riy san'at qo'llangan? A.tashbeh B.tazod C.tasdir D.tanosib
297. Agar qoshimda o'shal guluzor bo'lsa edi, G'ame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi. Baytda qo'llangan san'atni toping. A.mubolag'a B.irsoli masal S.tazmin D.tamsil
298. Agar Rum ahlina zulfung habashining askarin solsa, Ko'ngul ilginda ul soat topilmas hech omon, ey jon. Ko'p qavatli o'xshatish san'ati qo'llangan ushbu misralar muallifini toping. A.Atoiy B.Gadoiy S.Sakkokiy D.Lutfiy
299. Ahmad al-Farg'oniy hayotiga bag'ishlab yozilgan besh ko'rinishli she'riy drama yaratgan ijodkar? A. M. Osim B. Musa Jalil C. M.Boboyev D. J.Jabborov
300. Ahmad Yassaviyning qayd etishicha, bir qancha yuviqsizlarga yuvinish uchun buyurilsa toza bo'ladi, ammo qanday kishilar har qancha yuvinmasin, pok bo'lmaydi? A.johil B.besabr S.mag'rur D.hasadgo'y
301. Alisher Navoiy "yomon nafsni deydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiliuvchi" deya nimaga ta'rif beradi? A. Saxovat B. Himmat C. Hilim D. Bilim
302. Alisher Navoiy asarlaridan olingan parchani to'ldiring. "yaxshilikni topmoq …; ayiblarni yashirmoq …; zarur vaqitda berilgan chopon va bo'z to'n …; bemahal hadya qilingan zarbof chopon …; ovqatim uvol bo'lmasin desang …; libosim eskirmasin desang …; A.Yedirmoqdir, kiydirmoqdir, saxovat, yaramaslikdir, yedir, kiydir B.Yedirmoqdir, kiydirmoqdir, yaramaslikdir, yedir, saxovat, kiydir C.Yedirmoqdir, saxovat, yaramaslikdir, kiydir, yedir D.Kiydirmoq, yedirmoq, saxovat, yaramaslikdir, yedir, kiydir
303. Alisher Navoiy butun ijodi davomida qaysi janrda faqat bitta asar yozgan? A.tarji'band B.musoviyat tarafayn C.fard D.tarkibband
304. Alisherga alla aytib uxlatgan Sen-ona. Og'ushida Bobur kamolga yetgan Sen-ona. She'ri muallifi kim? A.E.Vohidov B.A.Oripov C.Mirtemir D.C.Zunnunova
305. Alpomish, Qorajon va Barchin ko'rgan tush hodisasidan keyin Qorajon qanday o'zgarish kuzatiladi? A.akalariga dushman bo'lib qoladi B.kalima keltirib, musulmon bo'ladi C.onasini sovchilikdan qaytarishga urinadi D.Barchin shartlarini bajarishga oshiqadi

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

306. Alpomish, Qorajon va Barchin ko‘rgan tush hodisasini Alpomish qayerda ko‘radi? A.Murodtepada B.baxmal o‘tovda C.Kashal g‘orida D.cho‘ponlarning qo‘shxonasida
307. Alpomish, Qorajon va Barchin ko‘rgan tush hodisasini Barchin qayerda ko‘radi? A.Murodtepada B.baxmal o‘tovda C.Kashal g‘orida D.cho‘ponlarning qo‘shxonasida
308. Alpomish, Qorajon va Barchin ko‘rgan tush hodisasini Qorajon qayerda ko‘radi? A.Murodtepada B.baxmal o‘tovda C.Kashal g‘orida D.cho‘ponlarning qo‘shxonasida
309. Alpomish, Qorajon va Barchin ko‘rgan tushda qibla tomondan bir oy va to‘rtta yulduz namoyon bo‘ladi. Bir oy va to‘rtta yulduz qanday ta’bir qilinadi? A.oy – payg‘ambar, to‘rt yulduz – to‘rt choriyor B.oy – chiroy (Barchin), to‘rt yulduz – to‘rtta mashhur alp C.oy – baxt, tole (Barchin); to‘rt yulduz – to‘rtta kaniz D.oy – payg‘ambar, to‘rt yulduz: Shohimardon pir, Bobo Qambar, Boybo‘ri va Boysari
310. Alpomish, Qorajon va Barchin ko‘rgan tushni Barchin kimga so‘zlab beradi? A.otasiga B.onasiga C.kanizi Suqsuroyga D.Surxayil kampirga
311. Amakisining qizi Amaliyani shaydolarcha sevib qolgan, lekin tuyg‘ulari rad etilgan shaxs nomi qaysi javobda berilgan? A.Hayne B.Onegin C.Petrarka D.Sapfo
312. Andersonning qaysi ertaklarida jonsiz ashyolar harakatga kelib, odamlarday so‘zlaydi? A.“Dyumchaxon”, “Suv parisi” B.“Qor malikasi”, “Bulbul” C.“Bronza to‘ng‘iz”, “Kumush tangacha” D.barcha javoblar to‘g‘ri.
313. Antik adabiyotning sara namunasi bo‘lmish Sofoklning “Shoh Edip” fojeasini kim o‘zbek tiliga tarjima qilgan? A. A. Muxtor B. A.Oripov C. E.Vohidov D. O‘.Hoshimov
314. Antuan de Sent-Ekzyuperining “Tungi parvoz” (1931) romani qanday mukofotga sazovor bo‘lgan? A.xalqaro Andersen mukofotiga B.“Femina” mukofotiga C.Fransiya akademiyasining Gran Pri mukofotiga D.yuqoridagilarning barchasi
315. Arabcha so‘z bo‘lib, she’riy san’at sifatida “chappa, teskari” degan ma’no anglatadigan so‘z qaysi javobda berilgan? A.polindrom B.qalb C.tadrij D.musoviyat tarafayn
316. Arman xalq eposi “Sosunli Dovud” o‘zbek tiliga kim tomonidan tarjima qilingan? A.Shukrullo B.Mirtemir S.Oybek D.M.Qoriyev
317. Arslon yuraklik, ma’nolar majlisi ichra keraklik, saxovat bobida Hotami Toy, shijoat mulkida Kovus-i Kay. Ushbu misralarda qaysi hukmdor tasvirlangan? A.Muhammad Xo‘jabek B.Mahmud sulton S.Qora Bug‘roxon D.al Muqtado.
318. Asarda yolg‘on e’tiqod insonlarni qay kunlarga solishi va e’tiqodsizlik millatni qanchalar tubanlashtirishi mumkinligi yorqin obrazlar orqali haqqoniy aks ettiriladiyu Ushbu fikr qaysi asar haqida? A.”Yovvoyi yo‘rg‘a” B.”Qora kamar” C.“Oq kema” D.”Mehrobdan chayon”
319. Avaz O‘tar Navoiyning qaysi g‘azaliga muxammas bog‘lagan? A.“O‘n sakiz ming olam oshubi” B.“Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubtur” C.“Ashraqat min aksi shamsil...” D.“Lolazor ermaski...”
320. Avaz O‘tarning “Har odamning talab yo‘lida gar ixlosi komildur” misrasi bilan boshlanadigan she’ri qaysi janrda yozilgan? A. g‘azal B.musamman C.musaddas D.muxammaC.
321. Avliyo Chalabiyning “Sayohatnoma”, Husomiddin Bulg‘oriyning “Tavorixi Bulg‘oriya” asarlarida qaysi tasavvuf ulamosi haqida ma’lumotlar bor? A.Yassaviy B.Naqshband S.G‘ijduvoniy D.Attor
322. Avloniy fikricha, qaysi tushuncha bu dunyoda muqaddas, bu tushunchani kimki bilmasa, uning aqli pastdir, bu tushuncha yuraklarga savdo soladi, bu tushunchada ifodalangan dard yana boshqa tushunchani tortib oladi? A.vatan B.muhabbat C.hayo D.do‘stlik
323. Avloniy pyesalari to‘g‘ri qayd etilgan qator… A.“Advokatlik osonmi?”, “Padarkush”, “Ikki muhabbat” B.“Potugaliya inqilobi”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Baxtsiz kuyov” C.“Biz va siz”, “Yangi saodat”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” D.“Pinak”, “Potugaliya inqilobi”, “Advokatlik osonmi?”
324. Avloniyning “Maktab” she’ri qanday she’riy shaklda yozilgan? A.g‘azal B.musaddas C.muxammas D.murabba’
325. Ayit mendinkim, ul miskin urur oh, Qachon ingay gadoning evina shoh. Misrada yashirin qo‘llangan (e’tibordan chetda qolgan) she’r san’atini aniqlang. A.istiora B.tashxis C.tazod D.talmeh

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

326. Ayolni ilk bor gulga o‘xshatgan odam buyuk shoir bo‘lgan. Uni ikkinchi martaba gulga qiyoslagan shoir esa oddiy laqma, xoloC. Ushbu fikr qaysi buyuk shoirga tegishli deb hisoblanadi? A.Hayne B.Nizomiy C.Pushkin D.Gyote
327. Badgumonlik so‘zining ma’nosi nima? A.gumon qilish B.yomon fikrga borish C.gumon qilmaslik D.barcha javob to‘g‘ri.
328. Badiiy adabiyotda ko‘p uchraydigan, olovda tug‘ilib, olovdan omon chiqadigan afsonaviy qush qanday nomlanadi? A.hudhud B.samandar S.humo D.anqo
329. Badiiy asarda qisqalikni, siqiqlikni ta’minlovchi stilistik vosita nomini toping. A.anafora B.ellipsis C.apostrofa D.epifora
330. Bahorga murojaat qilib, mening bog‘imdan ketma, deb iltijo qilgan shoir kim? A.T.Sulaymon B.SH.Rahmon C.A.Oripov D.E.Vohidov
331. Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman, deya nola qilgan shoir nomini aniqlang. A.T.Sulaymon B.SH.Rahmon C.A.Oripov D.E.Vohidov
332. Baland bo‘yli, qushburun, chiroyli odam kim? A.Ronosbat. B.Doro .Shiroq. D.Saksfar.
333. Barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qashqardan Chingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritiladi. Gap qaysi yozuv to‘g‘risida? A.arab B.fors S.uyg‘ur D.so‘g‘d
334. Barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qashqardan Chingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritiladi. Ushbu fikrlar muallifi kim? A.Koshg‘ariy B.Vamberi S.As-Saolibiy D.Xos Hojib
335. Baxmal tumani Loyqa qishlog‘ida tug‘ilgan baxshi qaysi javobda berilgan? A.Fozil shoir B.Ergash Jumanbulbul C.Kichik Bo‘ron D.Nurmat baxshi
336. Baxt omonat. U qushdek uchib yuradi. Hech kimning boshiga uzoq turmaydi, deb eslatma berilgan adabiy yodgorlik nomini toping. A.“Gulzor” B.“Qutadg‘u bilig” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Zarbulmasal”
337. Baxtga yetishning yo‘li bitta: u ham bo‘lsa ilmdir, deya uqtirilgan fikr manbasini toping. A.“Gulzor” B.“Qutadg‘u bilig” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Zarbulmasal”
338. Befarzand ayol iztiroblari aks etgan asar… A.“Oq kema” B.“O‘zbeklar” C.“Zulmat ichra nur” D.“Mardlik afsonasi”
339. Behbudiy “Ikki emas, to‘rt til kerak” maqolasida turkiylar zavq-shavq bilan o‘qiydigan turkigo‘y shoirlar qatorida yana 2 g‘arb ijodkorining nomini sanaydi. Bular... A.Pushkin, Bayron. B.Tolstoy, Jul Vern C.Geyne, Shekspir D.Balzak, Servantes
340. Behishtsaro shahri podshoshining qizi kim? A.Mehr B.Guldursun C.Zulayxo D.Kuntig’mish
341. Bek oti bilig bila bag‘lig‘ turur, bilig lomi ketsa bek oti qolur (“Qutadg‘u bilig”) Ushbu parchada qanday badiiy san’atlar qo‘llangan? A Radd ul-hashv ilal ibtido, muammo, harf san’ati B.Qofiya, tanosub, takrir C.Ta’did, radif, ishtiqoq D.Tasbe, tardi aks, kitobat
342. Bir bema’ni narsa paydo bo‘lsa va uning oldi olinmasa, u butun dunyoga, barcha odamlarga salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Ushbu fikr manbasini aniqlang. A.“Movutfurush xatlari” (J.Svift) B.“Gulliverning sayohatlari” (J.Svift) S.“Bulbul” (Andersen) D.“Qor malikasi” (Andersen)
343. Bir misradagi ikki so‘zning keyingi misradagi ikki so‘z bilan ohangdosh bo‘lib kelishi nima deb yuritiladi? A.duqofiyatayn B.zebqofiya S.zulqofiyatayn D.qofiyatayn
344. Bir qo‘shiq bo‘laman daryoday, yurakning eng chuqur yerida... deya orzu qilgan ijodkor kim? A.H.Olimjon B.C.Zunnunova C.A.Muxtor D.SH.Rahmon
345. Bir sultonning 3 o‘g‘li bo‘lib, 2 tasining bo‘yi uzun, birining bo‘yi kalta edi. Sulton bo‘yi kaltasiga bo‘yi uzun o‘g‘illaridan past nazar bilan qarardi. Shunda o‘g‘il uzun bo‘yli ahmoqdan, kalta bo‘yli oqil yaxshiroq ekani to‘g‘risida sultonga so‘zlaydi. Ushbu mazmuni so‘zlangan hikoyat quyidagi qaysi manbadan olingan? A.“Gulzor” B.“Gulistoni bit turkiy” C.“Shohnoma” D.“Zarbulmasal.
346. Biringiz boqiysiz, biringiz balki puch, Biringiz shodliksiz, biringiz o‘kinch, Biringiz baxtlisiz, biringiz baxtsiz, Biringiz yarador, o‘lgansiz vaqtsiz. A.Muxtor she’ridan olingan ushbu misralarda biringiz deganda kimlar yoki nimalar nazarda tutilgan? A.o‘tgan yillar B.jangchi do‘stlar C. ijodkor do‘stlar. D.amalga oshmagan tilaklar.

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

347. Birinchi bandda «aylar falak», ikkinchi bandda «aylar meni», beshinchi bandda «qilmadi», yettinchi bandda «bo‘lmadi», sakkizinchi bandda «ayladi» so‘zlari radifga olingan. Qolgan besh band esa radifsiz qofiyalar bilan tugaydi. Gap qaysi asar to’g’risida? A.”Firoqnoma” B.”Muhabbatnoma” C.”Taashshuqnoma” D.”Dahnoma”

348. Birinchi davrda Shoshibushon ham qizchaga “Kotxamala”, “Akyanomonjori”dek sirli va tushunib bo‘lmaydiganday tuyuldi. “Nur va soyalar” hikoyasidan olingan ushbu parchadagi ostiga chizilgan so‘zlar nimaning nomlari? A.mevalarning B.kitoblarning C.tog‘larning D.daryolarning

349. Birinchi marta respublika bolalar gazetasida “Qushcha” nomli she’r e’lon qilgan shoir kim? A.A.Muxtor B.Mirtemir S.A.Oripov D.M.Yusuf

350. Birinchidan, adib o‘zigacha yaratilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalarni puxta o‘rgandi, ularning yutuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Uchinchidan, oldinlari nabiylar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo‘lsa, ...ning turkiy tilda bitilgan qissalari turkiy xalqlarning bebaho ma’naviy mulkiga aylandi. Gap kimning adabiyotimizdagi bebaho hissasi to’g’risida? A.Qul Alining B.Yassaviyning C.Yugnakiyning D.Rabg’uziyning

351. Birinchilardan bo‘lib “Mehnat qahramoni” (1925-yil) unvonini olgan ijodkor kim? A.A.Qodiriy B.Cho‘lpon C.Avloniy D.Fitrat

352. Biz qadimgi shartlashgan shartlarda turamiz: “yirtilgan sanoch ham, yiqilgan karvon ham bo‘lmaydi”. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

353. Bizgacha kimning o‘zbek va tojik tillardagi 12 g‘azali, Amir Umarxonga bag‘ishlangan 1 qasidasi yetib kelgan? A.Muqumiy B.Zavqiy C.Gulxaniy D.Zavqiy

354. Bobosi bilan ismi bir xil bo‘lgan ijodkor kim? A.Zavqiy B.Turdi Farog‘iy C. Maxtumquli D.R.Hamzatov

355. Bobosi haqida so‘zlab, uning temir yo‘l tonnellaridan ishlaganini yozgan ijodkorni aniqlang. A.CH.Aytmatov B.Shuhrat C.SH.Rahmon D.T.Sulaymon

356. Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Nizomiy, SH.Rustaveli, Pushkin, Nekrasov, A.Ostrovskiy, T.Shevchenko, A.Chexovga bag‘ishlab asarlar yozgan olim, shoir, dramaturg nomini aniqlang. A.Shayxzoda B.A.Muxtor C.O.Sharafiddinov D.Fitrat

357. Bobur, SH.Rahmon, M.Yusuf nomlarini birlashtirib turadigan ma’lumotlarni belgilang. 1.Uchalasi ham Andijonda tug‘ilgan 2.Uchalasi ham 47 yoshda vafot etgan 3.Uchalasi ham o‘z tug‘ilgan eridan boshqa joyda vafot etgan A.1, 2, 3 B.1, 2 C.3 D.1, 3

358. Bolalaik nafaqat quvnoq davr, bolalik inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir, deb alohida qayd etgan ijodkorni aniqlang. A.CH.Aytmatov B.G‘.G‘ulom C.J.Rodari D.Ekzepyuri

359. Bolaning yig‘isida: “Siz ko‘rgan azob o‘tmishda qolgan, men esa uni ertaga (bundan buyon) ko‘rishim kerak” degan ma’no o‘qigan shoir kim? A.Faxriyor B.B.Ro‘zimuhammad C.Shuhrat D.R.Hamzatov

360. Bozor kelgan bozorchilar, Yo‘lni kezgan guzarchilar. “Ravshan” dostonidan olingan ushbu parchadagi guzarchilar deganda kimlar nazarda tutilgan? A.o‘tkinchilar V.mahalladoshlar C.qalpoq tikuvchilar D.bozor nazoratchilari

361. Boshdan-oxirigacha ta’rif-tavsif asosida yozilgan, sujeti yo‘q asar nomini toping. A.“Yatimat ud-dahr” B.“Qutadg‘u bilig” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Devonu lug‘atit turk”

362. Boshimga qilich kelsa ham, sening eshigingdan ketmayman, deb ma’shuqani ishontirishga uringan shoir kim? A.Navoiy B.Lutfiy C.Xorazmiy D.Huvaydo

363. Boshing egib, ta’zim ayla, shukrona ayt, Seni guldek erkalagan chaman uchun. Misra muallifi kim? A.A.Oripov B.SH.Rahmon C.Rauf Parfi D.Iqbol Mirzo

364. Boshqalar aytishi man etilgan, faqat podsholarning o‘zlari aytadigan qo‘shiqlar yo‘q. Ushbu hikmat manbasini aniqlang. A.“Asrga tatigulik kun” B.“Qiyomat” C.“Dengiz yoqalab chopayotgan olapar” D.“Oq kema”

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

365. Bu – qadim dunyoda yangi bir olam Bunda orqa tog‘siz bir tirik jon yo‘q. (ZulfiyA. Parchada keltirilgan “orqa tog‘” atamasida nima nazarda tutilgan? A.ajdodlar ruhi B.yosh avlod C.nevara D.o‘zbek xalqi
366. Bu adibga birinchi sinfga borganida akasi tomonidan “Mard yigit” degan ertaklar to‘plami sovg‘a qilingan. Ma’lumot qaysi adib haqida? A.Z.A’lam B.T.Malik C.N.Normatov D.X.Do‘stmuhammad
367. Bu asar “... o‘zbek xalqining Chor Rossiyasi va Sho‘ro bosqini ostida o‘tgan hayotini – yuz yildan ortiroq tarixini o‘zida mujassam etgan, bir oilaning avlodi misolida butun millatning taqdiri ifoda etiladi”. Yuqoridagi fikrlar kimning qaysi asari haqida? A.T.Murod “Ot kishnagan oqshom” B.P.Qodir “Uch ildiz” S.T.Murod “Otamdan qolgan dalalar” D.P.Qodir “Qora ko‘zlar”
368. Bu asarning 5 ta nusxasi yetib kelgan, uyg‘ur va arab yozuvidagi nusxalari bor, 1000 ga yaqin so‘z ishlatilgan, ularning uchdan ikki qismi sof turkiy, 15-20 foiz so‘z arabcha va forscha. Ushbu ma’lumotlar qaysi adabiy yodgorlik to‘g‘risida? A.“Taashshuqnoma” B.“Miftohul adl” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Dahnoma”
369. Bu qahramonning bizga ibrati shundaki, u o‘zi tanlagan taqdirning olis yo‘lida duch kelishi muqarrar bo‘lgan qiyinchiliklarga tik boqa oladi. Nafaqat tik boqadi, balki qora yo‘rg‘asini mashaqqatlar sari yanada tezlaydi. Yuqoridagi mulohazalar U.Nosirning qaysi she’ri qahramoni haqida? A.“Yurganmisiz birga oy bilan” B.“Yur tog‘larga chiqaylik” C.“Yo‘lchi” D.“Gulzor – chaman”
370. Bugungi adabiyotimizning hajvchi adib va shoirlarini ko‘rsating. A.Said Ahmad, Ne’mat Aminov, Anvar Obidjon B.Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Ne’mat Aminov C.Zavqiy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad D.Muqimiy, Said Ahmad, Anvar Obidjon
371. Butun boshli jamiyatning xasta, najotga zor, tuzalishga muhtoj ekaniga ishora qilingan asar nomini aniqlang. A.“Asrga tatigulik kun” B.“Jarayon” C.“Bemor” D.“Yevgeniy Onegin”
372. Butun ijodi davomida 150 dan ortiq hikoyalar yozib, ularda o‘z mamlakati shimoli va Okeaniya orollaridagi hayotni zo‘r badiiy mahorat bilan tasvirlagan adib... A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
373. Butun g‘azallaridan bor-yo‘g‘i 40 ta yetib kelgan shoir qaysi javobda ko‘rsatilgan? A.Atoiy B.Gadoiy S.Sakkokiy D.Avaz O‘tar
374. Buxoroda tug‘ilib, Nodirmuhammad va uning o‘g‘illari Abdulaziz va Subhonqulixon hukmronligi davrida hayot kechirgan ijodkor kim? A.Maxmur B.Turdi Farog‘iy C.Maxtumquli D.Hofiz Tanish Buxoriy
375. Buyuk bobolarimiz Saqalar davlatini tuzganiga qancha vaqt bo‘ldi? A.2700 B.3000 C.2500 D.2000.
376. Bo‘ying sarvu sanobartek, beling qil, Vafo qilgan kishilarga vafo qil. Xorazmiy qalamiga mansub ushbu baytda tajnis va tashbeh bilan birga yana qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.muvozina B.tafrit C.tadrij D.tashxis
377. Belgiyalik partizan Andre Timmermans kimning she’rlar to‘la yon daftarini konsulxonaga keltirib, bu she’rlarning yo‘qolib ketmasligiga xizmat qilgan? A.Kafka B.Yulis Fuchik S.Musa Jalil D.Kamyu
378. Boburning “G‘urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur” misrasidagi pir qilibtur tashbehi qanday ma’no anglatadi? A.qaritdi B.ulug‘ladi S.intizor qildi D.azob berdi
379. Boqay desa dog‘i quvvati yo‘q, boqmay desa dog‘i toqati yo‘q Ushbu baytda qofiyaga oid qanday hodisa kuzatiladi A.mutakarrin qofiya B.mahjub qofiya S.tajnisli qofiya D.kontrast qofiya
380. Botirlari kanal qazadi, SHoirlari g‘azal yozadi. H.Olimjon qalamiga mansub ushbu baytda poetik fonikaga oid qaysi tushuncha bilan bog‘liq xususiyat mavjud? A.dissonans B.monorim C.assonans D.alliteratsiya
381. Botayotgan Quyosh kabi rangida qon yo‘q. O‘xshatish muallifi kim? A.SHayxzoda B.U.Nosir S.G‘.G‘ulom D.O.SHarafiddinov
382. Boshing hech chiqmasa, mayli, malomat birla bo‘htondin, Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, qamal bo‘lsam. H.Olimjon qalamiga mansub ushbu baytda tadrij bilan birga yana qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.tashbeh B.tazod C.tasdir D.tanosib
383. Darhol dedi: “Tayyor turgil sen, Kafaningni chaymoqdaman men”, “Darhol dedi: “Vaqt ziq, bilgin sen, Tobutingni yasayapman men”. Haynenining qaysi she’ridan olingan. A.“Qo‘shiqlar kitobi” B.“Ro‘yo” C.“Lyutesiya” D.“Germaniya. Qish ertagi”

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

384. Dastlabki to‘qqiz bo‘limida tushkun kayfiyatlar, so‘nggi o‘ninchi bo‘limida hayotbaxsh tuyg‘ular tasvirlangan she’r muallifini aniqlang. A.Hayne B.Pushkin C.U.Nosir D.Shayxzoda
385. Dastlabki yirik asari “Tengdoshlar” deb nomlangan ijodkor nomini aniqlang. A.SH.Xolmirzayev B.O‘.Hoshimov C.O.Yoqubov D.Pirim Qodir
386. Dastlabki she’ri 7-sinfda o‘qiyotgan davrida “Mushtum” jurnalida e’lon qilingan shoir kim? A.A.Oripov B.M.Yusuf C.A.Suyun D.E.Vohidov
387. Derlar shirin so‘zning gadolari ko‘p, Yonib turgan ko‘zning adolari ko‘p, Yurtlar bor, hattoki xudolari ko‘p, Vatan yagonadir, Vatan bittadir. Ushbu misralar muallifi kim? A.Zulfiya B.Zulfiya Mo‘minova C.Xosiyat Bobomurodova D.Halima Axmedova
388. Deyarli yaratgan barcha asarlarida birgina dardni, ya’ni insoniyat boshiga tushgan alamli kunlarni badiiy qayta jonlantirgan, deb e’tirof etilgan ijodkor nomini aniqlang. A.F.Kafka B.CH.Aytmatov C.P.Qodirov D.M.Hodiy
389. Doktorxona deganda ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so‘mlik pul keladigan obraz yaratgan ijodkor nomi qaysi javobda berilgan? A.Oybek B.G‘.G‘ulom C.A.Qahhor D.A.Qodiriy
390. Doro qo‘lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong‘i kechadagi yulduzlarga o‘xshatiladi. Uni elpib turgan ikki mulozim-chi? A.tosh qo‘g‘irchoqqa. B.tik qomatli diydbonga. C.qanotlarini yozib turgan kalxatga. D.jallodga
391. Dunyodan faqat ezgulik qidirgan va yaxshilikka intilgan, ammo hayotning shafqatsizligi tufayli erta halok bo‘lgan norasida bolaning taqdiri ifoda etilgan asar… A.“Oq kema” B.“O‘zbeklar” C.“Nido” D.“Dahshat”
392. Do‘mbira jo‘rligida, bo‘g‘izda kuylanadigan dostonchilik maktabi... A.Samarqand B.Xorazm S.Farg‘ona D.Qashqadaryo-Surxondaryo
393. Do‘mbira jo‘rligida, ochiq ovoz bilan kuylanadigan dostonchilik maktabi... A.Samarqand B.Xorazm S.Farg‘ona D.Qashqadaryo-Surxondaryo
394. Do‘st in’omga umid qilganda va dushman yomonlikdan qo‘rqqanda, biz seni sinab ko‘rdik. Faqat ixtiyoring bilan kishilarga naf keltirasan va faqat zarurat tug‘ilgandagina zararli bo‘lasan. Faqat jazo berish uchungina sen yomonlikni ravo ko‘rasan, xudo senga behad yaxshilikni ravo ko‘rsin. Tashakkur aytuvchi sening haqingda yomon fikrga kelishidan qo‘rqmaganingda, noshukrni yomonlik bilan jazolamagan bo‘lardik. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
395. Do‘stlar bilan suhbat xuddi olamning jannati-yu, nomunosiblar bilan suhbat jahannamning o‘ti ekani haqidagi fikr qaysi shoir g‘azalining matla’si sanaladi? A.Navoiy B.Sa’diy C.Bobur D.Uvaysiy
396. Dengiz suvi toshib yotgani ayon bo‘lib tursa ham, it undan tili bilan ichadi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
397. Donolarga tegishli fors maqollaridan: “Kiyim bo‘yoqchi qo‘lida garovdir”. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
398. E, ena Avazing: “Qizimni bermayman, mening tengim emas” deb, bizni ... , o‘zini ... tutdi. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying. A.burgut, sor B.bo‘ri, tulki C.quzg‘un, lochin D.qirg‘iy, chumchuq
399. E, Masihodam begim, bir dam ila bergil shifo, SHeva birla ko‘zlaring jonimni bemor ayladi. Ushbu baytda talmeh bilan birga yana qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.tashbeh B.tazod C.tadrij D.tanosib
400. Edigey Bo‘ron tabiatiga xos yuksak insoniy fazilatlar quyidagi qaysi o‘rinlarda namoyon bo‘lgan? 1.Kazangapni dafn etish jarayonida 2.Kazangap bilan vidolashuv daqiqalarida 3.Ollohga munojot qilgan o‘rinarda A.1, 2 B.1, 2, 3 C. 1, 3 D.2, 3
401. Eh, O‘rik! Soya ham do‘st bo‘ladimi? Laqqa tushibsan-da lof ursa. Do‘st bo‘lsa, har qanday ob-havoda Yoningda tursa… misralari muallifi kim? A.A.Muxtor B.Shuhrat C.C.Zunnunova D.SH.Rahmon
402. Eltarish xoqon dono maslahatchisi qahramon bo‘lgani uchun bir davlatga bir necha martadan urush qiladi. Davlatlar va urushlar miqdori muvofiq javobni belgilang. 1.Tabg‘achga 2.Qitanilarga 3.O‘g‘uzga A.5 marta B.17 marta D.7 marta A.1-b, 2-d 3-a B.1-a, 2-b 3-d C.1-d, 2-a 3-d D. 1-d, 2-b 3-a




ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

403. Endi u kir chapkon kiyib, yog‘i chiqqan salla o‘rab, tez-tez sudga borar, shuning bilan birga, har gal, sohib huzuriga kirib, unga ta’zim qilib chiqishni tark etmasdi. “Nur va soyalar” hikoyasidan olingan ushbu parchadagi ostiga chizilgan so‘z nimaning nomi? A.kostyum B.ko‘ylak C.telpak D.to‘n
404. Eng zo‘r chiqish yo‘li oradan o‘tadi. Faxriyor she’ri uchun epigraf vazifasini bajargan ushbu hikmat muallifi kim? A.R.Frost B.F.Kafka S. Akutagava. D.Thokur
405. Epikaning katta janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.ocherk 2.felyeton 3.xotira 4.ballada 5.masal 6.latifa 7.hikoya 8.novella 9.poema 10.povest 11.qissa 12.epopeya 13.roman 14.doston A.1, 2, 3 B.4, 5, 6, 7, 8 S. 9, 10, 11 D.12, 13, 14
406. Epikaning kichik janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.ocherk 2.felyeton 3.xotira 4.ballada 5.masal 6.latifa 7.hikoya 8.novella 9.poema 10.povest 11.qissa 12.epopeya 13.roman 14.doston A.1, 2, 3 B.4, 5, 6, 7, 8 S. 9, 10, 11 D.12, 13, 14
407. Epikaning maxsus janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.ocherk 2.felyeton 3.xotira 4.ballada 5.masal 6.latifa 7.hikoya 8.novella 9.poema 10.povest 11.qissa 12.epopeya 13.roman 14.doston A.1, 2, 3 B.4, 5, 6, 7, 8 S. 9, 10, 11 D.12, 13, 14
408. Epikaning o‘rtacha janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.ocherk 2.felyeton 3.xotira 4.ballada 5.masal 6.latifa 7.hikoya 8.novella 9.poema 10.povest 11.qissa 12.epopeya 13.roman 14.doston A.1, 2, 3 B.4, 5, 6, 7, 8 S. 9, 10, 11 D.12, 13, 14
409. Ergash shoir repertuaridagi eng yaxshi doston qaysi javobda berilgan? A.“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” B.“Ravshan” S.“Avazxon” D.“Kuntug‘mish”
410. Erik erni yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘, ya’ni tirishqoqning labi yog‘li, erinchoqning boshi qonlik maqoli qaysi manba orqali bizga qadar yetib kelgan? A.“Yatimat ud-dahr” B.“Qutadg‘u bilig” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Devonu lug‘atit turk”
411. Erkin she’r nima? A.Shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo‘lib, ma’lum bir qolipga solingan ritmik nutq B.Qolipga, o‘lchamga solingan nutq S.Vazndan vaznga ko‘chishga asoslangan she’riy tizim D.Barmoq she’r tizimida misralardagi bo‘g‘inlarning muayyan guruhlarga bo‘linishi
412. Eski maktabda o‘qigan, arab va fors tillarini o‘rgangan, Langar mahallasidagi “Shamsul irfon” maktabida, Navoiy nomidagi pedagogika bilim yurtida tahsil olgan, mutaxassisligi bo‘yicha tarixchi-iqtisodchi ijodkor kim? A.Oybek B.Behbudiy S.Avloniy D.M.Osim
413. Eski chaldevorlardan chayon ushlab o‘zini chaqtirsa-da, og‘riq sezmaydigan qahramon kim? A.Ronosbat. B.Rustak S.Shiroq. D.Saksfar.
414. Etil suvi oqa turur, Qoya tubi qaqa turur, Baliq telim baqa turur, Ko‘lung taqi kusharur. “Devonu lug‘atit turk”dan olingan ushbu ma’lumotdagi Etil nimaning nomi? A.daryo B.tog‘ S.dengiz D.ko‘l
415. Ey koshifi haqoyiq asrori sodiqin, Vey, voqifi daqoyiq, mushkbo‘yi xoriqin. Ushbu misralarda qaysi tasavvuf ulamosi haqida so‘z yuritlgan? A.Yassaviy B.Naqshband S.G‘ijduvoniy D.Attor
416. Ey koshifi haqoyiq asrori sodiqin, Vey, voqifi daqoyiq, mushkbo‘yi xoriqin. Ushbu misralar muallifi kim? A.Sayromiy B.Navoiy S.Rumiy D.Kubro
417. Ey millat, uxlama, ilm olur chog‘i, Har millat ilm oldi – yondi chirog‘i. Ushbu misralar muallifi…? A.Hamza B.So‘fizoda S.Avloniy D.Cho‘lpon
418. Ey qarindosh, muni so‘rmasman. Menda kezin Mavlo taolo nimani za’if yozuqluq ummatlarim birla na muomala qilg‘ay, ani so‘rarman. Bu - “Qissasi Rabg‘uziy”dan olingan Muhammad payg‘ambarning so‘zi. Qarindosh deganda kim nazarda tutilgan? A.Abu Bakr B.Hazrati Ali S.Jabroil D.Fotima
419. Ey, go‘zalim, yolg‘izim, ey, quyoshim, qamarim, ey, yaqinim, olisim, ey, asalim, shakarim. Faqat undov va undalmadan iborat ushbu misralar muallifi kim? A.I.Mirzo B.B.Ro‘zimuhammad. C.Faxriyor D.SH.Rahmon
420. Ezgu insoniy tuyg‘ulardan mahrum, odamning ko‘nglini his etmaydigan, bobolar qo‘llagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kunidan uzilgan, ammo o‘zini ilg‘or fikrli ziyoli hisoblaydigan Sobitjon obrazi qaysi asarda uchraydi? A.“Asrga tatigulik kun” B.“Maydon” C.“Ffu” D.“Ko‘zgu oldidagi odam”
421. Eshak balchiqqa yumalab istagan narsasiga erishdi va undan qutildi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

422. Eshak haqidagi og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan maqollardan: “Eshak ba’zan kasalligi uchun ham hangraydi”. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

423. Echki faqat ovqat bilan semiradi, echki muloyim gap bilan semirmaydi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

424. Echki ham uloq bozori, Telpak ham tumoq bozori. “Ravshan” dostonidan olingan ushbu parchadagi tumoq qanday telpak? A.boylar kiyadigan telpak B.kambag‘allar kiyadigan telpak C.yasovullar kiyadigan telpak D.bo‘yinni ham bekitadigan telpak

425. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o‘tgan qaltis voqealar she’r va nasriy yo‘lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma’lum epik asarlar ... deyiladi. Nuqtalar o’rniga mos so’zni qo’ying. A.xalq dostonlari B.xalq kitoblari C.xalq ertaklari D.xalq eposi

426. Faxriyor o‘zining bir she’rida ... so‘zini idishga o‘xshatadi, shuningdek, bu so‘zni bemor ishtahasiday ta’bi u qadar nozik emasligi va shu kabi bir nechta g‘ayritabiiy tashbehlar bilan tasvirlaydi. Nuqtalar o‘rniga zarur so‘zni qo‘ying. A.kechinma B.turmush C.moziy D.ko‘z.

427. Faylasuf Gegeldan ma’ruzalar tinglagan shoir nomini aniqlang. A.Hayne B.Pushkin C.Hyote D.Hodiy

428. Firdavsiyning “Shohnoma”sida Rustam va Suhrob bir-biri bilan turli qurollar yordamida – nayza, qilich, gurzi, kamon bilan jang qiladilar. Shundan keyin... A.kurash tushishadi B.holdan toyib yiqilishadi C.so‘z jangiga kirishishadi D.bir-birini tanib qoladi

429. Furqatning qaysi g‘azalida taxallus qo‘llanmagan? A.Fasli navbahor o‘ldi ketibon zimistonlar B.Bir qamar siymoni ko‘rdim baldai Kashmirda S.Ne balolig‘ erdi, ey sho‘xi diloro, surating D.G‘aribi bu viloyat xonumonidin adashganman

430. Falsafiy qasida nomini olgan asarni aniqlang. A.“Hiloliya” B.“Toshkentnoma” S.“Tuhfatul afkor” D.“O‘zbegim”

431. Folklorshunos olim T.Mirzayevning ma’lumotlariga ko‘ra, ... asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan. Nuqtalar o‘rniga mos sanalarni qo‘ying. A.X-XII B.XV-XVI S.XIX-XX D.XIII-XIX

432. Fozil Yo‘ldosh repertuaridagi eng yaxshi doston qaysi javobda berilgan? A.“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” B.“Alpomish” S.“Avazxon” D.“Kuntug‘mish”

433. Gar hajring o‘ti jonu jigarga yoqa keldi, Jonimg‘a ne xush sharbati vasling yoqa keldi. Baytda qo‘llangan san’atni toping. A.mubolag‘a B.tajnis S.tazmin D.tashbeh

434. Gezi-gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo‘nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo‘shiq kuylab kelardim. Ushbu xotira kimning tarjimayi holiga tegishli va “ularga” deganda kimlar nazarda tutilgan? A.Fozil Yo‘ldosh o‘g‘liga, H.Olimjonning bobosi Mulla Azim oilasi B.Ergash Jumanbulbul o‘g‘liga, H.Olimjonning bobosi Mulla Olimjon oilasi C.Fozil Yo‘ldosh o‘g‘liga, H.Olimjon oilasi D.Ergash Jumanbulbul o‘g‘liga, H.Olimjon oilasi

435. Gulxaniyning qaysi asarida o‘zining navkarlik davridagi og‘ir hayoti tasvirlangan? A.“Barmog‘im” B.“E, to‘ti” C.“Lola ko‘ksidek bag‘rim …” D.“Bideh”

436. Gulxaniyning qaysi g‘azalida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ta’sirli ifoda etilgan? A.“Barmog‘im”, “Lola ko‘ksidek bag‘rim …” B.“Barmog‘im”, “E, to‘ti” C.“Bideh”, “Barmog‘im” D.A va B javoblar

437. Go‘rda yotar edi, xurrakni baland otar edi, botmon nosvoyni to‘rt bo‘lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qaerda yomonlik bo‘lsa, izlab Yetar edi. “Rustamxon” dostonidan olingan ushbu parchada gap qaysi qahramon to‘g‘risida? A.Huroyim B.Momogul S.Ximcha D.Bujul.

438. Go‘ro‘g‘libek bol Avazga qarab, murtini burab, bir so‘z aytayotir. “Ravshan” dostonidan olingan ushbu gapda qo‘llangan murt so‘zi ma’nosini aniqlang. A.mo‘ylov B.soqol C.otning yugani D.chilvir

439. H.Yoqubov, A.Olimjonov,.H.Zaripov, H.Razzoqov, G‘.Karimov kabi olimlar hassos shoir haqida kitoblar yozdilar, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qildilar. Gap qaysi shoir to‘g‘risida? A.Furqat B.Fitrat C.Muqimiy D.Zavqiy

440. H.Olimjonning “Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham” misrasi bilan boshlanadigan g‘azali quyidagi qaysi badiiy unsur asosida yozilgan? A.irsoli masal B.tajohilu orif C.tadrij D.tanosib



ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

441. Hadisda aytilishicha, “kimki shubhali narsalardan tiyilmaydir, u ... A.birovning ekini chekkasida qo‘y boqayotgan cho‘ponga o‘xshaydi. B.omonatga xiyonat qilgaydir C.urishib qolsa, kek saqlagaydir D. nohaqlik qilgaydir

442. Hadisda aytilishicha, “Uchta xislatni o‘zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘ladi”. Ularning birinchisi insofli va adolatli bo‘lmoq, ikkinchisi barchaga salom bermoqlik, uchinchisi ... A. ochlarga taom bermoqlik. B. shartnoma tuzsa, shartiga turmoqlik C.kambag‘alligida ham sadaqa berib turmoq. D.so‘zlasa, yolg‘on so‘zlamaslik.

443. Hadisda aytilishicha, ilm nimaga o‘xshaydi? A.unumdor erga B. qurg‘oq erga C.yomg‘irga D.ko‘p yog‘gan yomg‘irga.

444. Hadisda aytilishicha, ilm o‘rganib, odamlarga ham o‘rgatgan, ammo o‘zi amal qilmaydigan kishi... A.musulmon emas. B.fosiq C.kofir D.do‘zaxiy.

445. Hadisda aytilishicha, mutakabbir, ilm o‘rganmaydigan, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydigan kishi... A.fosiq. B.kofir C.takabbur D.oriyatsiz.

446. Hadisda aytilishicha, Olloh ilmini teran o‘rgangan, teran tushungan, undan manfaatlangan va Olloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatgan kishi... A.musulmon. B.mo‘min C.olim D.orif

447. Hadisi sharifda nima oldin o‘tgan kishilarni halok qilgan, bir-birlarini qonini to‘kishga sabab bo‘lgan, qarindoshlikni uzib qo‘ygan? A.yolg‘onchilik B.zakot bermaslik C.baxillik D.so‘kinishlik

448. Hajviy yo‘nalishda bitilgan romanlarni aniqlang. A.“Yovuz niyatli kishi”, “Chiqdi”, “Qiyshiq oyna” B.“O‘n ikki stul”, “Oltin buzoqcha”, “Yelvizak” C.“O‘n ikki stul”, “Yovuz niyatli kishi”, “Yelvizak” D.“Chiqdi”, “Tanobchilar”, “Qiyshiq oyna”

449. Ham ustoz, ham tog‘a bo‘lmishning 2 o‘giti – “O‘zing bilmagan narsani yozma”, “boshqalar yurgan yo‘ldan yurma, o‘z yo‘lingni top”ga hamisha amal qilib ijod qilgan yozuvchi kim? A.T.Malik B.Z.A’lam C.SH.Xolmirzayev D.M.M.Do‘st

450. Haqiqat qalbda, qalb esa Ollohning mulki. Ushbu qarash qaysi ijodkorning butun ijodi misolida namoyon bo‘lgan? A.Navoiy B.Yassaviy S.Najmiddin Kubro D.Pahlavon Mahmud

451. Har bir bobda yoritilayotgan tushunchalar payg‘ambar hadislari, Arastu, Aflotun, Muhyiddin Arabiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy kabi allomalarning fikrlari bilan dalillangan. Gap qaysi asar to‘g‘risida? A.“Mahbub ul-qulub” B.“Miftoh ul-adl” C.“Zarbulmasal” D.“Turkiy guliston yoxud axloq”

452. Har yerda suluv barno bo‘lsa qiz bo‘lsa, oti bor; ba’zi-ba’zi juda nozik, uzik suluvning ham oti bor, ham surati bor. Parchada qo‘llangan uzik so‘zining ma’nosi nima? A.yetuk, kamchiliksiz B.asirga olingan C.uzuk D.sochpopukli

453. Har yerda suluv barno bo‘lsa qiz bo‘lsa, oti bor; ba’zi-ba’zi juda nozik, uzik suluvning ham oti bor, ham surati bor. “Ravshan” dostonidan olingan parchada gap nima to‘g‘risida bormoqda? A.Zulxumor haqida B.asirga olingan parilar haqida S.Og‘a Yunusning uzugi haqida D.Xon Dallining uzugi haqida

454. Haydar soqov, Shokir shilliq, Eson ko‘knori, Orif sarkor kabi o‘z laqabiga ega obrozlar kimning qaysi asarida uchraydi? A.A. Qodiriy “Uloqda” B.Oybek “Fanarchi ota” C.G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam” D.Oybek “Bolaning ko‘ngli poshsho”

455. Haynening “Onam fon Heldern B.Haynega” she’ri qaysi janrda yozilgan? A.sonet B.ballada C.oktava D.terset

456. Haynening qaysi asarlari yuksak badiiy kuchidan tashqari, ijtimoiy yo‘nalganligi bilan ham o‘quvchilar e’tiborini tortgan? A.“Sileziya to‘quvchilari”, “Qullar kemasi”, “Germaniya. Qish ertagi” B.“Qullar kemasi”, “Romansero”, “Atta Tirol” C.“Qullar kemasi”, “E’tirof”, “Fransuz ishlari” D.sanalganlarning barchasi to‘g‘ri

457. Haynening qaysi kitobida yosh shoir dunyoqarashining tushunarsiz, hayotning murakkab va odamlar orasidagi munosabatlarning chigalligi o‘ta ta’sirchan yo‘sinda tasvirlangan she’rlar kiritilgan? A.“Qo‘shiqlar kitobi” B.“Qullar kemasi” C.“Atta Tirol” D. “E’tirof”

458. Hayo va nomusning iymonga dalil ekani, hayosizning doimo xorligi, ma’rifat hosil qilishda uyalmaslik va maorifsiz kishining murda kabi ekani haqida kuyinib yozgan ma’rifatparvar shoir kim? A.Hamza B.So‘fizoda C.Avloniy D.Fitrat





ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

459. Hayvonlar timsoli vositasida tebsa tebranmas, yurt ravnaqi uchun biror narsa qilishga qodir bo‘lmagan millatdoshlar ayovsiz hajv qilingan asar nomini aniqlang. A.“Atta Tirol” B.“Zarbulmasal” C.“Tor ko‘ngullik beklar” D. sanalganlarning barchasi to‘g‘ri
460. Hijron azobini chekaverganidan yuzi sarg‘ayib ketib, hatto oltinning sariqligi ham uning oldida hech narsa bo‘lmay qolgani haqida yozgan shoir kim? A.Atoyi B.Lutfiy C.Sakkokiy D.Bobur
461. Hijron taxallusi bilan ijod qilgan shoir kim? A.So‘fizoda B.Avloniy C.P.Mahmud D.Abay Qo‘nonboyev
462. Hikmatlaridan birida och, bechora va yalang‘och qolsang ham nokasga muhtoj bo‘lma, deb maslahat bergan mashhur shoir qaysi javobda berilgan? A.Firdavsiy B.Sa’diy C.Abay D.Avloniy
463. Hikoyachilikda katta shuhrat topgan adiplar nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping. A.Gi de Mopassan, I.Bunin, A.Morua B.Krilov, Oybek, Dobrolyubov C.Shota Rustaveli, N.A.Nekrasov, H.K.Andersen D.T.G.Shevchenko, M.Lermontov, L.N.Tolstoy
464. Hikoya janrida yozilgan asarlarni aniqlang. 1.“Qon hidi” 2.“Bozor” 3.“Tilsim saltanati” 4.“Tobut shahar” 5.“Quyun” 6.“Ffu” 7.“Ming bir qiyofa” 8.“Qora kitob” 9.“Ayollar saltanati va mamlakati” 10.“Tepalikdagi xaroba” 11.“Ko‘zgu oldidagi odam” 12.“Maydon” 13.“Jaziramadagi odam” 14.“Shamolni tutib bo‘lmaydi” A.1, 2, 3, 6, 7, 9, 10, 11, 12, 14 B.4, 5, 14 C. faqat 8 D.barchasi hikoya janrida yozilgan
465. Hindiston fors she’riyati lochin urug‘idan bo‘lgan turkdan boshlanib, Oybek urug‘idan bo‘lgan turk bilan nihoyasiga yetgan... Ushbu fikrlar muallifi kim? A.M.G‘olib B.Dehlaviy S.Nayyar D.Bahodirshoh Zafar
466. Hissiyot jilvalari aks etgan she’riyat quyidagi qaysi tushuncha orqali ifodalanadi? A.meditativ nazm B.lirik nazm S.poetik nazm D.diriktev nazm.
467. Humoyun nima sababdan uch tarafi daryo bilan to‘silgan tepalikni qarorgoh qilib tanlaydi? (“Avlodlar dovoni”) A.Taqvodorlarning bashoratiga tayanib B.Yomg‘ir fasli boshlanmaganligi uchun S.Otasininng tajribasiga tayanib D.Uch tomoni daryolar bilan himoyalangani uchun
468. Huquqshunoslik sohasida diplom olgan bo‘lsa ham, bu sohada biror kun ham ishlamagan ijodkor nomini aniqlang. A.Hayne B.A.Muxtor S.CH.Aytmatov D.Shuhrat
469. Haddan ziyod donolik va harakatchanlik tufayli men xuddi qo‘riq joyda yonayotgan olov kabi edim. Endi nodon bo‘lib qoldim, agar cho‘ntagida vaqosi yo‘q odamning chaqqonligi susayib qolsa, buning ajablanadigan joyi yo‘q. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
470. Halollikka, o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash “Qisasi Rabg‘uziy”da berilgan qaysi payg‘ambar haqidagi hikoyaning asosiy g‘oyasi sanaladi? A.Dovud B.Nuh S.Ibrohim D.Sulaymon
471. Ham ichki, ham tashqi qofiyalangan, shuningdek, ham unli, ham undosh tovushlarning alliterasiyasiga asoslangan maqol qaysi javobda berilgan? A.Boy boyga boqar, suv soyga oqar B. Dehqon bo‘lsang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda S. Olim bo‘lsang, olam seniki D.to‘g‘ri javob berilmagan
472. Harfi raviy, qayd harfi, noira, ridf, ta’sis, daxil, vasl, xuruj, mazid. Sanab o‘tilganlarni birlashtirib turuvchi tushuncha qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? A.she’riya san’atlar B.ilmi qofiya S.ilmi aruz D.ilmi badoyi’
473. Hech qachon ezgulikka xiyonat qilmagan buyuk va qudratli inson, lekin o‘zi bilmagan holda kechirilmas jinoyat qilgan sho‘rlik odam. To‘g‘riso‘zligi, odamlarga ishonishi, tinimsiz ravishda haqiqatga intilishi uning fojiasini kuchaytiradi. Gap qaysi adabiy qahramon haqida? A.Hamlet B.Jaloliddin Manguberdi C.Otello D.Abulfayzxon
474. Ijtimoiy masalalar ilk bor ... yoritilgan. A.“Mahbubul qulub”da B.“Vaqfiya”da S.“Qutadg‘u bilig”da D.“Devonu lug‘atit turk”da
475. Ikki qo‘y bahosiga sotib olingan kitob qaysi asarda tilga olinadi? A.“Ulug‘bek xazinasi” B.“Navoiy” S.“Zulmat ichra nur” D.“Mehrobdan chayon”
476. Ikkita narsa bor, agar ko‘zlarim ular haqida qon to‘kib yig‘laganda, ularga halokatdan xabar qilingan bo‘lardi va ular yashashi kerak bo‘lgan vaqtning o‘ndan birini ham ko‘rmagan bo‘lardilar: biri





ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

yoshlikning o‘tib ketishi, ikkinchisi do‘stlardan judo bo‘lish. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

477. Ilgari aytganimdek, meni to‘rt milya naridagi poytaxtga olib borish uchun saroy otxonasidan, har birining bo‘yi yarim dyum keladigan eng katta otlardan bir yarim mingtasi kerak bo‘ldi. Ushbu parchada qaysi asar qahramoni tasvirlangan? A.”Kichkina Shahzoda” B.”Yovvoyi yo’rg’a” C.”Bulbul” D.”Gulliverning sayohatlari”

478. Ilgari baxshilarning iste’dodiga qaysi dostonni aytish darajasiga qarab baho berilgan? A.“Alpomish” B.“Ravshan” S.“Kuntug‘mish” D.“Malika Ayyor”

479. Ilon chaqqan arqondan qo‘rqar. O‘zbek maqolini yodga soluvchi ushbu qaysi millatning maqoli hisoblanadi? A.rus B.fransuz S.ispan D.ingliz

480. Imon yo‘q taqsirimda. Ushbu gap “Kecha va kunduz” romanida kim tomonidan kimga qarata aytilgan? A.Razzoq so‘fi tomonidan Eshonga B.Miryoqub tomonidan Akbaraliga S.Akbarali tomonidan Noyib to‘raga D.Tilmoch tomonidan domlaga

481. Inson taqdiri butun fojiaviy ko‘lami bilan aks ettirilgan bu drama adabiyotimizda muhim o‘rin tutadi. Qaysi asar haqida fikr yuritilgan? A.”Ayajonlarim” B.”Qora kamar” C.”Oltin devor” D.”Kelinlar qo‘zg‘oloni”

482. Insoniyatga og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralangan doston qaysi javobda berilgan? A.“Jangchi Tursun” B.“Nido” C.“Alvido, Gulsari” D.“Ruhlar isyoni”

483. Inson tomonidan totem va fetishga, masalan tushga ishonish mifologiyada qaysi atama bilan ifodalanadi? A.anima B.afsona S.mif. D.asotir

484. Inson tomonidan alohida e’tibor bilan qaralgan narsa, predmetlar tushunchasi mifologiyada nima deyilgan? A.totem B.fetish S.anima D.to‘g‘ri javob berilmagan

485. Insoniyatning hayotini tamomila o‘zgartirib yuborish da’vosi bilan chiqqan K.Marks bilan tanishgan va uning ommani baxtli qilishga doir yuqumli xomxayollari ta’siriga berilgan shoir kim? A.Hayne B.Pushkin C.Hodiy D.J.Vert

486. Insonning asosiy belgisi bo‘lgan o‘zlikdan ayirish cheksiz nafrat bilan tasvirlangan afsona qaysi asarda uchraydi? A.“Asrga tatigulik kun” B.“Jannat qidirganlar” C.“Mardlik afsonasi” D.“Iskandar Zulqarnayn”

487. Irlandiyaning poytaxti Dublinda tug‘ilgan, badavlat qarindoshlarining ba’zan ko‘rsatadigan yordamini hisobga olmaganda tirikchiligi nochor, tabiatan tirishqoq, ilmga tashna bu kishi o‘n to‘rt yoshida maktabni bitirgach, Dublin universitetining diniy bilimlar fakultetiga o‘qishga kiradi, uni bitirmay Angliyaga ketgan, bir necha yil Qirollikning sobiq ministri Vilyam Templning saroyida kotib bo‘lib ishlagan va bu kishining boy kutubxonasidan foydalanish ... dunyoqarashining kengayishida muhim omil bo‘lgan. Keyinchalik universitetni bitiradi, dissertatsiya yoqlab magistrlik unvonini qo‘lga kiritgan yozuvchi kim? A.J.Svift B.J.Rodari C.Vilyam Toms D.Maks Brod

488. Islom shoir Nazar o‘g‘li repertuaridagi eng yaxshi doston qaysi javobda berilgan? A.“Orzigul” B.“Sohibqiron” S.“Tohir va Zuhra” D.“Kuntug‘mish”

489. Islomiyat butun insoniyatdur. Insoniyat esa ... dan iboratdur. (Avloniy) Nuqtalar o‘rniga zarur so‘zni qo‘ying. A.ma’rifat B.ilm S.o‘qish va yozish D.yaxshi xulq

490. Italyanchadan tarjima qilinganda kitobcha degan ma’no anglatadigan so‘zni aniqlang. A.felyeton B.libretto C.inssenirovka D.monodrama

491. Italyanchadan tarjima qilinganda varaqa degan ma’no anglatadigan so‘zni aniqlang. A.felyeton B.libretto C.inssenirovka D.monodrama

492. Iyd axshomi nazorada ko‘rdi qoshing magar, Gardun etagi ichra yashurdi hilolni. Baytda qo‘llangan san’atni toping. A.mubolag‘a B.irsoli masal S.husni ta’lil D.tamsil

493. Ishq o‘zligingdan xalos bo‘lib, sevgiling sifatlari bilan yashamoqdir, degan inson kim? A.Faxriddin Roziy B.Mansur Xalloj S.Muhyiddin Arabiy D.Abdulqodir G‘ijduvoniy

494. Ichki qofiyaga ega bo‘lgan maqolni ko‘rsating. A.Ona yurting omon bo‘lsa, Rangi ro‘ying somon bo‘lmas B.Do‘st bo‘lsang, do‘stingning aybini tuzat S.Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, O‘z yurtingda gado bo‘l D.Bugungi ishni ertaga qo‘yma





ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

495. J.J.Russoning "Pigmalion" (1762) asari bilan asos solingan dramatik janrni aniqlang. A.intermediya B.libretto C.melodrama D.monodrama
496. J.Jabborov "Kitob javonim" she'rida o'zbek shoiri Furqatni kim bilan muloqotda tasavvur qiladi? A.Pushkin B.Bedil S.Bayron D.Hayne
497. Jahon adabiyotining Bayron, Shevchenko, Tagor, Hofiz Sheroziy, Ubayd Zakoniy kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan shoir… A. Musa Jalil B. J.Jabborov C. Ibroyim Yusupov D. Zulfiya
498. Jahon prozasining eng ilg'or tajribalari asosida sof milliy obrazlar yarata olgan "Qora kitob" qissasi, "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tobut shahar", "Quyun" hikoyalari muallifi kim? A.C.Vafo B.N.Eshonqul C.SH.Xolmirzayev D.X.Do'stmuhammad
499. Javoblar mosligini tekshiring. "Oq kema" asarida: 1.Shiroljin 2.Chaqirtikanak 3."bo'ri" 4."tank" 5."egar" 6."sevimli" 7."botir" 8."hurkak" 9."yovuz" 10."yaxshi" 11."yomon" 12."ovsar" 13."ayyor" a-o'simlik b-tosh A.1-a, 2-a, 6-a, 7-a, 8-a, 9-a; 3-b, 4-b, 5-b, 10-b, 11-b, 12-b, 13-b B. 1-b, 2-b, 6-b, 7-b, 8-b, 9-b; 3-a, 4-a, 5-a, 10-a, 11-a, 12-a, 13-a C. 1-a, 2-a, 3-a, 4-a, 5-a, 6-a; 7-b, 8-b, 9-b, 10-b, 11-b, 12-b, 13-b D. 1-b, 2-b, 3-b, 4-b, 5-b, 6-b; 7-a, 8-a, 9-a, 10-a, 11-a, 12-a, 13-a
500. Javoblardan aralash vaznda yozilgan she'r va uning muallifini aniqlang. A."Vatanim", R.Musurmon B."Munojot", U.Hamdam S."Vatan nadir?", S.Sayyid D. to'g'ri javob berilmagan.
501. Jo'n savdoni buzarchilar, Qalpoq bozori qaysidir. "Ravshan" dostonidan olingan ushbu parchadagi jo'n savdo deganda qanday savdo nazarda tutilgan? A.qalpoq savdosi B.to'g'ri savdo C.arzon savdo D.qimmat savdo
502. Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyattin anjumanda. SHe'riy san'atni aniqlang. A.iyhom B.irsoli masal S.husni ta'lil D.tamsil
503. Jamoa bo'lib, tor, doira jo'rligida kuylanadigan dostonchilik maktabi... A.Samarqand B.Xorazm S.Farg'ona D.Qashqadaryo-Surxondaryo
504. Jonsiz narsa va hodisaga xuddi jonliday, o'zi yo'q shaxsga xuddi borday murojaat qilinadigan stilistik vosita nomini aniqlang. A.anafora B.ellipsis C.apostrofa D.epifora
505. Karamzin qalamiga mansub asarni aniqlang. A."Yangi Eloiza" B."Bechora Liza" C."Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" D."Pamela"
506. Katta epik janrlarni toping. A.qissa, roman, epopeya B.qissa, epos, rivoyat S.doston, drama, roman D.epos, epik doston, roman, epopeya
507. Keldik yetib mohi rajab, har kim ko'rar aylar ajab. Na pors ko'rgan, na arab, bir jannati rizvon ekan. Zavqiy qalamiga mansub yuqoridagi satrlar qaysi janrga oid she'rdan keltirilgan? A.qit'a B.ruboiy C.murabba D.sayohatnoma
508. Kimki olmasa hayotdan ta'lim, Unga o'rgatolmas hech bir muallim. Ushbu bayt muallifi kim? A.Sa'diy B.Rumiy S.Rudakiy D.Navoiy
509. Kimki quyoshni jahl bilan bekitmoqchi bo'lsa, xato qiladi. Quyoshni choyshab bilan yopib bo'lmaydi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A."Tazkirat ul-avliyo" B."Nasoyim ul-muhabbat" S."Yatimat ud-dahr" D."Miftoh ul-adl"
510. Kimki qozar oqibat ul tushgusi, Kimki yoqar oxir o'shal pishgusi. Nishotiy qalamiga mansub ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan? A.irsoli du masal B.tajohilu orif C.tadrij D.tanosib
511. Kimki, jahon ahlida inson erur, Bilki nishoni anga iymon erur. "Hayrat ul-abror" dostonining nechanchi maqolatidan olingan? A.1 B.5. C.3 D.10
512. Kimlar "Meros" nomli asarlar yaratgan? A.G'.G'ulom, Oybek B.U.Nosir, A.Qahhor S.Mirtemir, O.SHarafiddinov D.SHayxzoda, P.Qodirov
513. Kimlar urush davriga bag'ishlab "Sog'inish" nomli she'r yozgan? A.Oybek, G'.G'ulom B.G'.G'ulom, Mirtemir S.A.Muxtor, G'.G'ulom D.Oybek, A.Muxtor
514. Kimning ijodida «Tugilgan musht kabi Ko'kka o'qtalib, Barg yozmoq payida Kallaklangan tut», «Kanal yoqasida shovullar mag'rur, Osmonga sanchilgan mirzateraklar», «Tomlarda «lov» etdi lolaqizg'aldoq», «G'azabdan g'ijirlar yo'llarning toshi», «Alamimni jarliklarga solgandim to'kib, Jarlik battar cho'kib ketdi, yana ham cho'kib», «She'r yaraldi dunyoda ilk bor, Ilk bor ohang shaklga kirdi»

ADABIYOT BAZA 2019 1-QISM

tarzidagi kutilmagan tashbehlar, yorqin timsollar ko‘plab uchraydi. A.Usmon Azim B.A.Oripov C.Muhammad Ali D.Mirtemir.

515. Kimning timsoli Sharqda insonning ruhiy hurligini cheklashga qaratilgan aqidalarga qarshi isyon, erkin fikrlilik ramzi bo’lib qolgan? A.Mashrab B.Mansur Xalloj C.Ibrohim Adham D.Nasimiy

516. Kimning uyida taomi bo‘lmasa, uning odamlar orasida hurmati bo‘lmaydi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

517. Kul tegin bitigtoshida qayd etilgan Yashil o‘g‘uz nomi hozirgi qaysi daryoning nomi sanaladi? A.O‘rxun B.Xuanxe C.Enasoy D.Amudaryo

518. Kun hamalg‘a kirdi ersa, keldi olam navro‘zi, Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori buzi. Ushbu baytda qanday she’riya san’at ohangdoshlik va musiqiylikni yuzaga keltirgan? A.tashbeh B.irsoli masal C.alliteratsiya D.husni ta’lil

519. Kuygan mushuk sovuq suvdan qo‘rqar. O‘zbek maqolini yodga soluvchi ushbu qaysi millatning maqoli hisoblanadi? A.rus B.fransuz S.ispan D.ingliz

520. Ko‘ngul shakar bikin og‘zing ko‘rub adam bo‘ldi, Aytilmading bir og‘iz: ey faqiri hech kora. Baytda qo‘llangan san’atni toping. A.mubolag‘a B.irsoli masal S.husni ta’lil D.tashbih.

521. Ko‘proq holat kulgusi qaysi asarda mavjud? A.“Revizor” B.“Temir xotin” S.“Qoplon” D.“Kelinlar qo‘zg‘oloni”

522. Ko‘z birla qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi, Yuz birla so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi, Eng birla menging yaxshi, saqoqing yaxshi, Bir-bir ne deyin boshtin-ayoqing yaxshi. Navoiy qalamiga mansub ushbu ruboiyda qaysi she’riy san’atning mukammal namunasi yaratilgan? A.tashbeh B.tazod C.tadrij D.tanosib

523. ko‘zdan ichkarida yo‘l yo‘q so‘zdan ichkarida yo‘l yo‘q ammo xo‘roz qichqirig‘i ortida shafaqrang qishlog‘im bekinib olgan. Tinish belgi va bosh harflarsiz yozilgan ushbu satrlar muallifi kim? A.Faxriyor B.B.Ro‘zimuhammad C.R.Parfi. D.E.Samandar

524. Ko‘zum yoshig‘a nazar qil, ko‘ngul bo‘lur ravshan, Ey sarvinoz, oqar suvg‘a qilsa nazzora. Tashbehning o‘ta mubolag‘ali turi va irsoli masal san’ati mohirlik bilan qo‘llangan ushbu bayt muallifi kim? A.Atoiy B.Gadoiy S.Sakkokiy D.Lutfiy

525. Kayumarsning odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda ... vujudga keladi. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying. A.tuproq B.metall S.o‘simlik D.hayvon

526. Kezib sahroyu vodiylar yetishsam bir visolingga, Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli uvol bo‘lsam. H.Olimjon qalamiga mansub ushbu baytda tadrij bilan birga yana qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.tashbeh B.tazod S.tasdir D.tanosib

527. Kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o‘zida kuch topa oladigan qahramon nomini aniqlang. A.Nayman ona B.Bo‘ronli Edigey S.Kazangap D.Sobitjon

528. Kechaning eng yaxshi sifati shuki, kecha homilador, ammo nima tug‘ishni bilmaydi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

529. Lafziyu ma’naviy san’atlar guruhiga kirmaydigan san’at qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? A.tanosib B.tajnis C.istiora D.laf va nashr

530. La’natlar bu yurtga, yolg‘on vatanga, unda baxt ko‘radi tubanlik, xo‘rlik. Haynening vatanda turib, vatansiz yurgan xalq sezimlari boricha ko‘rsatilgan ushbu misralar manbasini toping. A.“Sileziya to‘quvchilari” B.“Germaniya. Qish ertagi” C.“Qullar kemasi” D. “Fransuz ishlari”

531. Lirikaning katta janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.g‘azal 2.marsiya 3.sonet 4.tarjiband 5.tarkibband 6.tuyuq 7.ruboiy 8.to‘rtlik 9.fard 10.musallas A.1, 2, 3 B.4, 5 C.6, 7, 8, 9, 10 D.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

532. Lirikaning kichik janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.g‘azal 2.marsiya 3.sonet 4.tarjiband 5.tarkibband 6.tuyuq 7.ruboiy 8.to‘rtlik 9.fard 10.musallas A.1, 2, 3 B.4, 5 C.6, 7, 8, 9, 10 D.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

533. Lirikaning o'rtacha janrlari qatorida sanaladigan janrlarni aniqlang. 1.g'azal 2.marsiya 3.sonet 4.tarjiband 5.tarkibband 6.tuyuq 7.ruboiy 8.to'rtlik 9.fard 10.musallas A.1, 2, 3 B.4, 5 C.6, 7, 8, 9, 10 D.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

534. Lotinchadan tarjima qilinganda sahnalashtirish degan ma'no anglatadigan so'zni aniqlang. A.intermediya B.libretto C.inssenirovka D.monodrama

535. Lutfiy qalamiga mansub "Ey ko'ngul, jonni xayoli olida qil peshkash, Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sori" baytida qanday she'riy san'at qo'llangan? A.tashbeh B.tazod C.tadrij D.tamsil

536. Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdin qon ravon qildi, Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor. Ushbu misralar qaysi javobdagi ta'rifga mos tushadi? A.bir misrada 2 so'zni ohangdosh bo'lib kelishi. B.2 so'zning misra oxirida ohangdosh bo'lib kelishi S.2 so'z misraning turli o'rinlarida ohangdosh bo'lib kelishi D.ohangdoshlik faqatgina misralar oxiridagi so'zlardagina bo'lmay, misra ichidagi so'zlarda ham uchrashi

537. M.Jalilning "Ishonma" she'ri qaysi to'plamiga kiritilgan? A."Maobit daftari" B."Xat tashuvchi" C."Kechir yurtim!" D."Okopdan xatlar"

538. M.Jalilning "Maobit daftari" to'plamini kim ona tilimizga tarjima qilgan? A.Mamarasul Boboyev B.Mirtemir C.M.Shayxzoda D.J.Kamol

539. M.Jalilning dastlabki to'plamni qanday nomlanadi? A."O'rtoqlar" B."Ordenli millionerlar" C."Biz boramiz" D."Ishonma"

540. M.Jalilning Jiganov bilan hamkorlikda yaratgan operasini aniqlang. A."Oltin soch" B."Okopdan xatlar" C."Biz boramiz" D."Xat tashuvchi"

541. M.Osimning "Aljabrning tug'ilishi" asari al-Xorazmiy tavalludining ... yilligiga bag'ishlangan. A.1000 B.1100 C.1200 D.900

542. M.Osimning "To'maris" hikoyasidagi voqealar sodir bo'lganiga qancha yil bo'lgan? A.2700 yil B.3000 yil C. 2500 yil D.2000 yil.

543. M.Osimning 1219-1221 yil voqealariga bag'ishlangan qissalarini aniqlang. 1."Zulmat ichra nur" 2."Jayhun ustida bulutlar" 3."O'tror" 4."Temur Malik" 5."Jaloliddin Manguberdi" A. 1, 2, 3 B. 3, 4 C. 3, 4, 5 D. faqat 4.

544. M.Osimning Amerika qit'asini bashorat qilgan, zamonasining barcha fanlarini egallagan zamondoshimiz haqidagi qissasi... A."Jayhun ustida bulutlar" B."Zulmat ichra nur" C."Singan setor" D."Abu Rayhon Beruniy"

545. M.Osimning maishiy mavzularda yozilgan asarlarini belgilang. 1."Mohlaroyim va Xonposhsha" 2."Ibn Sino qissasi" 3."O'tror" 4."Zulmat ichra nur" 5."To'maris" 6."Elchilar" 7."Temur Malik" 8."Jayhun ustida bulutlar" 9."Karvon qo'ng'irog'i" 10."Aleksandr va Spitamen" 11."Singan setor" 12."Aljabrning tug'ilishi" A.3, 5, 7, 10 B.1, 6, 9 C. 2, 4, 8, 11, 12 D. 1, 4, 8, 9

546. M.Osimning qahramonlik mavzusida yozilgan asarlarini belgilang. 1."Mohlaroyim va Xonposhsha" 2."Ibn Sino qissasi" 3."O'tror" 4."Zulmat ichra nur" 5."To'maris" 6."Elchilar" 7."Temur Malik" 8."Jayhun ustida bulutlar" 9."Karvon qo'ng'irog'i" 10."Aleksandr va Spitamen" 11."Singan setor" 12."Aljabrning tug'ilishi" A.3, 5, 7, 10 B.1, 6, 9 C.2, 4, 8, 11, 12 D.2, 3, 6, 7

547. M.Osimning tarix va badiiy ijodga qiziqishida qaysi taraqqiyparvar kishinining ta'siri katta bo'lgan? A.Munavvarqori B.Oybek C.Cho'lpon D.Behbudiy

548. M.Osimning tarjimayi hol tarixiy asarlarining namunalari hisoblangan asarlarini belgilang. 1."Mohlaroyim va Xonposhsha" 2."Ibn Sino qissasi" 3."O'tror" 4."Zulmat ichra nur" 5."To'maris" 6."Elchilar" 7."Temur Malik" 8."Jayhun ustida bulutlar" 9."Karvon qo'ng'irog'i" 10."Aleksandr va Spitamen" 11."Singan setor" 12."Aljabrning tug'ilishi" A.3, 5, 7, 10 B.1, 6, 9 C.2, 4, 8, 11, 12 D.3, 10, 11, 12

549. M.Yusuf "Biz baxtli bo'lamiz" she'rida tundan nimani qarz olib, tongda yoriga tutajagi haqida yozadi? A.yulduzni B.oyni C.osmon yoritgichlarini D.so'zni

550. M.Yusufning "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'rida "aybini bilmay ketgan" kishilar kim? A.Cho'lpon va U.Nosir B.U.Nosir va A.Fitrat. C.A.Ikromov va A.Qodiriy D.A.Ikromov va F.Xo'jaev

551. M.Yusufning "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'rida "jayrondek termulgan" kishi kim? A.Cho'lpon B.U.Nosir C.A.Ikromov D.F.Xo'jaev

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

552. M.Yusufning "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'rida "ko'zini qayinbarglar yopgan" kishi kim? A.Cho'lpon B.U.Nosir C.A.Ikromov D.F.Xo'jaev
553. M.Yusufning qaysi she'rida "ilon chaqadi, lekin yolg'on gapirmaydi" degan hikmat mavjud? A."Surat" B."Madina" C."Biz baxtli bo'lamiz" D."Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor"
554. M.Yusufning qaysi she'rini "Surat" she'rining mantiqiy davomi deyish mumkin? A. "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" B."Madina" C."Biz baxtli bo'lamiz" D.Osmon cho'kib qoldi bu oqshom"
555. M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi, Sofoklning "Shoh Edip", V.Shekspirning "Otello", "Gamlet", "Qirol Lir", "Romeo va Julyetta" kabi asarlarining tarjimalari janrini aniqlang A.oq she'r B.erkin (sarbast) she'r C.nasriy she'r D.aruz
556. Maktab darsligida berilgan topishmoq ertakda qo'llangan ko'moch so'zining ma'nosi nima? A.orqasida ko'zi yo'q narsa. B.issiq kulga ko'mib pishiriladigan non. C.tok bargi D.oshqovoqning palagi.
557. Maktab darsligida berilgan topishmoq ertakdagi topishmoq aytgan malikaning ismi nima? A.Sohibjamol B.nomi aytilmagan C.Kunsuluv D.Axlantoz
558. Maktab darsligida berilgan topishmoq ertakdagi topishmoq javoblarini topgan yigit podosh tomonidan o'ziga kuyov qilib olinadi. Unga yana qanday mansab beriladi? A.bosh vazir B.o'ng qo'l vazir C.chap qo'l vazir D.bosh sarkarda
559. Maktab darsligida berilgan g'ozlar haqidagi topishmoqda g'ozlar miqdori aslida nechta bo'lgan? A.72 ta B.9 ta C.18 ta D.36 ta
560. Maktab xususida "oftobi jahon saodating", "osmoni zamon sabovating", "joyi dilkash shirin maqomdur", "behisht-u jannat" sifatlarini qo'llagan shoir kim? A.Hamza B.So'fizoda C.Avloniy D.Fitrat
561. Maktab xususida "oftobi jahon saodating", "osmoni zamon *sabovat*ing", "joyi dilkash shirin maqomdur", "behisht-u jannat" sifatlashlardagi ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosini aniqlang? A.hozirgi, o'tmishdagi B.taqdirdagi, balanddagi C.yoshlik, navqironlik D.baland, ko'm-kok
562. Massagetlar qabilasi qaysi dengiz sharqidagi tekisliklarda yashagan? A.Orol B.Kaspiy C.Qora D.to'g'ri javob berilmagan.
563. May ta'rifidagi g'azallar adabiyotda qanday ataladi? A.oshiqona B.orifona S.rindona D.voqeaband
564. Ma'lumki, Yassaviyning qancha umr ko'rgani munozarali. Javoblardan taxminlar va ularning mualliflari mosligini aniqlang. A.120 yil, Ko'pruluzoda; 125 yil, Gordlevskiy B. 125 yil, Ko'pruluzoda; 120 yil, Gordlevskiy S. 120 yil, Fitrat; 125 yil, Gordlevskiy, Ko'prulizoda D. 120 yil, Ko'pruluzoda, Gordlevskiy; 125 yil, Fitrat
565. Ma'lumotlarga qaraganda, al-Buxoriyga qadar nechta olim hadis ilmi bilan shug'ullangan? A.5 B.10 C.15 D.25
566. Ma'nosi "so'zdan so'zni ajratmoq" bo'lgan badiiy san'at qaysi? A. tazod B. mubolag'a C. tajnis D. ishtiqoq
567. Ma'rifat targ'ibotini o'zida namoyon etgan, aslida o'quv adabiyoti va darsliklar hisoblangan, lekin badiiy asar xarakteridagi bir qator kitoblar yaratgan millatparvar nomini aniqlang. A.Botu B.So'fizoda C.Avloniy D.Cho'lpon
568. Ma'siyatdan yig'iling, xalq orasida ko'ni hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to'kmang, xiyonat qilmang. Ushbu eslatma manbaini aniqlang. A."Qisasi Rabg'uziy" B."Miftoh ul-adl" C."Guliston" D."Hibat ul-haqoyiq"
569. Men kimman? G'amingga g'amdosh bo'lmasam, Og'rimasam yorug' qiynoqlaringdan? Boshiga osmonni ko'targan tog'dek, O'sib chiqolmasam tuprog'laringdan? Z.Mirzo she'ridan olingan ushbu baytda shoir kimga yoki nimaga qarata murojaat qilmoqda? A.onaga B.muhabbatga C.vatanga D.xalqqa
570. Men ko'p yo'llar yurdim, Ko'p narsani ko'rdim, Goh sog'inib, Goho Shodlikdan jo'shib; Qanoti chiqqan qushday Uyasiga sig'may, Yuragida talpinar qo'shiq. She'r muallifi kim? A.A.Muxtor B.Shuhrat C.C.Zunnunova D.SH.Rahmon
571. Men mast bo'lib qoldim bir kecha, Sil o'pkamni ancha yayratdim. Uxlamasdan to tong otguncha, Dilginamni rosa sayratdim. Misralar muallifini aniqlang. A.Mirtemir B.X.Davron C.Oybek D.U.Nosir



ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

572. Men O‘rmon akani hozir qitmir, suqatoy qilib ta’riflayotganga o‘xshayman. “O‘zbeklar” hikoyasidan olingan ushbu parchadagi suqatoy so‘zining ma’nosi nima? A.suq, uyatsiz B.ochko‘z, nazari past C.quv, shum D.yolg‘onchi, ayyor
573. Men O‘rmon akani hozir qitmir, suqatoy qilib ta’riflayotganga o‘xshayman. “O‘zbeklar” hikoyasidan olingan ushbu parchadagi qitmir so‘zining ma’nosi nima? A.suq, uyatsiz B.ochko‘z, nazari past C.quv, shum D.yolg‘onchi, ayyor
574. Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganiga befarq qarab tura olmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi, deb iztirobga tushgan ijodkor kim? A.J.Rodari B.Tohir Malik C.Tompson D.Thokur.
575. Mifologik dunyoqarashga ko‘ra, quyidagi holatlarni yaxshi va yomon tushunchalarga ajrating. 1.Yo‘lovchi uzoqdan bo‘rini ko‘rsa 2.Yo‘lovchi uzoqdan tulkini ko‘rsa 3.Safarga chiqqan odam yo‘lda oq tuyasi bor karvonni uchratsa 4.Tushida bashang kiyinib, egarlangan oq otda chavandozlik qilsa 5.Ukki sayragan xonadon 6.Xonadonda qaldirg‘och in qo‘ygan bo‘lsa 7.Qaldirg‘och inini buzsa A.barchasi yaxshi B.1, 3, 4, 6 – yaxshi, 2, 5, 7 – yomon S. 1, 2, 3, 4, 5, 6 – yaxshi, 7 – yomon D.1, 2, 4, 5, 7 – yomon 3, 6 – yaxshi
576. Millat “tanasidan qon oldirgan bemor”, deb yozgan ijodkor kim? A.Hamza B.Fitrat C.Avloniy D.Cho‘lpon
577. Milliy istiqlol tamoyillari o‘ziga xos yo‘sinda nazm qilingan she’r qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? A.”Aytgil, do‘stim” B.”Vatan nadir”. C.”Egasi bor yurt” D.barcha javob to‘g‘ri.
578. Mirkarim Osimning “To‘maris” va Shuhratning “Mardlik afsonasi” asarlaridagi o‘xshash va farqli xususiyatlarni aniqlang. 1.“Tomaris” afsonasida voqealar muallif tomonidan xolis tasvirlangan. 2.“Mardlik afsonasi”da voqealar muallif tomonidan xolis tasvirlangan. 3.“Tomaris” afsonasida muallif voqealarga aralashadi, qahramonlarning xatti-harakatiga munosabat bildiradi. 4.“Mardlik afsonasi” afsonasida muallif voqealarga aralashadi, qahramonlarning xatti-harakatiga munosabat bildiradi. 5.“Mardlik afsonasi” muallifi To‘maris va uning qavmiga muhabbatini, Kayxusrav va uning bosqinchi qo‘shinlariga nafratini ochiq bayon etadi. 6.“To‘maris” muallifi To‘maris va uning qavmiga muhabbatini, Kayxusrav va uning bosqinchi qo‘shinlariga nafratini ochiq bayon etadi. A.1, 2, 3, 4 B.1, 4, 5 C.2, 4, 5 D.2, 4, 6
579. Mirtemir ijodida nima kelinlar taqinchog‘iga, uzuk ko‘zlariga, ko‘zmunchoqqa, qizlarning suzilib turgan ko‘zlariga qiyos etiladi? A.bulut B.ko‘kat C.baliq D.shudring
580. Mirtemir qaysi she’rida Yusuf xos Hojib obroz darajasida ishlatgan “qut” so‘zini “baraka” obrozi darajasiga ko‘targan? A.“Bulut” B.“Bahor” C.“Kipriklarim” D.“Shudring”
581. Misralar oxiridagi 2 tadan so‘zning o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi nima deb yuritiladi? A.mutakarrin qofiya B.zebqofiya S.mahjub qofiya D.qofiyatayn
582. Mol-davlat uchun qanday hashamatli sulton bo‘lsa ham unga madh-u sano aytmayman, deb yozgan shoir nomini ko‘rsating. A.Gulxaniy B.Turdi Farog‘iy C.Dilshodi Barno D.Xorazmiy
583. Muallifi tomonidan “Misr qandi” deb ta’riflangan asar qaysi javobda berilgan? A.“Gul va Navro‘z” B.“Suhayl va Guldursun” C.“Muhabbatnoma” D.“Zarbulmasal”
584. Muallifi uchun “jonu jahon”dek aziz bo‘lgan asar qaysi javobda berilgan? A.“Asrga tatigulik kun” B.“Jannat qidirganlar” C.“Oltin zanglamas” D.“Ko‘zgu oldidagi odam”
585. Muallifining eslatishicha, qaysi qashqarcha til bilan yozilgan? A.“Yatimat ud-dahr” B.“Qutadg‘u bilig” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Devonu lug‘atit turk”
586. Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsan muhabbat ixtiyor et. Bayt muallifi kim? A.Navoiy B.Bobur S.Nodira D.Uvaysiy
587. Muhammad Yusufning bir she’rida “Shoir shunday ko‘pki, ularga yer tor, Hammasi mashhur va hammasi nomdor” degan misralarni bitgan. Ushbu misralar so‘ngida shoir kim, nima yoki qaerga murojaat qiladi? A.onasiga B.Vataniga C.qog‘ozga D.qiziga
588. Mumtoz adabiyotda aqlga sig‘maydigan darajadagi mubolag‘a nima deb ataladi? A.bulug‘ B.ifrot C.g‘ulu D.g‘ulu yoki ifrot

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

589. Mumtoz adabiyotimizda “Baytul hazan” (g‘am uyi) sifatida nima tilga olinadi? A.Ya’qubning ayriliqdagi hayoti B.Yusufning zindonda yotgan davri S.Farhodning Shirindan ayrilgan davri D.Majnunning hayoti
590. Mumtoz adabiyotimizning hajvchi shoirlarini aniqlang. A.Navoiy, Bobur, Zavqiy, Maxmur B.Navoiy, Muqimiy, Maxmur, Maxmud C.Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Zavqiy D.Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy
591. Mumtoz she’riyatda ko‘p qo‘llanadigan shisha, kosa, ko‘za, ayog‘ kabi timsollar zamirida aksariyat hollarda qanday tushuncha yashiringan bo‘ladi? A.ko‘ngil B.mehr S.yor D.vafo
592. Mumtoz she’riyatda ma’shuqaning nimasi oshiqni musulmonlik yo‘lidan nomusulmonchilik tomonga ozdiruvchi deb tasvirlanadi? A.qoshi B.labi C.ko‘zi D.kiprigi
593. Munofiq so‘zining ma’nosi nima? A.yolg‘onchi B.ikkiyuzlamachi C.va’daboz D. kek saqlovchi.
594. Muqayyad qofiya asosida yozilgan baytni belgilang. A.Bu kun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim, Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronomni sog‘indim B.Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi, Vujudin sham’i so‘zon aylamakni mendin o‘rgandi C.Ul nadurkim, sabz to‘nlik, yoz yog‘ochning boshida, Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida D.Barcha javob to‘g‘ri
595. Musiqa asbobisiz, ohangga solib kuylanadigan dostonchilik maktabi... A.Samarqand B.Xorazm S.Farg‘ona D.Qashqadaryo-Surxondaryo
596. Madaniyat xodimlarining 1927-yilning oktyabrida bo‘lib o‘tgan II qurultoyida kim tomonidan Cho‘lponning ijodi “... g‘oyaviy tuturuqsiz” ekani ta’kidlanadi? A.Munavvarqori B.F.Xo‘jaev S.A.Ikromov D.U.Xo‘jaev
597. Manga ne yor-u ne oshiq havasdur, Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur. Mazkur bayt qaysi qahramon tilidan aytilgan? A.Farhod B.Shirin S.Majnun D.Layli
598. Maqollar orasidan ingliz xalq maqollarini aniqlang. 1.Bigizni qopda yashirib bo‘lmas. 2.Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. 3.Boy boyga boqar, suv soyga oqar. 4.Jo‘jani tuxum ochilgandan so‘ng sana. 5.Jo‘jani kuzda sanaymiz. 6.Ilon chaqqan arqondan qo‘rqar. 7.Qo‘rqanga arqon ilon bo‘lib ko‘rinar. 8.Kim tutunni qo‘zg‘otsa, o‘ziga tutaydi. 9.Kuygan mushuk sovuq suvdan qo‘rqar. 10.Sutdan kuygan qatiqni puflab ichar. A.barchasi ingliz xalq maqoli B.4, 6 S.1, 3, 5, 7 D.1, 4, 6, 9
599. Mazmunida bir tomondan vafodorlikka chaqirish, ikkinchi tomondan odamlar, oilalar, mamlakatlar o‘rtasidagi nizolarning muzokara yuritish yo‘li bilan hal etilishi uqtirilgan xalq maqolini toping. A.Tulki o‘z uyasiga qarab hursa, qo‘tir bo‘ladi. B.SHoshqaloq pashsha sutga tushadi S.O‘zgalar yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z elingda cho‘pon bo‘l. D.Til bilan bog‘langan, tish bilan ochilmas
600. Ma’lumki, afsona M.Koshg‘ariyning “DLT” asarida sav deb atalgan. Asarda savning bir necha izohi keltirilgan. Quyidagilardan savning izohi noto‘g‘ri berilgan javobni aniqlang. 1.otalar so‘zi 2.qissa (ya’ni, qadimgi voqealardan xabar berish) 3.hikoya (ya’ni, biror voqeani aytib berish). 4.risola, xat, kichik kitobcha 5.so‘z, nutq. 6.ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi. A.barcha javob savning izohi sanaladi B.2, 3, 4 S. 1, 5, 6 D.Berilganlarning hech biri savning izohi emas
601. men qanday yashashim lozim qanday bo‘lsam sizga yoqaman qaysi usulda yozsam she’rlarimni o‘qiysiz aruzdami barmoqdami sarbastdami yo. Tinish belgi va bosh harflarsiz yozilgan ushbu satrlar muallifi kim? A.Faxriyor B.B.Ro‘zimuhammad C.R.Parfi. D.E.Samandar
602. Men o‘ldirdim sizni, oyijon, men o‘ldirdim, men, men, men! Ushbu iqror manbasini aniqlang. A.“Ufq” (Tursunboy) B.“Chinor” (Akbarali) S.“Mirzo Ulug‘bek” (Ulug‘bek) D.“Urushning so‘nggi qurboni” (SHoikrom)
603. N.Kubro laqablaridan biri “Abuljannob” qanday ma’no anglatadi? A.parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi B.valiylar etishtiruvchi C.balo-qazolarni oldini oluvchi, buyuk bashoratchi D.o‘z zamonasi ilm-u irfonida unga hech bir olim teng kela olmaydi
604. N.Kubro laqablaridan biri “Tummatul kubro” qanday ma’no anglatadi? A.parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi B.valiylar etishtiruvchi. C.balo-qazolarni oldini oluvchi, buyuk bashoratchi. D. o‘z zamonasi ilm-u irfonida unga hech bir olim teng kela olmaydi
605. N.Kubro laqablaridan biri “Valiytarosh” qanday ma’no anglatadi? A.parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi. B.valiylar yetishtiruvchi. C.balo-qazolarni oldini oluvchi, buyuk bashoratchi. D. o‘z zamonasi ilm-u irfonida unga hech bir olim teng kela olmaydi.

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

606. N.Kubro ruboiylarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan shoir kim? A.J.Jabborov B.Mirtemir C.Jamol Kamol D.Mirmuhsin
607. Nasriy va she’riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to‘qiladigan janr turini aniqlang. A.maqol B.rivoyat. C.topishmoq D.afsona.
608. Navoiy Adib Ahmad to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, uning 2 ta baytini misol qilib keltiradi. Ushbu baytlarning biri “Hibatul haqoyiq”ning mavjud nusxalarida yo‘q. Ana shu bayt qaysi javobda berilgan? A.Ochun kulchirar boz alin qosh chetar, Bir ilkin tutib shahd, biri zahr qotar B.So‘ngakka iliktur, eranga – bilik, Biliksiz eran – ul so‘ngaksiz ilik S.Tilingni tiy, tishing sinmasin D.Ulug‘lar ne bersa yemasmen dema, Ilik sun, og‘iz ur, yemasang yema
609. Navoiy hukmdorga 2 narsani maslahat tariqasida shart qilib qo‘ygan. 1-Haq taolo amriga to‘la itoatda bo‘lib, buyurgan ishlarini so‘zsiz bajarish; 2-Tangri man etgan ishlarni qilmaslik. Ya’ni, odamlar ustidan hukm yuritish baxtiga muyassar bo‘lgan kishi uchun Alloh amriga itoat etishda adolatga teng keladigani yo‘q. Man etilgan ishlardan tiyilishning hech biri esa “chog‘ir tarkicha bo‘lmas”. Ushbu o‘git shoirning qaysi asarida keltirilgan? A.“Hayrat ul-abror” B.“Munshaot” C.“Sab’ayi sayyor” D.“Mahbub ul-qulub”
610. Navoiy qalamiga mansub “Shoh G‘oziy” hikoyatida kampir nima uchun o‘z da’vosidan kechib, uzr so‘raydi? A.katta boylik olgani uchun B.shoh adolatiga iqror bo‘lib S.qo‘rqqani uchun D.yanglishganini bilib
611. Navoiy qaysi asarida o‘z oldiga o‘ziga xos “Xamsa” yaratish vazifasini qo‘yib, shunday asar (nazm) – doston yozginki, o‘ziga xos (tarhi tozA. bo‘lsin, o‘qigan odamlarga (ulusqA. yangi, boshqa asarlarga o‘xshamas (beandozA.ligi sezilib tursin, deb yozadi? A.“Farhod va Shirin” B.“Hayrat ul-abror” C.“Layli va Majnun” D.“Sab’ai sayyor”
612. Navoiy qaysi g‘azalida g‘azallardagi an’anaviy juft misralardagi qofiyadan tashqari toq misralarida ham ichki ohangdoshlikni to‘la saqlashga uringan? A.“Jong‘a chun dermen” B.“Deyin” C.“Yordin ayru ko‘ngil” D.“O‘n sakiz ming olam”
613. Navoiy qaysi shoirni turkiylarning “mashohiri” deb tilga olgan? A.Lutfiy B.Atoyi C.Gadoiy D.Sakkokiy
614. Navoiy o‘zining “Xamsa” yozishi sabablarini qaysi dostonda izohlagan? A.“Farhod va Shirin” B.“Hayrat ul-abror” C.“Layli va Majnun” D.“Sab’ai sayyor”
615. Navoiy she’ri to‘qquz bayt-u o‘n bir bayt, o‘n uch bayt, Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin. Bukim albatta yetti baytdin o‘ksuk emas, ya’ni Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin. Navoiy qalamiga mansub ushbu misralar janrini aniqlang. A.g‘azal B.ruboiy S.qit’a D.muxammas
616. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida Qays necha yoshida tahsil uchun maktabga boradi? A. 7 yoshida B. 6 yoshida C.4 yarim yoshida D.8 yoshida
617. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida Qaysning go‘dakligidan bir lahza ham ajralmagan hamrohlari...? A.qo‘shnisining 2 o‘g‘li B.shodlik va quvonch C.dard va g‘am D.amakisning qizlari
618. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida tug‘ilgan o‘g‘liga otasi Qays deb ism qo‘yadi. Aslida bu ism...? A.zamonasi mashhur shoirining ismi edi B.mashhur shayxlardan birining ismi edi C.Qays bobosining ismi edi D.hech kimning ismi bo‘lmay, birinchi marta Qays (Majnun)ga qo‘yilgan edi.
619. Navoiyning “Xazoyinul maoniy” kulliyotida jami nechta qasida mavjud? A.2 B.4 C.1 D.9
620. Navoiyning faqat maktublardan tashkil topgan, epistolyar nasr namunasi bo‘lgan asarni ko‘rsating. A.“Sab’ati abhur” B.“Mufradot” S.“Majolisun nafois” D.“Munshaot”
621. Navoiyning qaysi g‘azalida raddul matla’ san’ati qo‘llangan? A.“Jong‘a chun dermen” B.“Deyin” C.“Yordin ayru ko‘ngil” D.“O‘n sakiz ming olam”
622. Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo, Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo. Baytda qo‘llangan badiiy san’atni aniqlang. A.muvozina B.mulamma’ S.tanosub D.intoq
623. Nima “Oq kema” asarida hech qachon yo‘qotib bo‘lmaydigan ezgulik, yaxshilik, olijanoblik, mehr-oqibat ramzi hisoblanadi? A.durbin B.baliq C.bug‘u D.oq kema

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

624. Nima uchun Sharqda she'riyat G'arbga nisbatan ravnaq topib, xalq orasida katta mavqe egallagan? A.She'rda pand-nasihat ruhining ustunligi uchun B.Sharq xalqlari so'z boyligining G'arbga nisbatan kengligi uchun S.G'arbda she'riyatning nisbatan keyinroq vujudga kelgani uchun D.Bu nisbiy fikr, aslida unday emas
625. Nodira ismli qizaloq qaysi asarning bosh qahramoni? A."Qaldirg'ochlar bahorda keladi" B."Mening o'g'rigina bolam" C."Uloqda" D."Qizimga maktublar"
626. Nodira g'azallaridan birida nimani "aziz elni xor qiladi" degan xulosaga kelgan? A.muhabbatni B.rashkni C.ehtiyojni D.hijronni
627. Nokas tabiati ilonniki kabidir. Ilonni har qancha tarbiya qilsang ham oxir ishi zahrini sochishdir. Sen nokasni yuzini ham ko'rmaslikka harakat qil. Ushbu mazmundagi ruboiy muallifini toping. A.Umar Xayyom B.Pahlavon Mahmud C.Rudakiy D.Sa'diy
628. Nopisand edim, nopisandroq qilding, dahshatli edim, dahshatliroq qilding, irkit edim, irkitroq qilding. O'z-o'zidan nafratlanish aks etib turgan ushbu so'zlar quyidagi qaysi adabiy manbadan olingan? A."Avesto" B."Qutadg'u bilig" C."Devonu lug'atit turk" D."Hibat ul-haqoyiq"
629. Nafs itin qilsang zabun yo'q olamda sendek shujo, deya kishilarni nafs domidan qutilishga undagan shoir kim? A.Navoiy B.YAssaviy S.Mashrab D.Rabg'uziy
630. Nasib, guzurgoh, madh, qasd singari maxsus qismlar qaysi janrga tegishli? A.g'azal B.muxammas S.qasida D.muashshar
631. Nasihatlarimga shubhalanma, senga mushukni qopga solib sotayotganim yo'q. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A."Tazkirat ul-avliyo" B."Nasoyim ul-muhabbat" S."Yatimat ud-dahr" D."Miftoh ul-adl"
632. Navoiyning qaysi g'azalida ikki toifa din ahli – ahli fano va riyo-yu zuhd ahli bir-biriga zid qo'yilgan? A."SHayx" B."Fano tariqida har kimki hosil etti rusux" S."Bo'ldum sango" D."Kecha kelgumdur debon"
633. O.Yoqubovning mustaqillik yillarida yaratilgan asarlarini belgilang. A."Oq qushlar, oppoq qushlar", "Diyonat", "Muqaddas","Tengdoshlar" B."Chin muhabbat", "Yurak yonmog'i kerak", "Olma gullaganda","Tilla uzuk" C."Adolat manzili", "Muzaffar Temur", "Bir koshona sirlari" D."Muzaffar Temur", "Bir koshona sirlari", "Muzqaymoq"
634. O.Yoqubovning pyesalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping. A."Chin muhabbat", "Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi", "Yurak yonmog'i kerak", "Olma gullaganda", "Bir koshona sirlari" B. "Oq qushlar, oppoq qushlar", "Diyonat", "Muqaddas","Tengdoshlar" C. "Chin muhabbat", "Yurak yonmog'i kerak", "Olma gullaganda", "Diyonat" D. "Bir felyeton qissasi", "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Muhabbat", "Billur qandillar"
635. O.Yoqubovning qissalari berilgan qatorni toping. A."Oq qushlar, oppoq qushlar", "Diyonat", "Muqaddas","Tengdoshlar" B."Chin muhabbat", "Yurak yonmog'i kerak", "Olma gullaganda", "Diyonat" C."Bir felyeton qissasi", "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Izlayman", "Billur qandillar" D."Bir felyeton qissasi", "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Muhabbat", "Billur qandillar"
636. O.Yoqubovning romanlarini toping. A. "Oq qushlar, oppoq qushlar", "Diyonat", "Muqaddas","Tengdoshlar" B. "Chin muhabbat", "Yurak yonmog'i kerak","Olma gullaganda","Tilla uzuk" C. "Er boshiga ish tushsa…", "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", "Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar", "Adolat manzili" D. "Bir felyeton qissasi", "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Muhabbat", "Billur qandillar"
637. O.Sharafiddinovning "oq yo'l" tavsiyasi bilan "Sharq yulduzi" jurnalida kimning she'rlari e'lon qilingan? A.A.Oripov B.M.Yusuf C.A.Suyun D.E.Vohidov
638. Odam otaning nasliga (1) bo'lgan (2), Momo Havo vasliga (3) bo'lgan (4). Raqamlar o'rniga mos so'zlarni qo'ying. A. oshiq B. tog'larim D. bog'larim e) beshik. A.1-e, 2-b, 3-a, 4-d. B. 1-d, 2-a, 3-b, 4-e. C. 1-b, 2-e, 3-d, 4-a. D. 1-a, 2-e, 3-d, 4-b.
639. Oltmishga borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi chol kim? A.Ronosbat. B.Rustak C.Shiroq. D.Saksfar.
640. Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan! Javlon urib yashaydurg'on vatanimizsan! Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla! Tiling bo'lsa hasratlaring tuzuk so'yla. Ushbu sheriy parcha qaysi sherdan

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

olingan? A. Cho‘lpon “Buzilgan o‘lkaga” B. A.Avloniy “Vatan” C. H.H.Niyoziy “vatan” D. Fitrat “O‘git”

641. Oq she’rda nima uchun shoirning imkoniyatlari ancha keng bo‘ladi, ya’ni o‘z fikrlarini erkin ifodalay oladi? A.vazn ahamiyatsiz bo‘lgani uchun B.qofiya talab etilmagani uchun C.nasriy shaklda bitilgani uchun D.barcha javoblar to‘g‘ri

642. Oriq va semiz buqani birov tezagidan bilsa, birov semiz buqani oriq buqadan ajrata olmas emish. Ushbu hikmat quyidagi qaysi adabiy manbadan olingan? A.To‘nyuquq bitigi B.Bilga xoqon bitigi C.Kultegin bitigi D. “Avesto”

643. Osmonga qo‘ygan *nardbon*, chiqsang tomosh abir jahon. *Nahri* ulug‘, har *so‘y* ravon, ko‘rmakka ko‘z hayron ekan. Ushbu satrlarda ajratib ko‘rsatilgan nardbon, nahri, so‘y so‘zlarning ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan? A. narvon, bog‘, ariq B.narvon, ariq, suv C. mozor, ariq, suv D. bog‘, narvon suv

644. Ota-onam, farzandim sensan, Yo‘q, alar-la dilbandim sensan. U.Hamdamning “Munojot” she’ridan olingan ushbu misralarda shoir nimani ham ota-onam, ham farzandim deb atamoqda? A.umidni V.armonni. C.muhabbatni D. Birodarlikni

645. Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida Unsinga onasidan nima yodgorloik qolgan? A.tilla uzuk B.sirg‘a S.bilaguzuk D.paranji

646. Oybekning “Quyosh qoraymas” romani qanday romanlar turkumiga kiradi? A.tarixiy B.zamonaviy S.harbiy D.sarguzasht

647. Oydur sening olingda bu kun bir habashiy qul, Tonsa, yuzida zohir o‘lur dog‘i nishoni. Yor yuzining oyga o‘xshatilishi haqidagi an’ana bilan bahsga kirishilgan ushbu misralar muallifini aniqlang. A.Atoiy B.Gadoiy S.Sakkokiy D.Lutfiy

648. Oshiqlikda o‘zini bir yon, Go‘ro‘g‘lini bir yonga tutgan shoir kim? A.T.Sulaymon B.SH.Rahmon C.A.Oripov D.E.Vohidov

649. P. Qodirovning nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi…A. Alisher Navoiy lirikasida ranglar talqini B. Abdulla Qahhorning “Sarob” romani talqinlari C. “Boburnoma”da Hindiston tasviri D. Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlari

650. P. Qodirovning qissalari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? 1. “Studentlar” 2. “Meros” 3. “Erk” 4. “Uch ildiz” 5. “Qadrim” 6. “Yayra institutga kirmoqchi” 7. “Najot” 8. “Olmos kamar” A. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 B. 2, 3, 5, 6, 7 C. 1, 2, 3, 5, 6, 7 D. 2, 4, 8

651. P. Qodirovning romanlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan band. 1. “Uch ildiz” 2. “Qadrim” 3. “Qora ko‘zlar” 4. “Olmos kamar” 5. “Yulduzli tunlar” 6. “Meros” 7. “Avlodlar dovoni” 8. “Najot” A. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 B. 1, 2, 3, 4, 5, 7 C. 1, 3, 4, 5, 7 D. 3, 4, 5, 7

652. Pochchasining avaylab boqayotgan qushlariga qatiq, suzma ichirib, harom o‘ldirib qo‘ygan qahramon kim? A.Jamol B.Yanguli C.Shum bola D.Musavoy

653. Pushkin asarlarini faqat o‘zi senzuradan o‘tkazishini, nazorat qilishini bildirgan shaxs nomi qaysi javobda berilgan? A.Jukovskiy B.Kyuxelbekr C.Birinchi Nikolay D.Delvig

654. Pushkin ma’naviyati shakllanishiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan shaxs nomi qaysi javobda berilgan? A.Jukovskiy B.Kyuxelbekr C.Anna Yakovleva D.Nadejna Osipovna

655. Po‘lkan shoir repertuaridagi eng yaxshi doston qaysi javobda berilgan? A.“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” B.“Alpomish” S.“Avazxon” D.“Kuntug‘mish”

656. Qahramon hayotidagi sarguzashtlar bilan birga, asardagi personajlarning xatti-harakatiga shoir munosabati ham yaqqol ifoda etilgan hajman yirik she’riy asarni aniqlang. A.“Otello” B.“Yevgeniy Onegin” C.“Atta Tirol” D.“Germaniya. Qish ertagi”

657. Qaladan qalampir yuklar qalachi. “Ravshan” dostonidan olingan parchada qanday badiiy tasvir vositasi qo‘llangan? A.alliteratsiya B.tashbih C.tamsil D.irsoli masal

658. Qaladan qalampir yuklar qalachi. “Ravshan” dostonidan olingan parchadagi qala va qalachi so‘zlari izohini aniqlang A.tuya, tuyakash B.ot, otboqar C.poliz, polizchi D.shahar, shaharlik

659. Qalmoq borib juz’ya berib yuraman. Boysari nutqidan olingan ushbu misradagi juz’ya qanday soliq turini anglatadi? A.savdo solig‘i B.g‘ayridinlarga solinadigan soliq C.daromad solig‘i D.yer-mulk solig‘i

ADIBIYOT BAZA 2019 I-QISM

660. Qaro yer qa'ridan to avji Zuhal, Koinot mushkulin barin qildim hal. Ko'p mushkul tugunni angladim, yechdim, Yechilmay qolgani birgina ajal. Ruboiy kimning qalamiga mansub? A.Bobur B.Umar Xayyom C.Ibn Sino D.Rudakiy
661. Qator asarlari ingliz, rus, turk, arab, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, tuva va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingani bilan javoblarda nomlari ko'rsatilgan shoirlardan ajralib turadigan shoir nomini aniqlang. A.Azim Suyun B.Abdulla Oripov C.Erkin Vohidov D.Cho'lpon
662. Qatorga tirkalgan lo'k bilan norcha, Ustiga yuklangan qirmizi parcha. "Alpomish"dan olingan ushbu parchadagi lo'k, nor so'zlari qanday ma'no anglatadi? A.lo'k – yuk tashiydigan tuya, nor – qizil tuya B.lo'k – yuk tashiydigan ot, nor – erkak tuya C.lo'k – eshak, nor – erkak tuya D.lo'k – yuk tashiydigan tuya, nor – erkak tuya
663. Qaysi asarda inson hayotning ma'nosi va mazmuni haqidagi dardlari va falsafiy mushohadalari, insonlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, hamdardlik va o'zaro hurmat munosabatlari aks etadi? A."Qizimga maktublar" B."Umr haqida ertak" S."Kichkina shahzoda" D."Dunyoning ishlari"
664. Qaysi adabiy qahramonga nisbatan "Sparta iti" nomi qo'llangan? A.Jamolga B.Xorkumarga C.Yagoga D.Atta Tirolga
665. Qaysi adabiy yodgorlikda cho'lga suv chiqarib, yerning sho'rini yuvib, zaxini qochirib, unga ishlov berganlar eng mo'tabar insonlar ekani ta'kidlangan? A."Avesto" B."Qutadg'u bilig" C."Devonu lug'atit turk" D."Hibat ul-haqoyiq"
666. Qaysi adibning ijodida jadid muallimi Muhammadjon qori chuqur iz qoldirgan? A.Cho'lpon B.Fitrat C.A.Qahhor D.Oybek
667. Qaysi asar qahramoni o'z eri tomonidan "Hay, kim" deb chaqiriladi? A.Kumush ("O'tkan kunlar") B.Zaynab ("O'tkan kunlar") S.Zebi ("Kecha va kunduz") D.Gulnor ("Qutlug' qon")
668. Qaysi asar so'nggida qahramonning o'z tengdoshlari, asrdosh birodarlariga murojaatnomalari beriladi? A. "Qoplon" hikoyasi B. "Muzqaymoq" hikoyasi C. "Nido" dostoni D. "Bemor" hikoyasi
669. Qaysi asar XV asr adabiy-madaniy muhiti, buyuk shaxslari hayoti va ular bilan bog'liq qiziqarli hikoyalarni o'zida jamlagan? A."Bahoriston" B."Zubdat ul-hikoyat" C."Badoye' ul-vaqoye" D."Tazkirat ush-shuaro"
670. Qaysi asarda birdaniga ham shariat, ham tariqat, ham haqiqat masalalari ko'tarilgan? A."Qisasi Rabg'uziy" B."Devoni hikmat" S."Miftoh ul-adl" D."Turkiy guliston yoxud axloq"
671. Qaysi asarda hiyla va tadbirkorlik ijobiy fazilat sifatida ulug'lanadi? A."To'maris" B."Jayhun ustida bulutlar" C."Shiroq" D."Zulmat ichra nur"
672. Qaysi asarda xalq hukmdor oldiga 3 ta: 1.pulning qadrin saqlash 2.adolatli siyosat yuritish 3. yo'llarni qaroqchilardan tozalash shartini qo'yadi? A."Mahbubul qulub"da B."Vaqfiya"da C."Qutadg'u bilig"da D."Saddi Iskandariy"da.
673. Qaysi asardagi hikoyatda nodon o'g'ilning tug'ilganidan ilonning tug'ilgani yaxshiroq ekani haqida so'z boradi? A."Bo'ston" B."Maktab gulistoni" C."Guliston" D."Turkiy guliston"
674. Qaysi bandda latifanamo, afandisifat ishlari bilan mashhur kishi nomi keltirilgan? A.Luqmoni hakim B.shayx Bahlul S.Xorurn ar-Rashid D.Hotami Toy
675. Qaysi bitigtoshdagi matn qarindosh-urug', beklar, umuman, xalqqa murojaat bilan boshlanadi? A.To'nyuquq B.Kul tegin C.Bilga xoqon D.Eltarish xoqon
676. Qaysi bitigtoshdagi matn o'zini-o'zi vasf etish bilan boshlanadi? A.To'nyuquq B.Kul tegin C.Bilga xoqon D.Eltarish xoqon
677. Qaysi hikoya so'ngida muallif "... mening bu jo'ngina, oddiygina hikoyam – ko'nglimdan o'tgan narsa edi" deb alohida ta'kidlaydi? A."O'zbeklar" B."Mening o'g'rigina bolam" C."Fanorchi ota" D."Qorako'z Majnun"Qaysi
678. Qaysi ijodkor bu dunyoda to'g'ri bo'lish oson emasligini, to'g'ri odamning to'g'riligi hamisha uning o'ziga zararli ekanini; egrilarning ishi doim rivojda ekanini ilonning egriligi, sallaning burama-egriligi singari bir necha misollar bilan isbotlab bergan? A.Navoiy B.Xoja S.Yassaviy D.Huvaydo

ADIBIYOT BAZA 2019 I-QISM

679. Qaysi ijodkor ijod dardini yo‘l azobiga o‘xshatadi? A.Mirtemir B.A.Muxtor C.S.Zunnunova D.SH.Rahmon
680. Qaysi ijodkorning otasi sarrof (pul maydalovchi, pul almashtiruvchi) va savdogar; kasbi taqozosi bilan atrof yurtlarga, hatto Turkiya, Eron, Qashqarga tez-tez borib-kelib turgan? A.Cho’lpon B.So’fizoda C.Avloniy D.Fitrat
681. Qaysi javobda o‘z asarini o‘zi tarjima qilgan vatandoshimiz nomi keltirilgan? A.A.Muxtor B.E.Vohidov C.A.Qahhor D.So‘fi Olloyor
682. Qaysi mashhur shoirning otasi o‘z davrida “sulton ul-ulamo” darajasiga ko‘tarilgan? A.Rumiy B.Pahlavon Mahmud C.Najmiddin Kubro D.Umar Xayyom
683. Qaysi ma’shuqa oshiqining vafotidan keyin o‘z holatini tasvirlab “Aning hajrida men bemori bedil, Qushemenkim, qilurlar bismil”, ya’ni men uning hajrida bemoru bedilman, xuddi chala so‘yilgan qushdayman deydi? A.Shirin B.Layli C.Dilorom D.Uzro
684. Qaysi millatparvar o‘zi tashkil etgan maktabda bir dars bilan ikkinchisi o‘rtasidagi tanaffusni, bir sinfdan ikkinchi sinfga ko‘chirish imtihonini joriy qilgan? A.Hamza B.So‘fizoda C.Avloniy D.Cho‘lpon
685. Qaysi qahramonga nisbatan “ishonuvchan, lekin laqma ham, ahmoq ham emas, inson degan zot o‘z nomiga yarasha mard, to‘g‘riso‘z va ochiqko‘ngil bo‘ladi, deb hisoblaydigan odam” degan e’tirof qo‘llanadi? A.Mo‘min chol B.Ochil buva C.Otello D.Edigey Bo‘ron
686. Qaysi qatorda as-Saolibiyning “Yatimad ad-dahr” asari haqida noto‘g‘ri mulohaza keltirilgan? A.asarga 4160 baytga yaqin she’r kirtilgan B.asarda keltirilgan qasidalar ayrim tarixiy voqealarga bag‘ishlangan S.asarda Xuroson va Movarounnahrda tug‘ilgan bo‘lsa-da, faqat arab tilida ijod qilgan shoirlargagina to‘xtalingan, xolos D.barcha mulohazalar to‘g‘ri
687. Qaysi qatorda M.Jalilning poemasi berilgan? A.“O’rtoqlar” B.“Ordenli million erlar” S.“Biz boramiz” D. “Xat tashuvchi”
688. Qaysi qatorda S.Ahmadning qissalari berilgan? A. “Qishloq hukm ostida”, “Qadrdon dalalar” B. “Hukm”, “Qadrdon dalalar” C. “Ufq”, “Hukm” D. “Jimjitlik”, “Muhabbat”
689. Qaysi qatorda zamonaviy romanlar berilgan? A.“Quyosh qoraymas”, “Olmos kamar” B.“Yulduzli tunlar”, “O‘tkan kunlar” S.“Olmos kamar”, “Jimjitlik” D.“Sariq devni minib”, “Uchrashuv”
690. Qaysi qo‘shmisradagi gap ilohiy ishq haqida? A.Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur, Jahon husnin borin sizga beribdur. B.Pari-yu odami mundoq xo‘b ermas, Farishta go‘yiyo ko‘ktin enibdur. C.Quyosh oydek yuzungning xijlatidin, Qochib, to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur. D.Yuzung nogah ko‘rib Oydek sog‘indim, Magar hush-u xirad mendin ketibdur.
691. Qaysi tragik qahramonga nisbatan “Katta qalbga ega edi” deb e’tirof etiladi? A.Otelloga B.Akbaraliga C.Kazangapga D.Mo‘min cholga
692. Qaysi xalq dostonida musicha, so‘pito‘rg‘ay, g‘azalay, simcha kabi qushlarning go‘zal qizning jamoliga chidamay, balanddan quyilib kelib, kiftiga tegib-tegib uchib borayotgani haqida tasvir uchraydi? A.“Alpomish” B.“Rustamxon” C.“Malika ayyor” D.“Ravshan”
693. Qaysi xalq dostonida o‘z e’tiqodidan, dinidan kechmagan qahramon bor? A.“Alpomish” B.“Rustamxon” C.“Malika ayyor” D.“Ravshan”
694. Qaysi yozuvchi, o‘zi e’tirof etganidek, bola va o‘smir ruhidagi go‘zallikni himoyalashga e’tibor berib kelyapti? A.X.To‘xtaboyev B.A.Obidjon S.T.Malik D.J.Rodari
695. Qaysi yozuvchining qahramonlariga nisbatan “har qanday holatda ham odamlikka xiyonat qilmaydilar” degan e’tirof ishlatiladi? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
696. Qaysi o‘zbek yozuvchisi o‘ziga xos qahramonlarning yaratilishini “Adabiyot uy daftarida bir odamning paydo bo‘lishi” deb baholagan? A.A.Qodiriy B.A.Qahhor S.Oybek D.G‘.G‘ulom
697. Qaysi shoir “terakning egilgan uchlarini mag’lub bahodirning nayzasi”ga o’xshatgan? A.SH.Rahmon B.M.Yusuf S.A.Oripov D.A.Suyun
698. Qaysi shoir bir g‘azalida o‘zini ma’shuqa yanog‘idagi xol, labidan tomgan bol, tong chog‘idagi shamol, ma’shuqa qasrining devoli bo‘lishini orzu qiladi? A.Feruz B.H.Olimjon C.Alisher Navoiy D.Bobur

ADABIYOT BAZA 2019 1-QISM

699. Qaysi shoir dostonlaridan birining nomi “So‘lmas chechaklar” deb nomlanadi? A.A.Muxtor B.Shayxzoda C.Shukrullo D.Shuhrat
700. Qaysi shoir do‘st-u dushman orasida oyoq osti qiladigan narsa ko‘ngildir, deb yozadi? A.Atoyi B.Lutfiy C.Gadoiy D.Mashrab
701. Qaysi shoir Muhammad Rahimxon tomonidan 200 darra urib, jazolangan? A.Avaz O‘tar o‘g‘li B. Polvonniyoz O‘tar Gadayniyoz o‘g‘li C. Gulxaniy D. Muqumiy
702. Qaysi shoir o‘z asaridan faxrlanib quyidagi faxriya misralarni bitgan? Muni kim ishq birla bir o‘qug‘ay, Haqiqat olamini munda bilg‘ay. A.S.Saroyi B.H.Xorazmiy C.Q.Xorazmiy D.Xorazmiy
703. Qaysi shoir o‘z she’rida dunyoda bir ro‘zg‘or but bo‘lsa, to‘rttasi xorligi haqida yozgan? A.E.Vohidov B.A.Oripov. C.S.Sayyid D.Z.Mirzo.
704. Qaysi shoir g‘azallaridan birida navbati bilan ma’shuqadan pariga, qamarga, kaklikga, Misr shakariga, va nihoyat, Xitoy go‘zallariga kim bo‘lasan, deb savol beradi? A.Atoyi B.Lutfiy C.Gadoiy D.Sakkokiy
705. Qaysi shoir she’rlaridan birida, agar munojotning kuyi rost bo‘lsa, tabiatga qarata: “sen beshik emassan, dorsan”; dunyoga qarata: “sen ona emassan, jallodsan” deb hukm chiqaradi? A.E.Vohidov B.A.Oripov C.Mirtemir D.C.Zunnunova
706. Qaysi shoir she’rlaridan birida, cholg‘uchidan soz chalishni bas qil, bu soz mening ko‘ksimga xanjar uryapti, deb shikoyat qiladi? A.E.Vohidov B.A.Oripov C.Mirtemir D.C.Zunnunova
707. Qaysi shoira bir she’rida o‘g‘liga murojaat qilib, daraxtlarning aldashni bilmasligi, nomardlik qilmasligi, hech qachon sotqinlik qilmasligi, xiyonat qilmasligi to‘g‘risida “dars” beradi? A.Zebo Mirzo B.H.Ahmedova. C.Zulfiya D.Z.Mo‘minova
708. Qaysi shoira o‘g‘lining dunyoni shoir qilishini istaydi. A.Zebo Mirzo B.H.Ahmedova. C.Zulfiya D.Z.Mo‘minova
709. Qaysi shoirning bir she’rida lirik qahramon yoridan ko‘ra, ilonlarga ko‘proq ishonadi? A.M.Yusuf B.Faxriyor C.R.Parfi D.B.Ro‘zimuhammad
710. Qaysi shoirning lirik qahramoni ma’shuqaning yuzida terni ko‘rib o‘ladigan bo‘lsa, o‘zini gulob bilan yuvib, gul bargidan qilingan kafanga o‘rashlarini o‘tinib so‘raydi? A.Bobur B.Munis C.Navoiy D.Furqat
711. Qaysi shoirning lirik qahramoni pari yo odam nasli emas, ko‘kdan tushib kelgan farishtaga o‘xshaydi? A.Navoiy B.Lutfiy C.Gadoiy D.Mashrab
712. Qaysi shoirning g‘azallaridan birida “Mol-u dunyo yaxshi, jon aziz, biroq barchasidan vafodor yor hurmati baland” degan fikr ilgari surilgan? A.Navoiy B.Sa’diy S.Bobur D.Rudakiy
713. Qayg‘u ko‘pga o‘xshab ko‘rinadigan, ammo aslida qayg‘uning zamirida hamisha hayotbaxsh quvonch yotgan, degan xulosa qaysi shoir ijodiga xos? A.Hayne B.Pushkin C.U.Nosir D.Shayxzoda
714. Qilur o‘z jonig‘a qasd o‘zi boyiq, Gadoekim, bo‘lur sultona oshiq. Misrada qo‘llangan she’riy san’atni aniqlang. A.istiora B.tashxis C.mubolag‘a D.talmeh
715. Qisqa tushlar meni qoniqtirmasdi. Shunda buvim qo‘shnilarnikiga chiqib, “qarzga” tush so‘rar va menga so‘zlab berardi. Keyinchalik tushundimki, buvim bu tushlarni men uchun to‘qib berarkan. Ushbu tarjimayi hol kimga tegishli? A.Oybek B.CH.Aytmatov C.M.Osim D.R.Hamzatov
716. Qissa janrida yozilgan asarlarni aniqlang. 1.“Qon hidi” 2.“Bozor” 3.“Tilsim saltanati” 4.“Tobut shahar” 5.“Quyun” 6.“Ffu” 7.“Ming bir qiyofa” 8.“Qora kitob” 9.“Ayollar saltanati va mamlakati” 10.“Tepalikdagi xaroba” 11.“Ko‘zgu oldidagi odam” 12.“Maydon” 13.“Jaziramadagi odam” 14.“Shamolni tutib bo‘lmaydi” A.1, 2, 3, 6, 7, 9, 10, 11, 12, 14 B.4, 5, 14 C. faqat 8 D.barchasi qissa janrida yozilgan
717. Qiz kishi savi yorig‘li bo‘lmas. “Devonu lug‘atit turk”dan olingan ushbu ma’lumotdagi qiz so‘zi qanday ma’no anglatadi? A.baxil B.yolg‘onchi S.ayol D.saxiy
718. Qo’qon xoni Amir Umarxon atrofidagi 101 shoir ijodi haqida ma’lumot beradigan tazkira nomini aniqlang? A.“Tuhfatul ahbob” B.“Muzakkir ul as’hob” C.“Majmuayi shoiron” D.“Tazkirat ush shuaro”
719. Qubbon sohilida qomating bukib, Oltin barglaringni ko‘l uzra to‘kib, Nimalar haqida surasan xayol, So‘yla, majnuntol? She’ri muallifi kim? A.E.Vohidov B.A.Oripov C.Mirtemir D.S.Zunnunova

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

720. Qubbon sohilida qomating bukib, Oltin barglaringni ko‘l uzra to‘kib, Nimalar haqida surasan xayol, So‘yla, majnuntol? She’r qanday vaznda yozilgan? A.aruz B.qo‘shma C.barmoq D.erkin
721. Quyida berilgan qaysi asarda sho‘ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo‘lmish qatag‘on davri aks etgan? A.”Qora kamar” B.”Oltin zanglamas” S.”Shinelli yillar” D.”O‘zbeklar”
722. Quyidagi asarlarning qaysi birida ko‘lda g‘ozning, dala-tuz, sahro, qir va bogning; beshikdagi tilsiz norasta, chol-kampirning; bogdagi gul, qirdagi chechakning; nomus deb qiz, kelinchaklarning; taqir o‘tloqlarda qo‘y-qo‘zilarning qon yig‘lagani tasvirlanadi? A.“Ona lochin vidosi” B.“Mardlik afsonasi” C.“O‘tror” D.“Qiz uzatib borganda”
723. Quyidagi drammatik qahramonlardan qaysi biri garchi qatnashuvchilar ro’yxatida ko’rsatilgan, muallif tomonidan tashqi qiyofasi va xarakteriga oid izoh berilgan bo’lsa-da, sahnada umuman ko‘rinmaydi? A.Yorqinoy B.Mirzo Hamdamboy C.Ulfat D.Zaynab kampir
724. Quyidagi misralar qaysi o‘zbek shoiriga bag‘ishlangan? Yuraklarda yurmagini, Oh, oldindan bilgan qush. Har o‘zbekning yuragini, O‘ziniki qilgan qush. A.M.Yusufga B.A.Muxtorga C.U.Nosirga D.Shuhratga
725. Quyidagi qaysi asar ikki kechinma, ya’ni farzand kamoli, uning to‘yini ko‘rganlikdan quvonch va shu kunga yetolmaganlar haqidagi alamli xotiralar kurashidan iborat? A.“Surat” B.“Jamila” C.“Ruh bilan suhbat” D.“Mardlik afsonasi”
726. Quyidagi qaysi asarda zararli g‘oya va mafkura qurboni bo‘lgan millionlab odamlar taqdiridan hikoya qiluvchi parcha mavjud? A.“Ufq” B.“Qiyomat” C.“O‘tmishdan ertaklar” D.“Oq kema”
727. Quyidagi qaysi asarda oddiy temirchining o‘ylari, so‘zlari, qilgan ishlari kuchli pafos bilan tasvirlangan? A.“Asrga tatigulik kun” B.“Jannat qidirganlar” C.“Oltin zanglamas” D.“Ko‘zgu oldidagi odam”
728. Quyidagi qaysi bitigtoshda turklarning qudratli davlat tuzgani natijasida qul qulga, cho‘ri cho‘riga ega bo‘lgani bitilgan? A.To‘nyuquq B.Kul tegin C.Bilga xoqon D.Eltarish xoqon
729. Quyidagi qaysi she’rda xalq xotirasi «uchib yurgan varaqlar» deb tasvirlanadi? A.”O’zbekiston” B.”Millatimga armug’on” C.”Bahodirning qilichi” D.”Ona tilim”
730. Quyosh ma’shuqaning oydek yuzidan xijolat chekib to‘rtinchi qavat osmonga qochib ketgani haqida husni ta’lil san’ati yaratgan shoir nomi qaysi javobda berilgan? A.Xorazmiy B.Lutfiy C.Gadoiy D.Yaqiniy
731. Qo‘lidan kelmaydigan ishga urinib dovruq topmoqchi bo‘lgan, natijada o‘zini ham, xalqni ham qiynaydigan kishilarga nisbatan shoirning achchiq kinoyasi, xolis bahosi deb “Zarbulmasal”dagi qaysi masalni tushunish mumkin? A.“Toshbaqa bilan Chayon” B.“Tuya bilan Bo‘taloq” C.“Kabutar bilan Zog‘” D.“Maymun bilan Najjor”
732. Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni, Onamsan-ku, og‘ir olma so‘zimni, Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini, Olislarda qolgan... Shoir “qayinbarglar yopgan” jumlasi bilan qaysi ijodkorga ishora qilgan? A.Furqat B.U.Nosir S.Bobur D.Cho‘lpon
733. Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. Ushbu hikmat qaysi xalq dostonida uchraydi? A.“Alpomish” B.“Rustamxon” C.“Malika ayyor” D.“Ravshan”
734. Qo‘shiq aytdi kaklik go‘zal tog‘ ora, Qizil og‘zi qondek, qoshi qop-qora. Kaklikning og‘zi va qoshigacha aniq tasvirlagan ushbu bayt manbasini toping. A.“Muhabbatnoma” B.“Mantiqut tayr” S.“Qutadg‘u bilig” D.“Lisonut tayr”
735. Qaysi ijodkor o‘z davrida “shahbozi balandparvoz” (baland uchuvchi lochin) deb ta’riflangan? A.Xoja B.Hasanxo‘ja Nisoriy S.Jomiy D.Muhammad Solih
736. Qaysi javobdagi baytda raviy deyarli butun so‘zga teng? A.Mashaqqatdin yigitni el qari der, Ki, qozilmish ikki-uch yuz qari er. B.Kuychilari o‘qiydi yalla, Juvonlari aytadi alla. S.Botirlari kanal qazadi, SHoirlari g‘azal yozadi. D.raviyning butun so‘zga teng kelishi she’riyatda kuzatilmaydi.
737. Qaysi qo‘shiqda xalqqa xos chechanlik, chapanilik, topqirlik, qaytmaslik singari sifatlar aks etadi? A.“Qarg‘alar uchsa qaraylik” B.“Kelinoy” S.“Oq uyingga vassa terdim” D.“Hovlichangda gul ko‘rdim”
738. Qaysi amir Firdavsiyni Buxoroga chaqirib chala qolgan “SHohnoma”ni tugatish vazifasini bergan? A.Qusam ibn Abbos B.Yazdigard III S.Tabg‘ach Bug‘roxon D.Nuh ibn Mansur

ADIBIYOT BAZA 2019 I-QISM

739. Qaysi asar qahramoni go‘zallikda Yusufdan ham oliy deya ta’riflanadi? A.“Muhabbatnoma” B.“Layli va Majnun” S.“Suhayl va Guldursun” D.“Latofatnoma”
740. Qaysi xalq dostoniga nisbatan eng ko‘p qahramon ishtirok etgan doston, degan e’tirof ishlatiladi? A.“Alpomish” B.“Ravshan” S.“Malika ayyor” D.“Kuntug‘mish”
741. Qaysi xalq dostoniga nisbatan saj’ning go‘zal namunasidir, degan e’tirof ishlatiladi? A.“Alpomish” B.“Ravshan” S.“Avazxon” D.“Kuntug‘mish”
742. Qofiya nazariyasiga doir manbalarda SHarq she’riyatida qofiya harflari nechta deb ko‘rsatiladi? A.15 B.5 S.9 D.10.
743. Qofiya nazariyasiga doir manbalarda SHarq she’riyatida qofiya turlari nechta deb ko‘rsatiladi? A.15 B.25 S.9 D.10.
744. Qorli tog‘lar turar boshida, Gul vodiylar yashnar qoshida. Ushbu misralar qaysi javobdagi ta’rifga mos tushadi? A.bir misrada 2 so‘zni ohangdosh bo‘lib kelishi. B.ohangdoshlik misralardagi bir nechta so‘zlarda ro‘y berishi S.2 so‘z misraning turli o‘rinlarida ohangdosh bo‘lib kelishi D.ohangdoshlik faqatgina misralar oxiridagi so‘zlardagina bo‘lmay, misra ichidagi so‘zlarda ham uchrashi
745. Rabg‘uziy asarida ta’kidlanishicha, Nuh kemasida 3 ta narsa yo‘q edi. Ular mushuk, sichqon va ...A.to‘ng‘iz B.ilon S.ari D.tovus
746. Raqiblarg‘a qilur la’ling tabassum, Qonimni g‘ussadin toshurmog‘ing ne? Ko‘ngul shishasida mehring mayidur, Jafo birla anga tosh urmog‘ing ne? She’riy san’atni aniqlang. A.tajnis B.tazod s.talmeh D.ishtiqoq
747. Rauf Parfi qalamiga mansub quyidagi she’riy parchada “yashil chambarak” nimani anglatadi? Tong otmoqda. Tong o‘qlar otar, Tong otmoqda, quyosh – zambarak. Yaralangan yer shari yotar, Boshlarida yashil chambarak. A.quyoshni B.hayotni S.o‘limni D.tabiatni
748. Ravon yo‘llar qarshingizda turibdi mushtoq. Ushbu misralar qaysi she’rdan olingan. A.“Genetika” B.“Kuz manzaralari” C.“Bahor” D.“Sarob”
749. Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g‘oyibona rozi bo‘lib, ko‘chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostda Jiyronqush oti har usulda o‘ynab borayotir. Parchada qo‘llangan she’r san’atini aniqlang. A.talmeh B.saj’ S.tashbeh D.istiora
750. Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g‘oyibona rozi bo‘lib, ko‘chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostda Jiyronqush oti har usulda o‘ynab borayotir. Parchada qo‘llangan *suqsur* nimaning nomi? A.odamlar bilan yashaydigan qush B.cho‘llarda yashaydigan qush C.tog‘larda yashaydigan qush D.ko‘lda yashaydigan qush
751. Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g‘oyibona rozi bo‘lib, ko‘chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostda Jiyronqush oti har usulda o‘ynab borayotir. Parchada qo‘llangan *taraqqos boylamoq* ma’nosi nima? A.kulala qilib boylamoq B.popukli qilib boylamoq S.uchadigan qushday bo‘lmoq D.duoli yozuv, tilsimli qilib boylamoq
752. Ruboiylaridan birida ishq dardi go‘yo tanadagi jondek, shuning uchun kishi dard cheksa chin inson bo‘ladi, deb hisoblagan shoirni belgilang. A.Rumiy B.Pahlavon Mahmud C.Najmiddin Kubro D.Umar Xayyom
753. Rudakiy qit’alarining birida kishida to‘rt narsa bo‘lsa, mangu shod yashab, g‘am emasa ham arziydi, deb yozadi. Bu to‘rt narsa qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan? A.tansihatlik, yaxshi odat, yaxshi nom, yaxshi fikr B.tansihatlik, yaxshi xotin, yaxshi ulov, yaxshi farzand C.yaxshi farzand, ota-ona, tansihatlik, yaxshi fikr D.yaxshi farzand, ota-ona, yaxshi qo‘shni, yaxshi xotin
754. Ruhi bilan yo‘lda bo‘lgan inson umrining nihoyasi yo‘q ekanligi borasida qaysi ijodkor fikr yuritgan? A. Mirtemir B. A.Muxtor C. E.Vohidov D. S.Zunnunova
755. Rus shoiri V.Xlebnikov ijodini Sharq adabiyoti bilan bevosita bog‘lab turadigan xususiyat qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? A.Layli va Majnun mavzusida asar yozgani B.Iskandar mavzusida asar

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

yozgani C.Kalila va Dimna mavzusida asar yozgani D.V.Xlebnikov ijodini Sharq adabiyoti bilan bevosita bog‘lab turadigan hech qanday xususiyat berilmagan.

756. Rustam Musurmonning qaysi she’ri xalq qo‘shiqlari ohangini eslatadi? A.”Ijodkor qismati”. B.”Oqqush”. C.”Vatan nadir?” D.”Vatanim”

757. Ruxsorida lam’ai malohat, Guftorida nash’ai fasohat. Ushbu misralar qaysi javobdagi ta’rifga mos tushadi? A.Misralardagi uch so‘zning bir-biriga ohangdosh bo‘lishi. B.misralardagi to‘rtta so‘zning ohangdosh bo‘lishi S.2 so‘z misraning turli o‘rinlarida ohangdosh bo‘lib kelishi D.ohangdoshlik faqatgina misralar oxiridagi so‘zlardagina bo‘lmay, misra ichidagi so‘zlarda ham uchrashi

758. Raqamlar va harflar mosligini tekshiring. Said Ahmad qaysi adiblarning qanday fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan edi? 1.Oybek 2.G‘afur G‘ulom 3.A.Qahhor a.psixologik tasvir mahoratini; b.ixcham va teran fikrlash; d.yumori A.1-a, 2-b, 3-d B.1-a, 2-d, 3-b S.1-d, 2-b, 3-a D.1-b, 2-a, 3-d

759. Raviy haqidagi qoidalardan qaysi biri xato? 1.raviy 1 harfdan iborat bo‘ladi. 2.raviy so‘z negizi yo o‘zagidagina mavjud bo‘ladi. 3.raviy takrorlanadi. 4.raviy baytdagi misralar oxirida ritmik jihatdan bir o‘rinda keladi. 5.raviy harf olib tashlansa, so‘z o‘z ma’nosini yo‘qotadi. A.barchasi to‘g‘ri B.2 S.3 D.4, 5

760. Roman janrida yozilgan asarlarni aniqlang. 1.“Qon hidi” 2.“Bozor” 3.“Tilsim saltanati” 4.“Tobut shahar” 5.“Quyun” 6.“Ffu” 7.“Ming bir qiyofa” 8.“Qora kitob” 9.“Ayollar saltanati va mamlakati” 10.“Tepalikdagi xaroba” 11.“Ko‘zgu oldidagi odam” 12.“Maydon” 13.“Jaziramadagi odam” 14. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” A.1, 2, 3, 6, 7, 9, 10, 11, 12, 13 B.4, 5, 15, 14 C. faqat 8 D.barchasi roman janrida yozilgan

761. S.Sayyidning “Vatan nadir?” nomli she’rida qaysi buyuk ajdodimizni Buxorodon quvg‘in qilingan ta’kidlanadi? A.Cho‘lpon B.Furqat. C.Buxoriy D.Bobur.

762. S.Sayyidning “Vatan nadir?” nomli she’rida qaysi buyuk ajdodlarimizning nomlari uchraydi? 1.Buxoriy 2.Bobur 3.Cho‘lpon 4.Furqat 5.Amir Temur A.1, 3, 5 B.2, 4. C.1, 2, 3, 4, 5 D.4, 5.

763. S.Zunnunova qalamiga mansub dostonlarni belgilang 1.“Sodiq va anor” 2.“Bahor o‘tdi” 3.“Og‘ir tosh ko‘chsa” 4.“Xayrixon” 5.“Ko‘k dengiz” 6.“Qo‘shnilarim” 7.“Surat bilan suhbat” 8.“Yangi she’rlar” 9.“Gullar vodiysi” 10.“Qush tili” 11.“Bir yil o‘ylari” 12.“Nilufar”13.“Tog‘larga qor tushdi” 14.“Qizlarjon” A.1, 4, 6, 7 B.8, 9, 11, 12, 14 C.3, 5, 10, 13 D.1, 2, 3, 4, 5, 7, 10, 11, 12, 13,14

764. S.Zunnunova qalamiga mansub she’riy to‘plamlarni belgilang 1.“Sodiq va anor” 2.“Bahor o‘tdi” 3.“Og‘ir tosh ko‘chsa” 4.“Xayrixon” 5.“Ko‘k dengiz” 6.“Qo‘shnilarim” 7.“Surat bilan suhbat” 8.“Yangi she’rlar” 9.“Gullar vodiysi” 10.“Qush tili” 11.“Bir yil o‘ylari” 12.“Nilufar”13.“Tog‘larga qor tushdi” 14.“Qizlarjon” A.1, 4, 6, 7 B.8, 9, 11, 12, 14 C.2, 3, 5, 10, 13 D.1, 2, 3, 4, 5, 7, 10, 11

765. Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitar, Besabrlar o‘z oyog‘idan yitar. Gulxaniy qalamiga mansub ushbu baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.irsoli masal B.tajohilu orif C.tadrij D.tanosib

766. Sakkokiy qasidalari haqidagi ushbu ma’lumotlardan to‘g‘rilarini belgilang. 1.to‘liq qasidalar 2.nasib bilan boshlangan 3.tabiat tasviri yorning bevafoligi bilan bog‘langan 4.lirik kirish bilan madhni bog‘lovchi 4-5 baytlik guzirgoh mavjud 5.Madhda shoir tilga olingan shaxsning fazilat va sifatlarini maqtaydi 6.qasd qismida shoir o‘zining maqsadini bayon qilgan, qasida bag‘ishlangan shaxsga tilak va istaklarini bildirgan. A.barcha izoh to‘g‘ri B.1, 2, 4 S.3, 5, 6 D.2, 4, 6

767. San’atning o‘yin emasligi, san’atning yuragi kulayotgan kishining achchiq ko‘z yoshi, o‘layotgan kishining tabassumiday sirli ekani haqida she’r bitgan shoir nomi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? A.U.Hamdam B.B.Ro‘zimuhammad C.Faxriyor. D.SH.Rahmon.

768. Saqalarni qaysi qo‘shni davlat “temirchi millat” deb atagan? A.mo‘g‘ullar B.xitoyliklar C.tojiklar D.ruslar

769. Sario‘zak dashti tepasida har kuni kechasi uchib yuradigan qush nomini aniqlang. A.Do‘nanboy B.Manzara C.Humo D.O‘ramol

770. Sarlavhasidan so‘ng “Hazil” deb izoh berilgan “Yengajon” she’ri muallifini aniqlang. A.Oybek B.Mirtemir C.G‘.G‘ulom D.Shayxzoda

771. Sa’diy “Bo‘ston” asaridagi bir hikoyatda buloq boshiga hikmat yozib qoldirgan podshoni tilga oladi. Podshoning nomini to‘g‘ri toping. A.Jamshid B.Siyovush C.Qayumars D.Iskandar





ADIBIYOT BAZA 2019 I-QISM

772. Sa'va, qumri nag'masi, *suralay* tovlanishi. Ajratib ko'rsatlgan so'z nimaning nomi? A.patlari rang-barang qush turining nomi B.kaklikning nomi C.gulzordagi turfa rang gullarning umumlashma nomi D.tuvakda o'sadigan gul turining nomi

773. Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo'q, shuning uchun ham undan kulishgani-kulishgan. Chunki quvlik – shumlikni bilmaydi. Yuqoridagi parcha qaysi asardan olingan? A."Yulduzlar mangu yonadi" B."Ozbeklar" C."Oq kema" D."Oltin zanglamas"

774. Sendek jahonda ko'zlari ayni balo qani? Mendek aning balosi bila mubtalo qani? Baytda qo'llangan san'atni toping. A.iyhom B.irsoli masal S.husni ta'lil D.tashbih.

775. Sentimentalizm yo'nalishida yozilgan asarlarni aniqlang. 1."Yangi Eloiza" 2."Bechora Liza" 3."Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" 4."Pamela" 5."Uyqu istagi" 6."Dunyoning ishlari" A. faqat 6 B.1, 2, 3, 4, 5 C. 1, 2, 3, 4, 5, 6 D.1, 2, 4

776. Siyosatdan chetda turuvchi, siyosiy muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr kechiruvchi kamtargina odam ham aslida siyosatning ta'siridan xoli bo'lmasligi ishonarli tasvirlangan asar nomini aniqlang. A."Asrga tatigulik kun" B."Jaziramadagi odamlar" C."Jannat qidirganlar" D."Ko'zgu oldidagi odam"

777. Soch-soqoli oqargan, biroz munkayib, cho'kib qolgan suyakdor chol kim? A.Ronosbat. B.Rustak C.Shiroq. D.Saksfar.

778. Suvni suzuk, ya'ni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatish ilk bor kimning ijodida uchraydi? A.Bobur B.Mashrab S.Ogahiy D.Atoyi

779. Suyukli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'lining ulkan mehnati, iste'dodi hamda dostonni yozib olgan folklorshunos va noshirlarning og'ir mehnati tufayli avlodlarga meros bo'lib qolgan dostonni toping. A."Alpomish" B."Rustamxon" C."Malika ayyor" D."Ravshan"

780. Sendek manga bir yori jafokor topilmas, Mendek sanga bir zori vafodor topilmas. Ushbu misralar qaysi javobdagi ta'rifga mos tushadi? A.Misralardagi uch so'zning bir-biriga ohangdosh bo'lishi. B.misralardagi to'rtta so'zning ohangdosh bo'lishi S.2 so'z misraning turli o'rinlarida ohangdosh bo'lib kelishi D.ohangdoshlik faqatgina misralar oxiridagi so'zlardagina bo'lmay, misra ichidagi so'zlarda ham uchrashi

781. Sendek saname ko'rmam Lutfiy Chig'atoyda, Chin so'yla, Xito xo'blariga ne bo'lursan? Qanday she'riy san'at qo'llangan? A.iyhom B.istiora S.tamsil D.husni ta'lil

782. Sochilgan sochingdek sochilsa siring, Anor yuzlaringni kimga tutasan. Cho'lpon qalamiga mansub ushbu baytda poetik fonikaga oid qaysi tushuncha bilan bog'liq xususiyat mavjud? A.konsonant alliteratsiya B.monorim C.assonans D.vokal alliteratsiya

783. T.Malikning fantastik asarlari yozilish yo'nalishi bilan to'g'ri tartiblangan javobni aniqlang. 1."Somon yo'li elchilari" 2."Zaharli g'ubor" 3."Chorrahada qolgan odamlar" 4."Falak" 5."Charxpalak" 6."Bir ko'cha, bir kecha" 7."So'nggi o'q" 8."Shaytanat" a.detektiv b.sarguzasht A.1-a, 2-a, 3-a, 4-a, 5-b, 6-b, 7-b, 8-b B.1-b, 2-b, 3-b, 4-b, 5-a, 6-a, 7-a, 8-a C.1-a, 2-b, 3-a, 4-b, 5-a, 6-b, 7-a, 8-b D. 1-b, 2-a, 3-b, 4-a, 5-b, 6-a, 7-b, 8-a

784. T.Sulaymonning "Armon" nomli she'rida "El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo'lsa..." degan misra bor. Shoirga el-yurt baxtini kuylash qachon va nega yarashmaydi? 1.agar el-yurt aslida baxtsiz bo'lsa-yu, uni baxtli deya kuylash chinakam shoirga yarashmaydi; 2.agar o'zini shoirman deb yurgan odam el-yurt baxtini samimiy, ishonarli va ta'sirli kuylay olmasa, bu ham yarashiqsiz qiliqdir; 3.agar shoir el-yurt baxtini kuylashni oddiy maddohlik deb o'ylab, o'ziga ep ko'rmasa, bu – ijodkor samimiyatidan emas, balki takabburlikdan nishonadir; 4.agar shoir o'z ijodida nuqul muammobozlik, hasrat bilan shug'ullanib, baxt qo'shiqlarini kuylashdan qolgan bo'lsa, bu zo'rma-zo'rakilik yarashmasligi bilan darrov o'zini oshkor qiladi. A.1, 2, 3 B.1, 2 C.1, 2, 3, 4 D. 3, 4

785. T.Sulaymonning "Armon" nomli she'ridan olingan quyidagi misralarda raqamlar o'rniga mos so'zlarni qo'ying. Gulzorni alaf bossa, zog' bossa (1) turib, Muallaq qolsa kimdir, er turib, (2) turib, Bir gazanda toptasa tuproqni (3) turib, Bir yo'rtoq yo'l boshlasa, qudratli (4) turib. a.karvon b.osmon C.posbon d.bog'bon A.1-b, 2-d, 3-a, 4-s B.1-d, 2-b, 3-s, 4-a C.1-s, 2-d, 3-b, 4-a D. 1-d, 2-s, 3-a, 4-b

ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

786. T.Sulaymonning "Iltijo" nomli she'ridan olingan quyidagi misralarda raqamlar o'rniga mos so'zlarni qo'ying. O'lmaslikka ishora – (1) ga oshiqligim, Saodatga ishora – (2) ga oshiqligim, Teranlikka ishora – (3) ga oshiqligim, Go'zallikka ishora – (4) oshiqligim. a.bo'ston b.zamon s.o'lan d.ummon A.1-a, 2-b, 3-s, 4-d B. 1-s, 2-b, 3-d, 4-a C. 1-b, 2-a, 3-d, 4-s D. 1-d, 2-s, 3-a, 4-b
787. T.Sulaymonning qaysi she'rining toq bandlarida barcha misraning, juft bandlarida 3 misraning o'zaro, 4-misraning toq bandlar bilan qofiyadoshligi kuzatiladi? A."Armon" B."Iltijo" C."Tavallo" D."Gul bir yon, chaman bir yon"
788. T.To'laning bolalarga bag'ishlangan asarini toping. A."Malikayi Turandot" B."Yetti zog'ora qissasi" S."Do'ppi tikdim" D."Sartarosh qo'shig'i"
789. Talabalik yillarida duradgor, g'isht tashuvchi bo'lib ishlagan yozuvchi kim? A.T.Malik B.Z.A'lam C.SH.Xolmirzayev D.M.M.Do'st
790. Taqdir kuldi, o'lim tegmasdan O'tib ketdi, qilmadi ju'rat Netay, axir so'nggi minutda Pistoletim qildi xiyonat … Ushbu parcha M.Jalilning qaysi she'ridan olingan? A."Kechir yurtim!" B."Ishonma" C."O'rtoqlar" D."Biz boramiz"
791. Tarixiy afsona nomini aniqlang. A."Hazrati Xizr" B."Kalta minor" S."Qayumars" D."Anbar ona"
792. Tarjimayi holida dastlabki mashqlarini talabchan tog'asiga ko'rsatishdan cho'chiganini tan olgan ijodkor kim? A.Z.A'lam B.T.Malik C.N.Normatov D.E.Vohidov
793. Tarjimayi holida shoir Chustiy, xonandalar aka-uka Shojalilovlar, Ma'rufxo'ja Bahodirov, buyuk olim va tarjimon Alixon Sog'uniy, oddiy pochta xizmatchisi Mulla Shukurjon, savdo xodimi Akmalxon akalarning zukko bahslariga mahliyo bo'lganini yozgan ijodkor kim? A.A.Oripov B.M.Yusuf C.A.Suyun D.E.Vohidov
794. Tavg'ach xonning to'rg'usi telim, tenglazib bo'lmas, ya'ni Qoraxitoy hoqonining ipak gazmoli ko'p, lekin o'lchamay kesilmaydi maqoli qaysi manba orqali bizga qadar yetib kelgan? A."Yatimat ud-dahr" B."Qutadg'u bilig" S."Hibat ul-haqoyiq" D."Devonu lug'atit turk"
795. Ta'sirchan, to'g'riso'z va mag'rur ... savdo ishlariga mutlaqo qiziqmas, u kecha-kunduz kitob bilan oshnolik qilar, ko'p vaqtini she'rlar yozib o'tkazar edi. Faqat iqtisodiy foyda keltiradigan yumushlar bilan shug'ullanishinigina tan oladigan amakisiga uning bu ishlari yoqmasdi. Nuqtalar o'rniga mos nomni qo'ying. A.Hayne B.U.Azim C.T.Malik D.Pushkin
796. Tilin tugmishin tishin yazmas, ya'ni til bilan aytilganni, tish bilan yechib bo'lmas maqoli qaysi manba orqali bizga qadar yetib kelgan? A."Yatimat ud-dahr" B."Qutadg'u bilig" S."Hibat ul-haqoyiq" D."Devonu lug'atit turk"
797. Tokio, Moskva va Bokuda kimning haykallari o'rnatilgan? A.Navoiy B.Bobur S.Temur D.Ulug'bek
798. Tong otardi esnayur to'rt bulungdin shamol, ziyo. Misrada qo'llangan she'riy san'atni aniqlang. A.tashbeh B.tashxis C.tazod D.ta'did
799. Tog'ay Murodning buyuk muhabbat va ezgulikka baxshida umr tarixi tasvirlangan asari berilgan qatorni toping A."Yulduzlar mangu yonadi" B."Otamdan qolgan dalalar" S."Ot kishnagan oqshom" D."Oydinda yurgan odamlar"
800. Tog'ay Murodning qaysi asarida o'sha davr adabiyotida kamdan-kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatiladigan "sovet kishisi" tabiatiga xos bo'lgan turfa illatlar badiiy tarzda ishonarli va ta'sirchan tarzda tasvirlab berilgan? A."Yulduzlar mangu yonadi" B."Otamdan qolgan dalalar" S."Ot kishnagan oqshom" D."Oydinda yurgan odamlar"
801. Turdi Farog'iyning millatni birlashishga chorlovchi she'rlariga hamohang "Vatan nadir?" nomli she'r bitgan shoirni aniqlang. A.E.Vohidov B.A.Oripov. C.S.Sayyid D.Z.Mirzo.
802. Turli personajlar taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo'lmasligi, u har daqiqada kutilmagan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligi g'oyat ta'sirli aks ettirilgan asar qaysi javobda berilgan? A."Kapitan qizi" 2."Oq kema" C."Olabo'ji" D."Oydinda yurgan odamlar"
803. Turnalar tuya karvoniga o'xshatilgan asarni toping. A."Muhabbatnoma" B."Suhayl va Guldursun" S."Qutadg'u bilig" D."Lisonut tayr"
804. Turob To'laning dastlabki she'riy to'plami qaysi? A."Shodligim" B."Tabassum" S."She'rlar" D."Gulyor"




ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

805. Turoq nima? A.Shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo‘lib, ma’lum bir qolipga solingan ritmik nutq B.Qolipga, o‘lchamga solingan nutq C.Vazndan vaznga ko‘chishga asoslangan she’riy tizim D.Barmoq she’r tizimida misralardagi bo‘g‘inlarning muayyan guruhlarga bo‘linishi
806. Tuya hasharotlarni yoqtirmaydi, ammo u tirik ekan, ular uning burnida yashayveradi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
807. Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol! Ushbu misralar quyidagi qaysi asarda epigraf vazifasini bajargan? A.“Mirzo Ulug‘bek” B.“Jaloliddin Manguberdi” C.“Ruhlar isyoni” D.“Sarbadorlar”
808. Tush tasviri ifodalangan asarlarni belgilang. 1.“Nizomning tantiligi” (P.Qodirov) 2.“Oq kema” (CH.Aytmatov) 3.“Yazd cho‘li” (M.Osim) 4.“Ona tilim” (R.Hamzatov) 5.“O‘zbeklar” (SH.Xolmirzayev) 6. “Ravshan” A.1, 4, 6 B. 4, 6 C. 1, 2, 3, 4, 5, 6 D. 4
809. To‘maris afsonasidagi voqealar sodir bo‘lganidan keyin qancha muddat o‘tgach, Herodot yashab o‘tgan? A.150 yil B. 300 yil C.voqea sodir bo‘lgan yilda tug‘ilgan. D.100 yil.
810. To‘maris nomi qaysi nomda uchramaydi? 1.Tomris 2.Tamiris 3.Tamirida 4.Tamrida A.4 B.1 C.2 D.3.
811. To‘maris so‘zining o‘zagi quyidagi qaysi so‘z ma’nosini beradi? A.bronza. B.tosh. C. yog‘och. D.temir
812. To‘marisning tengsiz jasorati tasvilangan lirik asar qaysi javobda berilgan? A.“Mardlik afsonasi” B.“To‘maris” C.“Spitamen” D.barcha javobda To‘maris jasorati haqida so‘z yuritilgan
813. To‘nyuquq bitigida turkiylarga Tabg‘ach (1), O‘g‘uz (2), Xitoy (3)ning hujum qilmoqchi bo‘lgani yozilgan. Uch tarafdan hujum rejalashtirilgan. Davlat va tomonni ifodalovchi tushunchalar mosligini aniqlang. A.janub B.shimol D.sharq A.1-b, 2-a, 3-d B.1-d, 2-b, 3-a C.1-a, 2-d, 3-b D.1-a, 2-b, 3-d
814. To‘nyuquq bitigida uchraydigan nomlar va ularning nimaning nomi ekani muvofiqligini belgilang. 1.Ko‘k o‘ng 2.O‘tukan 3.To‘g‘la. 4.Ingak 5.Shantung 6.O‘n o‘q 7.O‘g‘uz 8.Turgash 9.Ko‘gman 10.Oq tarmal 11.Qirg‘iz 12.Az 13.Yaris A.daryo B. tog‘ D.daryo e)ko‘l f)shahar l)qabila h)qabila k)qabila n)tog‘ t)daryo y)qabila g)qabila q)dasht A.1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-f, 6-l, 7-h, 8-k, 9-n, 10-t, 11-y, 12-g, 13-q B. 1-b, 2-a, 3-e, 4-d, 5-l, 6-f, 7-k, 8-h, 9-t, 10-n, 11-g, 12-y, 13-q C. 1-q, 2-g, 3-n, 4-k, 5-h, 6-l, 7-f, 8-e, 9-n, 10-t, 11-d, 12-b, 13-a D.1-h, 2-y, 3-d, 4-q, 5-n, 6-l, 7-a, 8-k, 9-f, 10-t, 11-b, 12-g, 13-e
815. To‘nyuquq o‘z umri davomida qaysi xoqonlarga xizmat qilgan? A.Turk Bo‘g‘u xoqonga, Eltarish xoqonga, Turk Bilga xoqonga B.faqat Bilga xoqonga C.Bilga xoqonga, eltarish xoqonga D.faqat eltarish xoqonga
816. To‘g‘ri mulohazani aniqlang. 1.Qo‘qon adabiy muhiti 2.Xiva adabiy muhiti 3.Buxoro adabiy muhiti; a-tarjimachilik; b-tarixiy asarlar; d-dostonnavislik va hajviyot A.1-a, 2-d, 3-b B. 1-d, 2-b, 3-a S.1-d, 2-a, 3-b D.1-b, 2-d, 3-a
817. Tajnisli zulqofiyatayn qo‘llangan baytni aniqlang. A.Mashaqqatdin yigitni el qari der, Ki, qozilmish ikki-uch yuz qari er. B.Kuychilari o‘qiydi yalla, Juvonlari aytadi alla. S.Botirlari kanal qazadi, SHoirlari g‘azal yozadi. D.to‘g‘ri javob berilmagan
818. Tarix fanidan qo‘llanma, tavsiya va darsliklar yaratgan adib kim? A.Mirkarim Osim B.Mirmuhsin S.Mirzakalon Ismoiliy D.Habib Nu’mon
819. *Tog‘da tilaymon*ni ko‘rdim, Suvda sulaymonni ko‘rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zda nima nazarda tutilgan? A.bo‘ri B.baliq S.sumalak. D.toshbaqa.
820. Tog‘da tilaymonni ko‘rdim, *Suvda sulaymon*ni ko‘rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zda nima nazarda tutilgan? A.bo‘ri B.baliq S.sumalak. D.toshbaqa.
821. Tog‘da tilaymonni ko‘rdim, Suvda sulaymonni ko‘rdim, *Tuzsiz pishgan osh*ni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim. Ajratib ko‘rsatilgan nima nazarda tutilgan? A.bo‘ri B.baliq S.sumalak. D.toshbaqa.
822. Tog‘da tilaymonni ko‘rdim, Suvda sulaymonni ko‘rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, *Yumalab yotgan toshni* ko‘rdim. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zda nima nazarda tutilgan? A.bo‘ri B.baliq S.sumalak. D.toshbaqa.




ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

823. U bor senda va menda, Qo‘y-chi, har insonda, Eng yaxshisi asal – qand, yomon-chi, berar pand. Topishmoq javobini aniqlang. A.til. B.aql S.nigoh D.barchasi to‘g‘i
824. U dunyo va bu dunyo masalalari o‘ziga xos tarzda tasvirlangan, “Bu dunyoga kelganim – U dunyoga safarim” misralari bilan boshlanuvchi she’r muallifi kim? A.I.Mirzo B.B.Ro‘zimuhammad. C.Faxriyor D.SH.Rahmon
825. U faqat o‘zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir. I.Karimovning yuqoridagi mulohazalari kim to‘g‘risida? A.A.Qodiriy B.Cho‘lpon S.Navoiy D.Berdaq
826. U yoqqa o‘tdim bildingmi? Bu yoqqa o‘tdim bildingmi? Oq quvrayning boshini, CHertib o‘tdim bildingmi? SHe’riy topishmoq javobini toping. A.qurbaqa B.chigirtka S.shamol D.bulut
827. U.Hamdamning “Munojot” she’rida shoir nimaga murojaat qiladi? A.umidga B.armonga. C.boqiy umrga D. o‘tmishga
828. U.Nosir she’riyatida nima “gul”ga, “barglari ko‘m-ko‘k palak”ka, go‘zal “malak”ka o‘xshatilgan? A.yor B.bolalik S.xayol D.ilhom
829. Umrining so‘nggi yillarida Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat ko‘rsatgan ijodkorni belgilang. A.SH.Rahmon B.R.Parfi S.M.Yusuf D.A.Muxtor
830. Uning asarlari davrimizning eng dolzarb muammosi bo‘lmish tabiatni asrash muammosini hal etishda dasturulamal bo‘ldi… Ushbu jumla kim haqida? A.SH.Xolmirzayev B.Seton-Tompson C.SH.Rahmon D.Mirtemir
831. Uning nomini abadiylashtirish uchun bir qator ishlar qilingan. Miroboddagi shoir yashagan uyda muzey ochilgan. Toshkent ko‘chalaridan biriga nomi berilgan. Respublika xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutiga ham uning nomi berilgan. Gap kim haqida krtyapti? A. A.Avloniy B. A.Qodiriy C. H.Olimjon D.to‘g‘ri javob yo‘q
832. Uning tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go‘zal qiyoslar, betakror obrozlar yaratish mahorati XX asrning 50-60-yillarida yozgan “Bulut”, “Shudring” nomli she’rlarida yaqqol seziladi. Ushbu fikrlar kim haqida? A. U.Nosir B. Mirtemir C. Oybek D. G‘.G‘ulom
833. Uning she’rlari “harorat bilan bitilgan ehtirosli, hayotbaxsh she’rlardir”. Gap kimning ijodi haqida bormoqda? A. H. Olimjon B. J.Jabborov C. Zulfiya D. Ibroyim Yusupov
834. Urushda ikki akasidan ayrilgan shoir kim? A.Faxriyor B.B.Ro‘zimuhammad C.Shuhrat D.R.Hamzatov
835. Usmon Nosir tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Haqiqiy kun qachon keladi?” asari kimning qalamiga mansub? A. A.S.Pushkin B. N.A.Dobrolyubov C. G.Geyne D. M.Y.Lermontov
836. Usmon Nosirning Samarqanddan onasiga yozgan she’riy maktubi qanday nomlanadi? A.“Bolaligimga” B.“Oq yuvib, oq tarab” C.“Yo‘lchi” D.“Yurak”
837. Ustiga kitob ortilgan eshak, Na olim va na donodir beshak. Ushbu hikmat muallifi kim? A.Firdavsiy B.Sa’diy C.Abay D.Avloniy
838. V.Xlebnikov qalamiga mansub “Razin” poemasida boshdan-oyoq ... usuli qo‘llangan? Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying. A.antiteza B.alliteratsiya C.ritorik murojaat D.polindrom
839. Vatan tuyg‘usi insonning o‘zi bilan birga o‘sib-ulg‘ayadigan tuyg‘u bo‘lar ekan, deya e’tirof etgan ijodkor nomini aniqlang. A.O.Sharafiddinov B.CH.Aytmatov C.A.Fitrat D.O‘.Sulaymon
840. Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani, Endi bilsam Vatan erkon bu tanlar(n)ing shirin joni. Misralar muallifi kim? A.Behbudiy B.Cho‘lpon S.Hamza D.Fitrat
841. Vatanni olib ketib bo‘lmaydi. Faqat sog‘inch va armonlarimizni olib ketamiz. Ushbu otashin nutq qaysi qahramonga tegishli? A. Jaloliddin Manguberdi B.To‘maris C.Guram Jo‘xadze D. Temur Malik
842. Venetsiyalik mavr kim? A.Brabansio B.Lodoviko C.Otello D.Montano
843. Xalqaro "Nilufar" mukofotining sovrindori kim? A. A.Oripov B. E.Vohidov C.Zuifiya D. S.Ahmad
844. Xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqatli hayotini Ikromjon, Jannat xola, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A’zamjon kabi qator qahramonlar taqdiri orqali yorqin tasvirlangan asar nomi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? A.“Ufq” B.“Sarob” S.“Shinelli yillar” D.“Ikki eshik orasi”




ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

845. Xalqini "o'choqdagi olovim so'nmasin desang, ariqdagi suvlarim tinmasin desang, gullarimning shoxlari sinmasin desang, bola-chaqam qon yig'lab qolmasang desang… ona yurtim daxlsiz, muqaddas desang" singari hayqiriq va murojaatlar bilan kurashga boshlagan qahramon qaysi asarda tasvirlangan? A."Ona lochin vidosi" B."Mardlik afsonasi" C."Jaloliddin Manguberdi" D."To'nyuquq"
846. Xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan asar... A."Qiyomat" B."Nido" C."Alvido, Gulsari" D."Ruhlar isyoni"
847. Xamsachilikka Navoiy tomonidan kiritilgan eng katta yangilik deb baholangan narsa nima? A.Xusrav va Shirin dostoni mazmunini o'zgartirib, unga Farhodni bosh qahramon qilgani B.turkiy tilda birinchi yozgani S.Chuqur falsafiy qarashlarni kiritgani D.Hayratlanarli darajada qisqa vaqtda yozib tugatgani
848. Xatti-harakatlarida allaqanday jo'shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor ayol obrazi qaysi javobda to'g'ri berilgan? A.Ra'no ("Mehrobdan chayon") B.Kumush ("O'tkan kunlar") C.Zebi ("Kecha va kunduz") D.Jamila ("Jamila")
849. Xitoydan Dunay daryosiga cho'zilgan, turkiy xalqlarning birinchi davlati nomi nima? A.Kushon. B.O'zgand. C.Saqa D. Tabg'ach.
850. Xurosonda ostonasi gulga ko'milgan bir darvoza borligi, unda bir pariruxsor yashashi, bu darvozani bir marta bo'lsa-da ocha olmagani haqida armon bilan she'r yozgan shoir kim? A.Sa'diy B.Pushkin C.S.Yesinen D.T.Jo'ra
851. XV-XVI asr voqealariga bag'ishlanga jangnoma asar qaysi? A"Boburnoma" B."Zafarnoma" C."Tarixiy Rashidiy" D."Shayboniynoma"
852. XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator iste'dodli yozuvchilar kirib kelishdi. Ular… A.M.M.Do'st, M.Rahmon, X.Sultonov, T.Murod B.M.M.Do'st, E.A'zam, X.Sultonov, T.Murod C.SH.Pahmon, X.Davron, U.Azim, M.Rahmon D.yuqoridagilarning barchasi
853. Yamog'i bor, yirtig'i yo'q, Qaychilamay qiygan, Ignalamay tikkan. Topishmoq javobini toping. A.namat B.po'stak S.ola sigir terisi D.kafan
854. Yangicha ohangga ega bo'lgan "Qon hidi" romani kimning qalamiga mansub? A.A.Normurodov B.N.Norqulov S.N.Eshonqul D.L.Bo'rixon
855. Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti, Seni ko'rkluklar uzra xon yaratti. 2-misrada kim nazarda tutilgan? A.Yusuf payg'ambar B.Muhammad Xo'jabek C.To'qbug'abek D.Tabg'ach Qora Bug'roxon
856. Yer kurrasining qo'ltiqtayoqlar zahmidan ingrayotgani haqida qaysi asarda iztirob bilan yozilgan? A."Qiyomat" B."Nido" C."Jangchi Tursun" D."Ruhlar isyoni"
857. Yerga ursa, ko'kka sapchiydigan, bir joyda uzoqroq turib qolsa, yuragi siqilib ketadigan, tinib-tinchimas bola obrazi qaysi asarda mavjud? A."Hellados" B."Shum bola" C."Bolalik" D."Sariq devni minib"
858. Yevropa davlatlarida romanning dastlabki namunalari nechanchi asrlarda yaratila boshlangan? A. XIV-XVI B.XV-XVI S.XVI-XVII D.XIV-XV
859. Yevropada ijtimoiy masalalar dastlab kimning asarlarida o'rtaga qo'yilgan? A.Shekspir B.Hayne S.Russo D.Karamzin
860. Yigitlaring ishlatu, Yig'ach yamish irg'atu, Qulan keyik avlatu, Bazram qilib avnalim. "DLT"dan olingan ushbu parchada nimaning ta'rifi keltirilgan? A.osmon B.bahor S.sevikli yor D.o'yin-kulgi
861. Yobi dema, shu ot tulpor ekandi, Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi. "Ravshan" dostonidan olingan ushbu parchadagi yobi shu deganda qanday ot tushuniladi? A.cho'bir, qirchang'i B.chopag'on, qo'ng'ir C.ulkan, yirik D.saman, qashqa
862. Yolg'iz bolaning yovdan yomonligi haqidagi fikr qaysi xalq dostonida uchraydi? A."Alpomish" B."Rustamxon" C."Malika ayyor" D."Ravshan"
863. Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar, Tomchilar tomchilar sochimga, Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar, Ham qayg'umga, ham quvonchimga. R.Parfining "Yomg'ir yog'ar" she'ridan olingan ushbu to'rtlikda qanday badiiy san'atlardan foydalanilgan? A.takrir, tazod, tardu aks, iyhom B.tazod, tashbeh, tanosub, sifatlash S.takrir, tazod, tajnis, alliteratsiya D.tashxis, takrir, assonans, iyhom
864. Yoring jafokash bo'lsa, uy bir yon, zindon bir yon, deb nola qilgan shoir kim? A.T.Sulaymon B.SH.Rahmon C.A.Oripov D.E.Vohidov



ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

865. Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbati, she'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati hayotning asl mazmuni ekani to'g'risida she'r yozgan ijodkor kim? A.Bobur B.Rudakiy C.Umar Xayyom D.Rumiy
866. Yoshligidayoq hayotning bor mashaqqatlarini boshidan kechirgan yozuvchi kim? A.J.London B.J.Rodari C.U.Sayfiddin. D.Tompson
867. Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish. Ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish. Ushbu hikmat quyidagi qaysi adabiy manbadan olingan? A.To'nyuquq B.Bilga xoqon C.Kultegin D. "Avesto"
868. Yuragida tushsa ham g'uluv, Qolsa hamki zo'r hayrat ichra, Hayajonu xijolat ichra, O'zgarmaydi zarracha suluv. Ushbu tasvirlarda qaysi go'zal qiz tasvirlagan? A.Zulxumor B.Tatyana C.Shirin D.Layli
869. Yuragini qiyma-qiymalab olovlarga otmoqchi bo'lgan lirik qahramon kimning she'rida uchraydi? A.M.Yusuf B.Faxriyor C.R.Parfi D.B.Ro'zimuhammad
870. Yurak dardi yosh bo'lib, To'lib kelar ko'ziga. Marjon-marjon tomchilar Oqib tushar yuziga. (S.Yesinen) Ushbu misralarda kimning yoki nimaning iztiroblari tasvirlangan? A.Vatandan uzoqdagi asirning B.qalbida ibodatga moyillik kuchli bo'lgan onaning C.bolalari olib ketilgan itning D.ini buzilgan musichaning
871. Yuraklarda yurmagini, Oh, oldindan bilgan qush. Har o'zbekning yuragini, O'ziniki qilgan qush. Ushbu misralar muallifini aniqlang. A.H.Xudoyberdieva B.H.Axmedova C.R.Musurmon D.U.Azim
872. Yurganim, ko'rganim dasht, cho'l, boqqanim qo'y-qo'zi, ulfatim jafokash cho'ponlar bo'ldi. Umrim bino bo'lib yoshligimda, yigitligimda yangi kiyim kiyganimni, qornim ovqat yeganini bilmayman. Ushbu ma'lumotlar qaysi xalq baxshisi tarjimayi holidan olingan? A.Po'lkan shoir B.Islom shoir Nazar o'g'li S.Ergash Jumanbulbul D.Fozil Yo'ldosh.
873. Yurtidan chiqqan Alpomishga yo'lda kimlar yordam beradi? 1.Shohimardon pir 2.Qorajon 3.Chiltonlar A.1, 2, 3 B.1, 2 C.2, 3 D.1, 3
874. Yurtimizda vaqtli matbuotning vujudga kelishida va rivojida kimning xizmati katta hisoblanadi? A.Avloniy B.Cho'lpon C.Fitrat D.Hamza
875. Yuz yil senga atab she'r yozsam ham, bu narsa senga bo'lgan dildagi sevgimning o'rnini bosolmaydi, deb Vatan madhida go'zal misralar bitgan shoir nomini aniqlang. A.M.Yusuf B.S.Zunnunova C.R.Parfi D.I.Mirzo
876. Yuzingni ko'rsa, qilur gul o'zini yuz pora, Xo'tan yozisida ohu ko'zingdin ovora. Baytda qo'llangan san'atni toping. A.talmeh B.irsoli masal S.husni ta'lil D.tashbih.
877. Yuzingni qilur toza ko'zum yoshiyu ohim, gul toza bo'lur topsa bale obu hayvoni. Baytda qo'llangan san'atni toping. A.mubolag'a B.irsoli masal S.husni ta'lil D.tashbih.
878. Yuzlab qalandarlarga yo'lboshchi bo'lib olib, har gapida qayta-qayta Xudoni tilga oladigan ikkiyuzlamachi Eshon obrazi qaysi asarida uchraydi? A."Hellados" B."Shum bola" C."Oydinda yurgan odamlar" D."Sobiq"
879. Yolg'on, uning yolg'on ekanini anglagach o'zini o'zi o'limga mahkum etgan adabiy qahramon nomini qaysi javobda to'g'ri berilgan? A.Muqanna B.Tangriqul C.Otello D.Abulfayzxon
880. Zamonaviy adabiyotda misralarning yoki nasriy gaplarning boshida bir xil so'z va iboralarning, tovushlarning takrorlanib kelishini ifodalovchi atamani aniqlang. A.anafora B.ellipsis C.apostrofa D.epifora
881. Zamonaviy she'riyatda misralar oxirida tovushlar, so'zlar, iboralarning takrorlanib kelishini ifodalovchi atamani aniqlang. A.anafora B.ellipsis C.apostrofa D.epifora
882. Zolimning maqomi – qudrati, zulmi oxir-oqibat zaiflashib, kuchdan qoladi. Lovullab yonayotgan olov ham bir kun kelib kulga aylanadi. Ushbu hikmat muallifi kim? A.Navoiy B.Rumiy C.Bedil D.Sheroziy
883. Zomin tomonlardan olib ketilgan kishilar orasida baquvvat, devkor va chapdast Normuhammad churog'a ham bor edi. U O'ratepa begining yaqinlaridan bo'lib, elda katta e'tiborga ega edi. Normuhammad churog'a bolalariga yaxshi tarbiya berishdan shaklidan tashqari ularning bilim olishlariga ham e'tibor qildi. Shijoatli va qattiqqo'l otaning tarbiyasini olgan o'g'li Beknazar polvon mulohazali, bosiq va mo'minqobil kishi bo'lib yetishdi. U shunchalar baquvvat ediki, zig'ir va chigitdan moy chiqaradigan juvozning ho'kizi charchab qolganida o'rniga kun bo'yi juvozni





ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

aylantiradi. Beknazardan Ahmad otli bobosiga o‘xshab ketadigan dangalchi, chapani tabiat o‘g‘il dunyoga keldi. U yoshiga yetib maktabga bora boshlagan kezlarda dunyoning tartiblari ostin-ustun bo‘lib ketdi. Shu sabab tuzukroq o‘qiy olmadi. Oktabr to‘ntarishi sodir bo‘ldi. O‘z so‘zli, g‘ayratli Ahmad polvon sho‘ro davridagi ilg‘or ketmonchilardan bo‘ldi. Ana shu dangalchi, oriyatli va mehnatkash yigit o‘ttiz ikki yoshida o‘g‘il ko‘rdi. Gap qaysi ijodkor va uning ajdodlari to’g’risida? A.Muhammad Ali B.Ergash Jumanbulbul C.Umar baxshi Nazar o’g’li D.Abdulla Nurboy o’g’li

884. Zulm naqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo‘ladi. Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan? A.”Mehrobdan chayon” B. “Yovvoyi yo‘rg‘a” C.”Oq kema” D.”Dahshat”

885. Zoriqtirmay kelsang-chi bir, Intizor qilding buncha, Deb yaproqlar tebranadi, To charchab uxlaguncha. Ushbu misralarda qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.jonlantirish B.tazod C.tadrij D.tazmin

886. O‘.Hoshimov qalamiga mansub romanlarni belgilang. A.“Qatag‘on”, “Muhabbat”, “Tushda kechgan umrlar” B.“Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor”, “Tushda kechgan umrlar” C.“Qatag‘on”, “Inson sadoqati”, “To‘ylar muborak” D.“Tushda kechgan umrlar”, “Shamollar esaveradi”

887. O‘.Hoshimovning hikoyalari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? A.“Bahor qaytmaydi”,“Inson sadoqati” B.“Urushning so‘nggi qurboni”, ”Muhabbat” C.“Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor” D.“Qatag‘on”, “Inson sadoqati”

888. O‘.Hoshimovning pyesalarini ko‘rsating. A.“Qatag‘on”, “Muhabbat” B.“Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor” C.“Qatg‘on”, “Inson sadoqati”, “To‘ylar muborak” D.“Tushda kechgan umrlar”, “Shamollar esaveradi”

889. O‘n bo‘limdan iborat “Ro‘yo” nomli she’r muallifi kim? A.Hayne B.Pushkin C.U.Nosir D.Shayxzoda

890. O‘rmonda bir g‘aroyib qush paydo bo‘ldi. Inson ovoziga o‘xshash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig‘lardi… Qaysi asardan olingan? A.”Oq kema” B.”O‘zbeklar” C.”Nido” D.”Dahshat”

891. O‘rxun-Enasoy bitigtoshlarida “tun o‘rtasi” deganda Yer yuzasining qaysi tomoni nazarda tutilgan? A.janub B.shimol C.g‘arb D.sharq

892. O‘tar dunyo o‘tarini o‘yladi, Tanqa tashlab Olatog‘ni yoyladi. “Alpomish” dostonidan olingan ushbu bayt qofiyasida poetik fonikaga oid qaysi tushuncha bilan bog‘liq xususiyat mavjud? A.konsonant alliteratsiya B.monorim C.assonans D.vokal alliteratsiya

893. O‘tarsen o‘ynay-o‘ynay men gadoyi xasta yo‘l uzra, Qolurmen bir qiyo boqmoq uchun yolbora-yolbora. Navoiy qalamiga mansub ushbu baytning har ikki misrasida ham uchraydigan she’r san’atini aniqlang. A.tardi aks B.mukarrar C.takrir D.muvozina

894. O‘ttiztacha davlatchaga bo‘linib yashayotgan yagona millatning g‘arib ahvoli, qoloqlik botqog‘iga botganligini afsus-nadomatga to‘la achchiq til bilan fosh etgan asar qaysi javobda berilgan? A.“Yo‘l lavhalari” B.“Qullar kemasi” C.“Romansero” D.“Fransuz ishlari”

895. O‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalari va usullaridan folklorning qaysi janrida ko‘p foydalaniladi? A.maqol B.rivoyat. C.topishmoq D.afsona.

896. O‘z asarida poliztepada yulduz sanab yotgan bolani aks ettirgan ilodkor kim edi? A.O‘.Hoshimov B. A.Muxtor C. R.Hamzatov D. S.Zunnunova

897. O‘z asarini o‘zi tarjima qilgan chet el ijodkori nomi qaysi javobda keltirilgan? A.Shekspir B.Pushkin C.Hodiy D.Thokur

898. O‘z asrining 30- yillarida yozilgan asarlar berilgan qatorni aniqlang. 1.“Belkin qissalari” 2.“Toppon xonim” 3.“Ruslan va Lyudmila” 4.“Mis chavandoz” 5.“Erkinlik” 6.“Dubrovskiy” 7.“Kapitan qizi” A.1, 2, 6, 7 B.3, 4, 5 C.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 D.30- yillarda yozilgan asarlar berilmagan

899. O‘z davrida matbuotda “kuldurguchi va ham yig‘latguchi nosih va nofe’ asardur” deb e’tirof etilgan asarni belgilang. A.“Adabiyot yoxud milliy she’rlar” B.“Padarkush” C.“Uloqda” D.“Qor qo‘ynida lola”

900. O‘z davringda baxtingni taqdir qo‘lidan xalos et, Aysh-ishrat va xursandchilik bilan o‘tayotgan kunni g‘animat bil. Qilgan yaxshiliklaring o‘zingga qaytadi, Noshukrlar esa yomonligi bilan sharmanda bo‘ladi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”

901. O‘z ehsoningga meni umidvor qilding, xudo nomi bilan yolvoraman, arzimagan baqlajoningni tashla. Aytishlaricha, kimki taklif qilinmay dasturxonga kelsa, u o‘zini kamsitgan bo‘ladi. Ushbu fikrlar



ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

manbasini aniqlang. A."Tazkirat ul-avliyo" B."Nasoyim ul-muhabbat" S."Yatimat ud-dahr" D."Miftoh ul-adl"
902. O'z e'tiqodidan, dinidan kechmagan qahramon kim? A.Alpomish B.Rustamxon C.Kuntug'mish D.Ravshan
903. O'z ma'shuqasini o'pib turib o'ldirgan, ma'shuqasining jonsiz tanasini o'pib turib o'zini o'ldirgan adabiy qahramon nomini toping. A.Hamlet B.Edip C.Otello D.Qirol Lir
904. O'z muhabbati, his-tuyg'ularini uyatchanligi tufayli o'zgalardan yashirishga uringan qiz obrazi qaysi asarda mavjud? A."Otello" B."Yevgeniy Onegin" C."Yo'l lavhalari" D."Hamlet"
905. O'z ona tilini sevishga, hurmat qilishga buvisining ta'siri borligini yozgan adib nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan? A.CH.Aytmatov B.Shuhrat C.SH.Rahmon D.T.Sulaymon
906. O'z tug'ilib o'sgan yurtiga nisbatan "Nechun qulluq qilmay Andijonga men" deya yozgan shoirni aniqlang. A.Bobur B.M.Yusuf C.C.Zunnunova D.SH.Rahmon
907. O'z yurtidan tashqarida vafot etgan shoirlar qaysi javobda to'liq berilgan? 1.Hayne 2.Muqimiy 3.Furqat 4.Bobur 5.Pushkin 6.Shyxzoda 7.SHekspir A.1, 3, 4, 6 B.2, 5, 7 C.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 D.3, 4
908. O'z zamonasining amaldor, mansabdor shaxslari haqida "Kim nimani yaxshi ko'rar?" maqolasi orqali real manzarani tasvirlashga uringan adib kim? A.Behbudiy B.Avloniy S.Munavvarqori D.So'fizoda
909. O'zbek adabiyotida kam e'tibor qaratilgan fantastika janriga e'tibor bergan va bir qator asarlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozongan adib kim? A.Z.A'lam B.T.Malik C.N.Normatov D.X.Do'stmuhammad
910. O'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtda, ayrim millatdoshlarimizdagi cheklanganlik va ojizliklar buyuk bir mahorat bilan tasvirlangan doston... A."Alpomish" B."Rustamxon" C."Malika ayyor" D."Ravshan"
911. O'zbek mumtoz adabiyotida gul nimaning ramzi? A.hayot B.ma'shuqa S.muhabbat D.go'zallik
912. O'zbekistonning 2 ta nufuzli ordeniga musharraf bo'lgan qardosh millatga mansub ijodkor kim? A.O'ljas Sulaymon B.Mustay Karim C.Rasul Hamzatov D.CH.Aytmatov
913. O'zbek xalq maqoliga o'xshash "Jo'jani tuxum ochilgandan so'ng sana" maqoli qaysi millatning maqoli hisoblanadi? A.rus B.arab S.ispan D.ingliz
914. O'zi rostgo'y bo'lgani uchun hammani chin gapiradi, deb o'ylaydigan adabiy qahramon nomini aniqlang. A.Jamol B.Xorkumar C.Otello D.Ochil bo'va
915. O'zi tashkil etgan maktabda o'zi o'qituvchi va mudirlik vazifalarida ishlagan millatparvar nomi qaysi javobda berilgan? A.Hamza B.So'fizoda C.Avloniy D.Cho'lpon
916. O'zidan so'ng "ruh yerto'lasidan o'g'irlangan bitta so'z qoldirgim keladi" deb yozgan shoir kim? A.Faxriyor B.B.Ro'zimuhammad C.R.Parfi. D.SH.Rahmon
917. O'ziga xos son bilan bog'lab "Uchinchi kitob", "O'n she'r", "O'n besh yilning daftari" kabi she'riy to'plamlar yaratgan ijodkor kim? A.M.Shayxzoda B.H. Olimjon C.Oybek D.Shukurullo
918. O'ziga xos tarzda oy va nilufar gulning munosabati ifodalangan she'r kimning qalamiga mansub? A.Hayne B.Pushkin C.U.Nosir D.Shayxzoda
919. O'zimniki emas bu umr, To'la menikimas, sezib turibman Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir, Men uning uchun yashab yuribman. Misralari muallifi kim? A.A.Muxtor B.Shuhrat C.S.Zunnunova D.SH.Rahmon
920. O'zini kapalakka mengzagan shoir kim? A.M.Yusuf B.G'.G'ulom S.Oybek D.U.Nosir
921. O'zini chumoliga, Mahmud sultonni Sulaymonga o'xshatgan shoir kim? A.Xorazmiy B.Haydar Xorazmiy S.Yaqiniy D.Xo'jandiy
922. O'zining insofsiz yaqinlariga qarshi kurashgan qahramon qaysi xalq dostonida uchraydi? A."Alpomish" B."Rustamxon" C."Malika ayyor" D."Ravshan"
923. O'zining qaysi yurt, qaysi millat vakili ekanini kitobxonga eslatib "Sochlarimdan oltin rang olgan" satrlarini bitgan shoir kim? A.Pushkin B.Lermontov C.S.Yesinen D.M.Jalil
924. O'zining g'alati xarakteri bilan shoir ham bo'la olmagan, shuningdek, aqldan ham ozmagan, hatto o'lolmagan qahramon qaysi asarda uchraydi? A."Otello" B."Yevgeniy Onegin" C."Atta Tirol" D."Germaniya. Qish ertagi"

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM

925. O‘g‘illari va nevaralari bilan birga qatl etilgan ijodkor nomini toping. A.Maxtumquli B.Nodira S.Dilshodi Barno D.Husayniy
926. G‘arb adabiyotidagi qaysi qahramon xuddi Sharq she’riyatida bo‘lganidek, go‘zalning qarshisida g‘ussada qolmoq, bo‘zarmoq va so‘nmoqni rohat hisoblaydi? A.Otello B.Yevgeniy Onegin C.SHoshibushon D.Hamlet
927. G‘azallaridan birining maqta’sida jafo haddin oshib ketgani uchun ham, endi vafo kutishga haqi borligini oshkor qilgan shoir qaysi javobda berilgan? A.Atoyi B.Lutfiy C.Gadoiy D.Mashrab
928. G‘oz, oqqushu o‘rdak havoda shodon, O‘yinga berildi quvonib chunon. “Qutadg‘u bilig”dan olingan ushbu baytda qanday she’riy san’at qo‘llangan? A.tashxis B.ta’did S.tamsil D.tashbeh
929. SH.Xolmirzayev hikoyalari berilgan qatorni toping. A.”So‘nggi bekat”, ”Qil ko‘prik”, ”Yo‘lovchi”, ”Dinozavr” B.”Hayot abadiy’, ”Bodom qishda gulladi”, “Bulut to‘sgan oy” C.”Ko‘k dengiz’, ”Xumor’, ”Qadimda bo‘lgan ekan”, ”Tabassum” D.”O‘n sakkizga kirmagan kimbor?”, ”Bukri tol”, ”Bulut to‘sgan oy”
930. SH.Xolmirzayev qissalari berilgan qatorni toping. A.”So‘nggi bekat”, ”Qil ko‘prik”, ”Yo‘lovchi” B.”Hayot abadiy’, ”Bodom qishda gulladi” C.”Ko‘k dengiz’, ”Xumor’, ”Qadimda bo‘lgan ekan” D.”O‘n sakkizga kirmagan kim bor?”, ”Bukri tol”, ”Bulut to‘sgan oy”
931. SH.Xolmirzayev romanlari berilgan qatorni toping. A.”So‘nggi bekat”, ”Qil ko‘prik”, ”Yo‘lovchi”, ”Dinozavr” B.”Hayot abadiy’, ”Bodom qishda gulladi” C.”Ko‘k dengiz’, ”Xumor’, ”Qadimda bo‘lgan ekan” D.”O‘n sakkizga kirmagan kimbor?”, ”Bukri tol”, ”Bulut to‘sgan oy”
932. SH.Xolmirzayevning shakl, kompozitsiya jihatdan yangicha izlanishlarga mo‘l, ko‘proq monolog va diologlar asosida qurilgan romani... A.“Dinozavr” B.“Yo‘lovchi” S.“Olabo‘ji” D.“Qil ko‘prik”
933. Shaftolirang olam nayza ichida, Dunyolari yolg‘on, men o‘ldim chindan. Ushbu misralar muallifini aniqlang. A.Faxriyor B.B.Ro‘zimuhammad C.R.Parfi. D.SH.Rahmon
934. Shaharlarda ishga chiqib el, Odam bilan to‘lar tekstil. H.Olimjon qalamiga mansub ushbu bayt qofiyasida poetik fonikaga oid qaysi tushuncha bilan bog‘liq xususiyat mavjud? A.dissonans B.monorim C.assonans D.alliteratsiya
935. Sharq adabiyotida kimlar o‘z asarlarida masaldan unumli foydalanishgan? A.Navoiy, Bobur B.Navoiy, Attor S.Gulxaniy, Muqimiy D.Dehlaviy, Gulxaniy
936. Sharqda o‘z lirik merosini 4 kitobda jamlash an’anasi Dehlaviy, Navoiy ijodi misolida ma’lum. Shunday (yoki shunga o‘xshash) holat zamonaviy ijodkorlardan qaysi birining ijodida kuzatiladi? A.Oybek B.Shayxzoda C.A.Muxtor D.E.Vohidov
937. Sharqqa she’riyatni o‘rgatib bo‘lmaydi. Ushbu fikr muallifini aniqlang. A.Gelvetsiy B.Gordlevskiy S.A.Oripov D.N.Karimov
938. Shayx uldurkim, niyoz (tortiq) olsa, mustahiq (muhtoj)larg‘a, g‘arib bechorag‘a bergaylar. Agar olib, o‘zi yesa, murdor (harom) et yemishdek bo‘lg‘ay... Ushbu ta’rif manbasini aniqlang. A.“Yatimat ud-dahr” B.“Qutadg‘u bilig” S.“Hibat ul-haqoyiq” D.“Faqrnoma”
939. Shekspir qalamiga mansub “Qiyiq qizning quyilishi” asarini kim o‘zbek tiliga tarjima qilgan? A. G‘afur G‘ulom B. Turob To‘la C. X. To‘taboyev D. A. Qahhor
940. She’r nima? A.Shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo‘lib, ma’lum bir qolipga solingan ritmik nutq B.Qolipga, o‘lchamga solingan nutq C.Vazndan vaznga ko‘chishga asoslangan she’riy tizim D.Barmoq she’r izimida misralardagi bo‘g‘inlarning muayyan guruhlarga bo‘linishi
941. She’r uch xil yo’l bilan yuzaga keladi: 1.lahn 2.kalom 3.vazn. She’rni ana shunday tasnif qilgan alloma nomini aniqlang. A.Beruniy B.Ibn Sino C.Mahmud Koshg’ariy D.Forobiy
942. She’riyat, mazlumga homiylik qilding, Qaroli bo‘lmading zo‘ravonlarning. Olding panohingga notavonlarni, Zolimlarni esa dushman deb bilding. She’r muallifi kim? A.A.Muxtor B.Shuhrat C.R.Hamzatov D.SH.Rahmon
943. She’riyatda chinakam she’rning dunyoga kelishini aksariyat o‘rinlarda nimaga qiyos qilishgan? A.bolaning tug‘ilishiga B.chaqmoqning chaqishiga C.hijronning tugashi, visolning boshlanish zavqiga D.barcha javob to‘g‘ri

ADABIYOT BAZA 2019 1-QISM

944. She'rlarida bo'ysunmas, erksevar tog' xalqiga xos ruhiy holatlarni haqqoniy tasvirlagan shoir nomini ko'rsating. A.Pushkin B.Geyne C.Dante D.R.Hamzatov
945. She'rlaridan birida "ko'nglim ayiq bosgan gulday ezildi" deb yozgan shoir kim? A.M.Yusuf B.Faxriyor C.R.Parfi D.B.Ro'zimuhammad
946. She'rlaridan birini "Boshi toshdan bo'lsin jigarlaringizning, Ammo tosh bo'lmasin ko'ksida yurak" misralari bilan tugatgan shoir nomini ko'rsating. A.A.Muxtor B.S.Zunnunova C.R.Parfi D.Faxriyor
947. Shiroq eron shohi oldiga kirganida shoh... A.vaziri bilan shaxmat o'ynayotgandi. B. o'z to'tisi bilan suhbat qurayotgandi. C.yetti paxsa devor bilan o'ralgan bog' o'rtasidagi baland shiyponda may ichib, shakarguftorlik qilayotgandi. D.barcha javoblar to'g'ri
948. Shiroq urug'i orasida dostonchi chol deb nom qozongan. U o'z dostonlarini nima yordamida kuylar edi. A.qo'biz. B.do'mbira. C.tor. D.nay.
949. Shiroq o'z murodiga yetgani uchun qaysi tangriga shukur qiladi? A.Urush tangrisiga B.Quyosh tangrisiga C.G'alaba tangrisiga. D.otash va suv tangrisiga.
950. Shiroq o'z so'zlariga ishontirish uchun qaysi tangri nomini keltirib qasam ichadi? A.Urush tangrisi B.Quyosh tangrisi C.G'alaba tangrisi. D.otash va suv tangrisi.
951. Shoir bo'lib yetishishida tog'asi va shoir G'ayratiyning ta'siri bor bo'lgan shoir kim? A.A.Oripov B.M.Yusuf C.A.Suyun D.E.Vohidov
952. Shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog va davlot arbobi nomi qaysi javobda berilgan? A.Avloniy B.Botu C.CH.Aytmatov D.Hodiy
953. Shuhratni adib sifatida elga tanitgan asari qaysi? A."Oltin zanglamas" B."Olmos kamar" S."Jannat qidirganlar" D."Shinelli yillar"
954. Shukrullo qaysi asarida sibir lagerlarida o'zi ko'rgan dahshatli voqealarni qalamga olgan? A."Kafansiz ko'milganlar" B."Javohirot sandig'i" S."Tirik ruhlar" D."Asr bahsi"
955. Shukurulloning XX asr boshlarida mamlakatimizda yuz bergan hodisalar, xalqimizni savodli, ma'rifatli qilib, o'zligini, o'z haq-huquqlarini tanib, siyosiy ozodlikka erishishi uchun kurashgan fidoyi ajdodlarimiz tasvirlangan asari qanday nomlanadi? A."Kafansiz ko'milganlar" B."Javohirot sandig'i" C."Tirik ruhlar" D."Asr bahsi"
956. Shunchaki doston emas, balki xalqimizning ma'naviy olamini ko'rsatuvchi ko'zgudir, deb e'tirof etiladigan dostonni aniqlang. A."Alpomish" B."Rustamxon" C."Malika ayyor" D."Ravshan"
957. Sho'ro davlatining ayanchli tarixi yaxlit holda tasvirlangan asar nomini aniqlang. A."Dengiz yoqalab chopayotgan olapar" B."Jarayon" C."Jazo kaloniyasi" D."Jannat qidirganlar"
958. Sho'ro yerlarida bo'lgan urush voqesi aks etgan balladani toping. A."Ona va farzand" B."Quyosh qoraymas" C."Oltin zanglamas" D. Barcha asarlarda sho'ro yerlaridagi urush voqealari tasvirlangan
959. SHarq she'riyatining bilimdonlaridan M.Tabriziyning ta'kidlashicha, qofiya harflari soni nechta? A.15 B.5 S.9 D.10.
960. SHavqida ko'ksumni shigof ayladi, Jildig'a ko'nglumni g'ilof ayladi. Ushbu baytda qofiyaga oid qanday hodisa kuzatiladi? A.mutakarrin qofiya B.mahjub qofiya S.tajnisli qofiya D.kontrast qofiya
961. SHe'rim! Yana o'zing yaxshisan, Boqqa kirsang gullar sharmanda. Ushbu baytda qo'llangan so'zlarga nisbatan quyidagi qaysi atamani qo'llash mumkin? A.anafora B.ellipsis C.apostrofa D.epifora
962. SHe'riy asarda qofiyadagi raviy tovushning butun asar davomida aynan takrorlanishi nima deyiladi? Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying. A.dissonans B.monorim C.assonans D.alliteratsiya
963. SHe'rlaridan birida xo'roz qichqirig'i ortida shafaqrang qishloq namoyon bo'lganini tasvirlagan shoir nomini toping. A.Faxriyor B.B.Ro'zimuhammad C.R.Parfi. D.E.Samandar
964. SHe'rni atayin ikki yoki undan ortiq til so'zlari asosida yaratish san'ati nima deyiladi. A.mulamma' B.mukarrar C.takrir D.muvozina
965. CH.Aytmatov asarlari dunyoning nechta tiliga tarjima qilingan? A.45 B.145 C.54 D.154
966. CH.Aytmatovning "Oq kema" asarida nima to'kislik, mehr-oqibat, diydor ramzi hisoblanadi? A.durbin B.baliq C.bug'u D.oq kema
967. CH.Aytmatovning qaysi asariga "Ertakdan so'ng" degan kichik sarlavha quyilgan? A. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" B."Jamila" C."Oq kema" D."Asrga tatigulik kun"



ADBIYOT BAZA 2019 I-QISM

968. A.Qahhorning qaysi asari qahramoni o‘z uyida turmush o‘rtog‘iga “O‘rtoq xotin” deb murojaat qiladi? A.“Anor” B.“Boshsiz odam” S.“Notiq” D.“Adabiyot muallimi”
969. Abay “Nasihatlar” kitobida kimlarni tul deb atagan? A.bevafo do‘st, yo‘qolmas qarindosh, oqibatsiz qo‘shni B.beparvo dehqon, o‘ylamay aytilgan so‘z, tamagir shogird S.qayg‘usiz oshiq, shogirdsiz olim, g‘ayratsiz jahl D.maslahatsiz to‘y, bema’ni so‘z, sertakalluf hamroh
970. Afsonalar – haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on hikoyadir. Ushbu ta’rif muallifini aniqlang. A.Forobiy B.Ibn Sino S.Belinskiy D.Aristotel.
971. Asosiy mavzusi osmon, yer, suv parilarining ishlari, ruhlar, yovuzlik va ezgulik ilohlari, devlar, yer yuzida odamning paydo bo‘lishi, olamning tuzilishi va h.k.dan iborat bo‘lgan janr qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? A.hikoyat B.rivoyat S.afsona D.masal
972. O.Muxtor romanlari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan? A.“Ming bir qiyofa” B.“Qora kitob” C.“Ko‘zgu oldidagi odam” D.“Tepalikdagi xaroba”
973. Odam uchun eng yaxshi xursandchilik: o‘z qo‘li bilan ekkan daraxt mevalarini eyish. Yozgan she’rining kuylanganini eshitish va sevgan farzandlari uning xizmatida ko‘rish. Ba’zi birimiz bu uch baxtga egamiz, lekin bularning hammasiga xalaqit berguvchi tananing nimjon bo‘lib qolishi. Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
974. Odamning odamligini ta’minlab turadigan asosiy qadriyatlar haqida dard bilan yozilgan asar qaysi asar? A.“Asrga tatigulik kun” B.“Otello” S.“Evgeniy Onegin” D.“Ruslan va Lyudmila”
975. Ohangdoshlik faqatgina misralar oxiridagi so‘zlardagina bo‘lmay, ba’zan misra ichidagi so‘zlarda ham uchrashi qofiyaning qaysi turiga kiradi? A.mutakarrir qofiya B.mahjub qofiya S.tajnisli qofiya D.ichki qofiya
976. Olim sayyod baliq ichidan topgan bolaning ismi nima? A.Mohiboy B.Bahragul S.Murodxon D.Baxtiyor
977. Orol bo‘ylarida yashagan qadim amazonkalar (jangchi ayollar) hayotidan olib yozilgan “Tilsim saltanati” romani muallifi kim? A.U.Abdulvahob B.L.Bo‘rixon S.S.Vafo D.Z.Qurolboy qizi
978. Ota-onamdan judo bo‘lganim tufayli ko‘z yoshi to‘kaman. Kimki bu ikkisidan ayrilib yashay olsa, uning uchun boshqa musibatlar arzimagan narsa. Jonimning ham chiqib ketishiga ishonib, uni tinchlantiryapman, lekin ildizi qurigan daraxtning shoxi qanday qilib qolishi mumkin? Ushbu fikrlar manbasini aniqlang. A.“Tazkirat ul-avliyo” B.“Nasoyim ul-muhabbat” S.“Yatimat ud-dahr” D.“Miftoh ul-adl”
979. Oybekning ijodiy yo‘li tasvirlangan “Quyoshli qalam” poemasi muallifi kim? A.Zarifa Saidnosirova B.Zulfiya S.Nodira Rashidova D.Mirzo Kenjabek
980. Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. (O‘zbek maqoli) Ushbu maqolga o‘xshash “Bigizni qopda yashirib bo‘lmas” maqoli qaysi millatning maqoli hisoblanadi? A.rus B.arab S.ispan D.ingliz
981. Oshiqning imoni kafolat bo‘lgani uchun, o‘zini unga dadil topshirmoqchi bo‘lgan qiz obrazi qaysi asarda berilgan? A.“Otello” B.“Yevgeniy Onegin” C.“Atta Tirol” D.“Germaniya. Qish ertagi”
982. Xalq dostonlari xususiyatlari to‘g‘ri sanalgan javobni aniqlang. 1.favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlar 2.she’r va nasrning aralashishi 3.yirik hajm 4.muallifning noma’lumligi 5.epik asar. A.1, 2, 3, 4 B.2, 3. 4 S.4, 5 D.1, 2, 3. 4. 5
983. Xalq dostonchiligi taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo‘lgan sanani aniqlang. A.X-XII B.XV-XVI S.XIX-XX D.XIII-XIX
984. Xalqning hozirgi kungacha o‘ziga homiy deb bilgan hayvonlar mifologiyada nima deyilgan? A.totem B.fetish S.anima D.to‘g‘ri javob berilmagan

ADABIYOT BAZA 2019 I-QISM